

A.K.Kaxarov, M.K.Narbaeva, E.S.Shaptakov,  
A.Shermatov, **A.A.Xushvaqto**

# QISHLOQ XO'JALIK HAYVONLARINI URCHITISH



**A.K.Kaxarov, M.K.Narbaeva, E.S.Shaptakov,  
A.Shermatov, A.A.Xushvaqto**

# **QISHLOQ XO‘JALIK HAYVONLARINI URCHITISH**

**( AMALIY MASHG‘ULOTLARLAR )  
O‘QUV QO‘LLANMA**

Samarqand - 2019  
“Zarafshon” nashriyoti DK



636.082  
Q 51

45

Q-51

Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish [Матн] : / A.K.Kaxarov [va boshq.]. - Samarqand : Zarafshon, 2019. - 212 b.

KBK - 45

**Taqrizchilar:**

Qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor N.A.Boboqulov  
Qishloq xo'jalik fanlari nomzodi, dotsent Q.Haydarov


Ushbu kitobdan o'rin olgan chorva mollarini urchitishga doir amaliy mashg'ulotlarda qoramolchilik, qo'ychilik, parrandachilik, yilqichilik, cho'chqachilikka oid bir qator ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga chorva mollari va parrandalarning o'sish va rivojlanishi (ontogenez), konstitutsiyasi va ekstereri, tana o'lchovlarini olish, mahsuldorligini hisobga olish va baholash, tanlash va juftlash, nasl-nasab shajarasini tuzish, har xil urchitish usullaridan foydalanish bo'yicha rasmlar hamda jadvallar yordamida ifodalab berilgan.

Ushbu qo'llanma qishloq xo'jaligi oliy o'quv yurtlarining zootexniya, veterinariya va kasb ta'limi (zootexniya, veterinariya) ta'lim yo'nalishlari talabalariga mo'ljallangan. Qo'llanmadagi ma'lumotlardan chorvachilik sohasida ta'lim olayotgan magistrantlar, ilmiy xodimlar, turli toifadagi chorvachilik xo'jaliklarining rahbarlari va mutaxassislari ham foydalanishlari mumkin.

**ISBN 978-9943-5410-2-3**

© .K.Kaxarov, M.K.Narbaeva, E.S.Shaptakov

©“Zarafshon” nashriyoti DK, 2019



## KIRISH

Respublikamizda chorvachilikni rivojlantirishga so'nggi yillarda katta e'tibor berilmoqda. Tarmoqni rivojlantirishdagi eng muhim vazifalardan biri naslchilik ishini yaxshilash va naslli mollar yetishtirishni ko'paytirishdir.

Chorva mollarini urchitish fani naslchilik ishining nazariy va amaliy asoslarini o'rgatadi. Shunga ko'ra amaliy mashg'ulotlar chorva mollarini urchitish bo'yicha qo'llanma rejasi asosida yozilgan bo'lib, ma'ruzalar bilan bog'lab berilgan.

Amaliy mashg'ulotlar ma'lum reja va tartibda keltirilib, keyingi mavzularni o'tkazish oldingi mavzular bilan birgalikda olib boriladi.

Qo'llanmada har bir mashg'ulotni o'tkazishning maqsadi, unga kerakli asbob-uskunalar, birlamchi zootexniya hujjatlari berilgan.

Amaliy mashg'ulotlarni yozib borish uchun ish daftaridan foydalaniladi. Mashg'ulotlar 33 ta ikki soatlik mashg'ulotlardan tuzilgan bo'lib, ularni o'zlashtirishda o'quv tajriba xo'jaligi va institut vivariyasidagi har xil chorva mollaridan, naslchilik va birlamchi zootexniya hujjatlaridan, davlat naslchilik kitoblaridan, ilmiy ishlar natijalari, jadvallar, suratlar, plakatlar, kinofilmlar, diafilmlar va boshqa ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi.

Chorva mollarini urchitish fanini o'zlashtirish davomida institut o'quv-tajriba xo'jaligining chorvachilik fermasiga, nasl-xizmat naslchilik korxonasiga, naslchilik zavodi, naslchilik xo'jaligi va fermasi maqomini olgan xo'jaliklarga va ilg'or fermer xo'jaliklari hamda parrandachilik fabrikalariga chiqishlar uyushtirilgan holda amaliyot ishlari o'tkaziladi.

Mashg'ulotlarni o'zlashtirishga yordam berish maqsadida o'quv yili davomida joriy nazoratlari yoki sinov suhbatlari o'tkaziladi. Ko'pgina topshiriqlar ko'rgazma sifatida berilgan bo'lib, kafedra o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda talabalar uchun qo'shimcha topshiriqlar tayyorlashi va ulardan foydalanishi mumkin.



## **CHORVA MOLLARINI O'SISHI VA RIVOJLANISHI** **(ontogenez)**

Yuqori naslli va mahsuldor hayvonlar yaratish uchun ularning o'sish va rivojlanishini boshqarib borishni bilish va tahlil qilish zarur.

Hayvonlarning o'ziga xos shaxsiy taraqqiyotiga ontogenez deyiladi. Ontogenez tuxum hujayra urug'langach, zigota hosil bo'lib, hayvon tug'ilgandan so'ng umri oxirigacha o'tgan davrni o'z ichiga oladi.

Hayvonlarning o'ziga xos taraqqiyoti o'sish va farqlanish jarayonidan iboratdir.

O'sish bu miqdoriy o'zgarish bo'lib, hujayralar, to'qimalar, organlar massasini oshish, o'lchovlarining ortishi va hajmining kattalashishidir. Farqlanish bu sifat o'zgarish bo'lib, hujayralar, to'qimalar va organlarda yuz beradigan morfologik, fiziologik va biokimyoviy o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

O'sish va farqlanish yoki miqdor va sifat o'zgarishlarning yig'indisiga rivojlanish deyiladi. O'sish va rivojlanishning qonuniyatlarini bilish, ularga ta'sir qiluvchi omillar yordamida chorva mollarining o'ziga xos taraqqiyotini boshqarish va ma'lum bir mahsulot yo'nalishidagi hayvonlarni parvarishlab etishtirish imkonini beradi.

## 1-mashg'ulot. CHORVA MOLLARINING O'SISHINI HISOBGA OLISH

**Darsning maqsadi:** Qishloq xo'jalik hayvonlari o'sishini aniqlash usullari bilan tanishish, mutloq va nisbiy o'sishni hisoblash usulini bilish hamda shu ma'lumotlar asosida hayvonlarni o'sish ko'rsatkichlarini taqqoslash natijasida aniq xulosalar qilish.

**Uslubiy qo'llanmalar.** Hayvonlarning o'sishini o'rganishda anatomiya, gistologiya, biokimyo va fiziologiya fanlari usullaridan foydalaniladi.

Hayvonlar organizmida o'sishni o'rganish vaqti-vaqti bilan o'tkaziladi. O'sishni aniqlash uchun tug'ilgandan keyin buzoqlar va toylarni 1, 2, 3, 6, 9, 12, 18, 24 oyligida keyin 6 oyda yoki bir yilda bir marta, cho'chqalarni tug'ilganida va 1, 2, 4, 6, 9, 12, 18, 24 oyligida, qo'zilarni tug'ilganda va 1, 4, 12 hamda 24 oyligida tarozida tortib boriladi.

Yirik hayvonlarni tortganda to 100 grammgacha, mayda hayvonlarni esa 1 grammgacha bo'lgan og'irligi ham hisobga olinadi. Bo'g'oz mollarni tuqqanidan keyin bir oy o'tkazib, sog'iladigan hayvonlarni sog'ib olingandan keyin va ishchi hayvonlarni ishlagandan keyin dam berib tarozida tortiladi.

O'sishni o'rganish uchun bir nechta usullardan foydalaniladi:

- tarozida tortish usuli;
- o'lchamlar olish usuli;
- tana sathini aniqlash usuli;
- grafik tuzish usuli.

Har xil turga mansub bo'lgan (qoramol, cho'chqa, qo'y va boshqalar) hayvonlarni tug'ilganidan ma'lum bir yoshgacha bo'lgan tirik vaznining ko'rsatkichlari ish daftariga quyidagi shartli tasvir tariqasida yoziladi.



O'sishni grafikda ifodalanishi.



O'sishni o'rganishda mutloq va nisbiy o'sish aniqlanadi.

Mutloq o'sish bu hayvon organizmining muayyan davr ichida natural ko'rsatkich hisobida haqiqiy oshishini yoki o'sish teziligini ko'rsatadi va quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$A = \frac{W_t - W_c}{t}$$

Nisbiy o'sish – bu hayvon organizmining muayyan davr ichida, shu davr boshidagi og'irligiga nisbatan foiz hisobida o'sishi yoki o'sish quvvatidir. Nisbiy o'sishni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi.

$$K = \frac{W_t - W_o}{W_o} \times 100$$

Formulada: A-mutloq o'sish;

K-nisbiy o'sish;

W<sub>o</sub>- davr boshidagi tirik vazn;

W<sub>t</sub>- davr oxiridagi tirik vazn;

t-o'tgan vaqt, kun hisobida.

Olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda asosiy e'tiborni nisbiy o'sish dinamikasiga qaratish zarur. Hayvonlarda yosh o'tishi bilan, o'sish quvvati kamayib boradi va bu normal holat hisoblanadi, o'sish tezligini qisman katta yoshdagi hayvonlarda jadallashganligi sababini yoshligida o'smay qolganligi o'rni to'ldirish (kompensatsiya) deb qarash lozim.

1-jadval

**Buqachalarning kunlik o'sish ko'rsatkichlari, g ( $\bar{X} \pm Sx$ )**


**(B.Toshpo'latov, 2013)**

O'sish davrlari, oylar	Guruhlar		
	I	II	III
0-3	483±5,1	513±3,9	523±4,2
4-6	517±3,9	557±2,7	628±4,1
7-9	539±4,1	593±4,1	573±3,7
10-12	769±3,9	843±3,9	857±4,8
13-15	807±4,1	896±4,9	933±5,8
16-18	893±5,2	999±5,7	1011±6,1
19-21	862±4,7	918±4,1	980±4,9

Buqachalarning mutloq o'sish ko'rsatkichlari, kg ( $\bar{X} \pm Sx$ )  
(B.Toshpo'latov, 2013)

O'sish davrlari, oylar	Guruhlar		
	I	II	III
0-3	43,5±0,4	46,2±0,5	47,1±0,7
4-6	46,5±1,3	50,1±2,1	56,5±1,2
7-9	48,5±0,9	53,4±0,9	51,6±0,4
10-12	69,2±1,4	75,9±0,6	77,1±0,7
13-15	72,6±1,2	80,6±0,5	84,0±1,1
16-18	80,4±2,4	89,0±1,2	91,0±0,9
19-21	77,6±1,4	82,6±1,1	88,2±1,4

Buqachalarning o'sish ko'rsatkichlarini grafikda ifodalanishi  
(B.Toshpo'latov, 2013)





Oziqlantirish sharoiti turlicha bo'lgan qora-ola zotiga mansub yosh buzoqlarning tirik vazni to'g'risidagi ma'lumot

Yoshi, oy hisobida	Yuqori oziqa normasi bilan boqilgan				O'rta oziqa normasi bilan boqilgan			
	Tirik vazn, kg	Mutloq o'sish, kg	Bir kunlik o'sish, g	Nisbiy o'sish, %	Tirik vazn, kg	Mutloq o'sish, kg	Bir kunlik o'sish, g	Nisbiy o'sish, %
tug'ilganda	32,3				32,2			
1-oyligida	61,1				47,4			
2-oyligida	79,2				64,6			
3-oyligida	102,9				82,9			
4-oyligida	127,2				98,6			
5-oyligida	149,9				110,7			
6-oyligida	168,8				126,2			

O'zbekiston mahalliy zebusimon sigirlari bilan shvits zotli buqalarni juftlash natijasida olingan birnchi bo'g'in chatishma erkak va urg'ochi buzoqlarning tirik vazni (A.Kaxarov, A.Akramov)

Yoshi, oy hisobida	Urg'ochisi				Erkagi			
	Tirik vazni, kg	Mutloq o'sish, kg	Bir kunlik o'sish, g	Nisbiy o'sish, %	Tirik vazni, kg	Mutloq o'sish, kg	Bir kunlik o'sish, g	Nisbiy o'sish, %
tug'ilganda	23,0				24,5			
1	38,7				40,7			
2	58,1				62,6			
3	78,2				86,5			
4	98,1				107,6			
5	112,6				131,6			
6	138,4				157,1			

**2-topshiriq.** O'zbekistonda urchitiladigan sut yo'nalishidagi qoramollarni ko'jalik sharoitida boqilganda, asrash sharti ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Shu ma'lumotlar 9-jadvalda keltirilgan. Ushbu ko'rsatkichlarga qarab har bir zot uchun mutloq va nisbiy o'sishni hisoblab, qaysi asrash usulida qaysi zot samarali ekanligi to'g'risida xulosa qiling.

**9-jadval**

**Yosh novvoslar tirik vazni o'zgarishini saqlash sharoitiga bog'liqligi, kg  
(Z.T.To'raqulov, A.Abdurasulov)**

Yoshi, oy hisobida	Binoda			Ochiq maydonda		
	Qora-ola	Qizil cho'l	Bushuev	Qora-ola	Qizil cho'l	Bushuev
6	138,6	131,6	135,1	139,5	132,2	134,8
9	202,1	196,7	198,1	209,4	202,8	207,2
12	287,3	278,2	282,0	296,0	285,0	289,3
15	390,4	379,8	381,0	405,1	391,0	395,7
18	482,5	465,1	472,2	507,0	484,6	490,0

**3-topshiriq.** Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani cho'qachilik ko'jaligida yirik oq cho'chqa zoti bir necha marta boshqa zotlar bilan chatishtirilib, birinchi bo'g'in chatishma avlodlar olingan. Ushbu duragaylarning ayrim mahsuldorlik ko'rsatkichlari 10-jadvalda berilgan. Shu ma'lumotlar asosida qaysi zot bilan chatishtirish samarali ekanligi to'g'risida xulosa qilib, o'rtacha kunlik va nisbiy o'sishni aniqlang.

**10-jadval**

**Har xil genotipdagi yosh erkak chatishma cho'chqalarning o'sish ko'rsatkichlari (M.Yorbekov)**

Guruhlar	tug'ilganda	2 oyligida	4 oyligida	6 oyligida	8 oyligida
	YO x YO	1,22	16,0	38,3	70,8
YO x ShK	1,25	16,0	39,8	72,8	102,6
YO x L	1,28	16,4	39,3	73,9	105,6
YO x ShK	1,26	16,5	41,9	76,1	107,3
YO x D	1,30	16,7	40,8	76,8	109,7

Izoh: YO- yirik oq, L-Landras, ShK-shimoliy kavkaz, D-Dyurok zotlari



**4-topshiriq.** 11-jadval ma'lumotlari asosida qorako'l qo'ylarining tirik vazni, terisining sathi va follikulalar soniga qarab fikr yuritilsin va ushbu ko'rsatkichlarning dastlabki miqdori keyingilari bilan taqqoslansin.

11-jadval

**Qorako'l qo'ylar ayrim organ va to'qimalarining mutloq va nisbiy o'sishi (M.J.Zokirov)**

Yoshi	Tirik vazni		Terisining sathi		Follikulalar soni	
	kg	1-2 kunlikka nisbatan %	Dm <sup>2</sup>	1-2 kunlikka nisbatan %	soni	1-2 kunlikka nisbatan %
1-2 kunlik	4,12	100	15	100	63	100
6 oylik	26,7	648	33	120	43	48
12 oylik	28,3	686	41	278	34	47
18 oylik	38,6	936	59	393	31	33
2 yosh	44,5	1080	65	433	28	30
4 yosh	48,8	1184	69	460	26	28
6 yosh	45,2	1097	66	440	22	24

**5-topshiriq.** Xayseks braun krossiga mansub bo'lgan jo'jalarning tirik vazni quyidagi 12-jadvalda berilgan. Shu ma'lumotlar asosida urg'ochi va erkak jo'jalarning mutloq va nisbiy o'sishini aniqlang.

12-jadval

**Samarqand qishloq xo'jalik instituti o'quv - tajriba xo'jaligidagi jo'jalarning tirik vazni (A.P.Sogomonov)**

Yoshi	Xo'rozchalar	Makiyonchalar
1 kunlik	39,1	39,1
4 haftalik	238,0	236,0
8 haftalik	603,1	561,0
10 haftalik	845,5	785,3
12 haftalik	1002,6	907,7
17 haftalik	1420	1308,0
20 haftalik	1951,0	1444,8

**6-topshiriq.** O'zbekiston sharoitida mahalliy zebusimon sigirlarning mahsuldorlik ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida boshqa madaniy zotlarning buqalari bilan qon singdirish chatishtirish olib borilgan. Jumladan

shvits zoti bilan chatishtirish ham keng qo'llanilgan. Quyidagi 13-jadvalda chatishtirish natijasida olingan har xil genotipli chatishma avlodlarning tirik vazni to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Shu ko'rsatkichlarga qarab chatishma hayvonlarning mutloq va nisbiy o'sishini aniqlang.

13-jadval

**Chatishma buzoqlar tirik vaznining o'zgarishi (Sh.X.Akbarxo'jaev)**

Yoshi, oy hisobida	Birinchi bo'g'in (F <sub>1</sub> )		Uchinchi bo'g'in (F <sub>3</sub> )	
	Erkak	Urg'ochi	Erkak	Urg'ochi
Tug'ilganda	25,8	24,5	29,3	29,0
3 oyligida	75,0	80,0	84,0	70,0
6 oyligida	123,0	121,4	139,0	126,2
12 oyligida	238,7	217,1	270,6	238,6
15 oyligida	310,5	288,0	360,8	315,6
18 oyligida	370,4	330,5	418,6	368,8

**7-topshiriq.** Samarqand viloyati, Tayloq tumani "Bog'izag'on" xo'jaligi sharoitida turli zotga mansub bo'lgan quyonlar urchitiladi. Shu quyonlarning turli yoshdagi tirik vazni to'g'risida ma'lumotlar jadvalda berilgan. Ushbu ko'rsatkichlarga qarab quyonlarning mutloq va nisbiy o'sishini hisoblang.

14-jadval


**Quyonlarning yoshiga qarab tirik vaznini o'zgarishi, g (O.M.Mamatqulov)**

Zoti	Yoshi, kun			
	40	60	90	120
Kulrang velikan	1030	1390	2396	3200
Oq rangli velikan	1045	1395	2390	3220
Sovet shinshillasi	1031	1430	2410	3320
Qora qo'ng'ir	1036	1360	2380	3140



### Mustqil ishlash uchun topshiriqlar

1. Qoramollarni tirik vaznini o'zgarishini buzoqlarni tirik vaznining o'zgarishi misolida bajarish
2. Qorako'l qo'ylar ayrim organ va to'qimalarining mutloq va nisbiy o'sishini o'rganing?
3. O'sish va rivojlanishning jadalligi qanday omillarga bog'liqligi bo'yicha misollar keltiring?
4. Klaster usulida o'sishni o'rganing?



**Izoh:** Klaster usulidan foydalanib, o'sishni o'rganish uchun o'lchamlar olish, tana sathini aniqlash, grafik tuzish usullarini keltiring. Har xil turga mansub bo'lgan (qoramol, cho'chqa, qo'y va boshqalar) hayvonlarni tug'ilganidan ma'lum bir yoshgacha bo'lgan tirik vaznini aniqlang.

### 2-mashg'ulot. HAR XIL TURDAGI HAYVONLAR TANA TUZILISHINING YOSH ORTISHI BILAN O'ZGARIB BORISHI

**Darsning maqsadi:** Chorva mollarining turli davrlarda bir tekis rivojlanmasligi, yoshi ortib borgan sayin ularning gavda tuzilish mutanosibligini o'zgarib borishi hamda bu ko'rsatkichlarga ontogeneznining turli bosqichlarida tashqi muhit omillarining ta'siri natijasida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni tahlil qilish.

**Uslubiy qo'llanmalar:** Qishloq xo'jalik hayvonlari ontogeneznining turli bosqichlarida bir tekis rivojlanmasligi, hayvonning yoshi ortib borgan sayin

ularning gavda tuzilish mutanosibligini o'zgarib borishi to'g'risidagi dastlabki tadqiqotlarni professor N.P.Chirvinskiy o'tkazgan.

N.P.Chirvinskiy ma'lumotlariga ko'ra, postembrional davrida qovurg'alar pocha (ilik) suyaklariga nisbatan 5 barobar tez o'sadi. Boshqa suyaklar bu jihatdan oraliq o'rinda turadi. Periferik skelet suyaklari ya'ni: (qo'l, oyoq suyaklari) elka, son, katta boldir, bilak, tirsak, to'piq va pocha suyaklari, postembrional davridagi gavda (o'q skelet) suyaklari, umurtqa pog'onasi, qovurg'alar hamda ko'krak suyagiga nisbatan ancha sekin o'sadi.

Skelet ayrim qismlari massasining bir tekis o'smasligi natijasida yoshi o'tgan sayin hayvonlarning gavda tuzilish mutanosibligi tobora ko'proq o'zgara boradi. Chunonchi, ona qornidagi davrida periferik skelet suyaklari tezroq o'sadi, shu sababli buzoqlar biroz uzun oyoqli, tos (chanoq) suyagi baland, ko'kragi tor, boshi kalta va keng, gavdasi kalta va ensiz bo'lib tug'iladi. Bu ko'rsatkich yosh o'tishi bilan tez o'zgaradi, gavda uzunlashadi, ko'kraklar chuqurlashadi, muskullari zichlashib boradi va h.k.

#### Qoramollar o'zining dastlabki yoshida

Uzunligini	- 56 %
Balandligini	- 81 %
Kengligini	- 55 %

#### Ikkinchi yoshida

Uzunligini	- 25 %
Balandligini	- 18 %
Kengligini	- 29 %

#### Uchinchi yoshida

Uzunligini	- 7 %
Balandligini	- 4 %
Kengligini	- 8 % oshiradi.

V.Ya.Brovar ma'lumoti bo'yicha, har xil hayvonlarda o'q skeleti bilan periferik skeletining o'sishidagi o'zgarishlar quyidagicha bo'ladi (15-jadval).

A.N.Seversovning tadqiqotlarining natijalari shuni ko'rsatadiki, organizmdagi ayrim organ va sistemalar o'sishi va rivojlanishi bo'yicha o'ziga xos qonuniyatlarga ega ekan. Jumladan, jinsiy bezlar, qon, muskullar, suyak, buyrak, yurak singari eng so'nggi embrion davridan (mezodermadan) rivojlanadigan organlar ertaroq vujudga keladi, ammo sekin rivojlanadi.



## Har xil turdagi hayvonlar skeletining o'sish xususiyatlari

Hayvonlar turi	Skeletining massasi		Ona qornidan keyingi davrda rivojlanish koeffitsienti	
	Yangi tug'ilgan hayvonlar	Katta yoshdagi hayvonlar	O'q skelet	Periferik skelet
Ot	30	13	8	5
Sigir	25	10	9	3
Qo'y	18	7	12	10
Quyvon	15	8	28	55
Mushuk	16	10	15	27

Jigar, o'pka, ichaklar (endodermadan hosil bo'ladi), teri va uning muskullari, asab sistemasi va ba'zi boshqa organlar (ektodermadan hosil bo'ladi) keyinroq vujudga keladi, ammo ancha jadal rivojlanadi. Bu tafovutlar hayvonlar gavdasini mutanosibligining turlicha bo'lishiga olib keladi.

Tashqi muhit omillari organizmning o'sishi va rivojlanishiga katta ta'sir etadi. Bunga yaqqol misol tariqasida embronalizm, infantilizm va neoteniya hodisasini keltirish mumkin.

**Embronalizm.** Bu organizmning ona qornidagi davrida o'smay qolishi natijasida kelib chiqadigan chala rivojlanishdir. Bunday hayvonlar vazni engil, kalta oyoqli bo'lib, yurak, qon, tomir va ovqat xazm qilish sistemalari yaxshi rivojlanmaydi. Voyaga etganda gavdasining mutanosibligi xuddi yangi tug'ilgan buzoqlarnikiga o'xshab qoladi, bunday nuqsonlarning sababi onaning normal rivojlanmaganligi, bo'g'ozlik davrida uning sifatsiz oziqalar bilan oziqlanishi yoki aksincha, juda semirib ketishiga olib keladigan me'yoriydan ortiqcha oziqlanishi hamda kasallanishdir.

**Infantilizm-** bu hayvonlarni tug'ilganidan keyingi davrida o'smay qolishi natijasida kelib chiqadigan chala rivojlanishidir. Bunday hayvonlar uzunoyoq orqa qismi baland, gavdasi, bo'yi va eniga qarab chala rivojlangan, muskullari sut bezlari, suyak to'qimasi, ovqat hazm qilish organlari yetarli rivojlanmagan va tirik vazni kichik bo'ladi.

Infantilizmning asosiy sababi yosh mollarni sut emish davrida va undan keyingi davrlarda yetarli ravishda oziqlantirmaslik va asrash sharoitini talabga javob bermasligi hamda uzoq vaqt kasallanishidir.

**Neoteniya** esa, organizmning rivojlanishidan orqada qolishidir. embrionalizm va infantilizm, neoteniyaning o'ziga xos shakllaridir.

O'sishning uzoq vaqt to'xtab qolishi qaytmas harakterga ega, uning o'rnini batamom to'ldirib bo'lmaydi. Faqat o'sishdagi ba'zi kechikishni, sifatli o'shimcha oziqalar bilan oziqlantirish va parvarishlash sharoitini yaxshilash yo'li bilan tuzatish yoki tiklash mumkin.

**Kerakli o'quv qurollari.** Ish daftari, har xil turga va jinsga mansub normal hamda chala rivojlangan hayvonlarning rasmlari, turlicha sharoitda parvarishlangan yosh va yetuk yoshdagi hayvonlarning asosiy tana o'lchamlari hamda tana tuzilish indekslari to'g'risidagi ma'lumotlar yozilgan jadvallar.

**1-topshiriq.** Har xil genotipli mahalliy zebusimon chatishma hayvonlarni tana o'lchamlarining ko'rsatkichlariga qarab, yosh o'tishi bilan bog'liq bo'lgan tana qismlari o'zgarishi to'g'risida xulosa qiling. Ushbu ma'lumotlar asosida tana tuzilish indekslarini aniqlab, 18 oyligidagi ko'rsatkichlarini standart deb, 3 va 6 oyligidagi ko'rsatkichlarni unga taqqoslab eksteryer profilini tuzing (16-jadval).

#### 16-jadval

Har xil genotipli mahalliy zebusimon chatishma hayvonlarni yosh kesimida tana o'lchamlari, sm (P.S.Sobirov)

O'lchovlar	Mahalliy zebusimon x qizil cho'l			Mahalliy zebusimon x shvits		
	Yoshi, oy hisobida			Yoshi, oy hisobida		
	3	6	18	3	6	18
Yag'rin balandligi	80,9	88,6	120,1	78,1	85,6	119,6
Dumg'aza balandligi	81,4	90,5	127,8	80,3	86,0	127,3
O'tirg'ich do'ngliklari balandligi	79,4	85,6	119,6	77,6	85,4	119,4
Ko'krak aylanasi	103,5	120	172,4	97,4	115,4	171,3
Gavda qiya uzunligi	87,3	100,3	142,3	83,5	97,9	142,1
Ko'krak chuqurligi	35,4	40,8	64,0	32,4	39,3	64,1
Ko'krak kengligi	21,7	24,7	42,1	20,1	24,2	42,0
Pocha aylanasi	12,9	14,1	18,1	13,1	141,4	18,2

**2-topshiriq.** Yirik oq cho'chqa zotining asosiy tana o'lchamlari turli ushda o'lchangan va bu ma'lumotlar 17-jadvalda berilgan. Shu ma'lumotlar asosida cho'chqalarning asosiy tana tuzilish indekslarini aniqlang hamda hayvonlarning yosh o'tishi bilan o'zgarishi to'g'risida xulosa qiling.

Samir Axborot-Resurs Markazi  
17  
Inv No  
368-188



**Yirik oq cho'chqa zotining tana o'lchamlarini (sm) yosh ortishi bilan o'zgarishi  
(B.P.Volkopyalov)**

Yoshi, oy hisobida	Gavda uzunligi	Ko'krak qafasining aylanasi	Ko'krak chuqurligi	Yelka balandligi
12-18	156,3	144,6	51,1	82,3
19-24	164,0	153,0	51,7	87,6
25-30	167,3	156,7	53,3	91,4
31-36	170,6	158,5	54,9	91,5
37 va kattalari	172,4	163,2	56,5	93,2

**3-topshiriq.** Orlov zotli biya va ayg'irlarning turli yoshdagi tana o'lchamlari 18-jadvalda berilgan. Ana shu ko'rsatkichlar asosida tana tuzilish indeksleri hisoblansin va 30 oylikdagi ko'rsatkichlarga taqqoslab eksterer profili chizilsin.

**Orlov zotli otlarning turli yoshdagi tana o'lchamlari (G.Xitenkov)**

O'lchamlari, sm	Tug'il-ganda	3	6	12	18	24	30	30 oydan katta
<b>Ayg'irlar</b>								
Qarchig'ay balandligi	95,3	118,8	130,9	142,4	151,5	156,9	159,4	160,9
Gavda uzunligi qiya	72,9	106,1	119,3	136,0	148,4	156,0	160,0	161,0
Ko'krak aylanasi	81,8	114,5	130,1	149,0	161,0	176,3	178,7	183,0
Pocha aylanasi	11,6	15,2	16,7	18,3	19,8	20,6	20,3	20,3
<b>Biyalar</b>								
Qarchig'ay balandligi	95,7	118,1	130,2	142,6	150,6	155,2	158,3	158,0
Gavda uzunligi qiya	70,7	107,1	120,5	136,6	148,9	154,3	158,8	160,2
Ko'krak aylanasi	82,1	115,3	131,3	151,8	161,7	173,9	179,1	180,0
Pocha aylanasi	11,5	15,3	16,6	17,8	19,5	20,1	20,1	19,8

**5-topshiriq.** Qorako'l qo'ylarning embrion davridagi ichki organlarining rivojlanishi 19-jadvalda berilgan. Ushbu ma'lumotlarga qarab organlarning notekis rivojlanishi to'g'risida xulosa qiling.

**Organlarning rivojlanish ko'rsatkichlari, g  
(E.S.Shaptakov)**

Organlar	Homilaning yoshi, kun			
	60	90	120	133
Yurak	0,62	3,67	10,3	15,7
Kekirdak	1,12	1,37	2,78	5,83
O'pka	3,07	20,3	48,2	67,9
Qizilo'ngach	0,63	1,12	2,63	3,41
Oshqozon	0,67	5,58	13,8	24,3
Katta qorin	0,31	2,51	5,67	7,03
To'r qorin	0,12	0,66	1,31	2,32
Qat qorin	0,11	0,83	1,99	2,53
Shirdon	0,15	1,58	5,62	12,5
Jigar	0,86	35,9	89,9	93,1
Buyrak	0,79	5,09	10,9	13,2
Homilaning vazni	76,2	650,2	2233,4	3418,1

**Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar**

1.Tana tuzilish indekslarini aniqlab, eksterer profilni tuzishni o'rganish

2.Embronalizm, infantilizm va neoteniya hodisalari haqida misollar  
eltiring

3.Charxpalak usulidan foydalanib, har xil turdagi hayvonlar skeletining  
tuzilish xususiyatlarini to'g'ri joylashtiring

Hayvonlar turi	Skeletining massasi	
	Yangi tug'ilgan hayvonlar	Katta yoshdagi hayvonlar
Ot		
Sigir		
Qo'y		
Quyov		
Mushuk		



### 3-mashg'ulot. CHORVA MOLLARINING KONSTITUTSIYASI VA EKSTERERI

Hayvonlarning anatomik va fiziologik belgi va xususiyatlari yig'indisiga konstitutsiya deyiladi. Konstitutsiya organizmning rivojlanish va nasl qoldirish imkoniyatini belgilovchi ko'rsatkichlardan biridir.

Hayvonlar konstitutsiyasi ularning tashqi va ichki tuzilishiga qarab o'rganiladi. Hayvonlarning tashqi ko'rinishi yoki tuzilishiga eksteryer deyiladi.

Eksteryerni o'rganish hayvonlarning tashqi ko'rinishi yoki tana tuzilishi bilan ularning nasl sifati, mahsulot yunalishi, mahsuldorlik darajasi, sog'lomligi orasidagi bog'lanishga asoslangan. Eksteryer yordamida hayvonlarning ko'pgina biologik xususiyatlarini va xo'jalik foydali belgilari o'rganilib tahlil qilinadi.


Hayvonlar eksteryerini o'rganish natijasida ularning zoti, zotligi, jinsi, yoshi, mahsulot yo'nalishi, mahsuldorlik darajasi, konstitutsiya tipi, konditsiyasi, sog'lomligi va harakatchanligini bilish mumkin. Eksteryerni o'rganish va baholash muhim zootexnikaviy tadbir bo'lib, nazariy bilim va amaliy tajribani talab qiladi.

Hayvonlar eksteryerini baholash ko'z bilan chamalash, paypaslab ko'rish va o'lchovlar olish orqali amalga oshiriladi. Ammo, o'lchovlar olish usuli hayvonning tashqi ko'rinishi to'g'risida to'liq tasavvur hosil qilishga imkon bermaydi, ya'ni uning ayrim eksteryer xususiyatlarini aniqlash uchun biroz qiyinchilik tug'diradi. Bunday holda hayvonlarni suratga tushirish, tana tuzilish indekslarini hisoblash va eksteryer profilini (tasvirini) chizish kabi usullar qo'llaniladi.

Eksteryerni ko'z bilan baholash uchun hayvon zotlarining belgi va xususiyatlarini, ularning ayrim tana qismlarini (statlar) yaxshi bilish zarur. Dastlab hayvon tanasining umumiy tuzilishi, tana qismlarining o'zaro mutanosibligi, zot tipining ko'rinishi, mahsuldorlik yo'nalishi aniqlanadi. Shundan so'ng ayrim tana qismlari baholanadi. Eksteryerni harakterlovchi muhim tana qismlariga bosh, bo'yin, yag'rin, ko'krak, y elka, bel, sag'rin, oyoqlar, sut bezlari, jinsiy organlar, teri, muskul, suyak to'qimalarining rivojlanishi kabilar kiradi. Baholash hayvonni bosh qismidan boshlanib, oyoqlari bilan tugallanadi.




1-rasm. Sut tipidagi sigirning tana shakli (uchburchak shaklda)



2-rasm. Go'sht tipidagi qoramollarning tana shakli (to'rtburchak shaklda)



3-rasm. Sut bezlari yaxshi rivojlangan sigir.



4-rasm. Volga laqabli qora-ola zotli sigir, uchinchi laktatsiyada 4,2% yog'lilikdagi 17517 kg sut bergan, sutdagi yog' chiqimi 736 kg bo'lgan

Tana tuzilishida ayrim kamchiliklar va nuqsonlarga alohida e'tibor qaratiladi. Sog'in sigirlar hazm qilgan oziqalarning asosiy qismi sutga aylanadi.

Sersut sigirlarning oziqlantirish organlari, yuragi, o'pkasi, sut bezlari kuchli rivojlangan bo'lib, suyaklari yengil va muskul qismlari nisbatan yetarli rivojlanmagan bo'ladi. Bunday holat sut tipiga mansub bo'lgan hayvonlar, sut yo'nalishidagi zotlarda (qora-ola, qizil cho'l, bushuev) va boshqalar ko'p uchraydi.

Go'sht tipidagi mollar semirishga moyil bo'lib, tanasida yog' to'planishi bilan ajralib turadi (4-rasm).



Ular hazm qilgan oziqalarning ko'p miqdori yog'ga aylanib, teri ostida, muskullar orasida va ichki organlar atrofida to'planadi.

Go'sht tipidagi hayvonlarda muskul to'qimalari kuchli rivojlangan bo'lib, oziqlanish bilan bevosita bog'liq bo'lgan organlari, yurak va o'pka, sut bezlari birmuncha past rivojlangan bo'ladi. Bunday holat go'sht tipidagi hayvonlar: qozoqi oq bosh, qolmoq, gereford, santa - gertruda, aberdin anguss zotlarda ko'p uchraydi.



5-rasm. Aberdin anguss zoti



6-rasm. Santa-gertruda zoti



7-rasm. Gereford zoti

## Buqacha va naslli buqalarni eksteryeri bo'yicha baholash jadvali

T/r	Baholash ko'rsatkichlari	Eng yuqori ball	Umumiy baholashdagi ulushi
1.	Umumiy ko'rinishi (rivojlanishi)	100	0,25
	Tana tuzilishi garmonik, mutanosib		
	Zot tipiga xos yaxshi ko'rinishga va jinsiy dimorfizmga ega		
	Turishi tetik, tanasining barcha qismlari nuqsonsiz		
	Suyaklari mustahkam, boshi va oyoqlari yengil		
	Son va yag'rinida ortiqcha go'sht qoplami yo'q		
2.	Tanasining hajmi	100	0,20
	Balandligi yetarlicha		
3.	Tanasining o'rta qismi chuqur va uzun, ammo keng emas, qovurg'alari uzun, ular egri holatda pastga va orqaga yo'nalgan, kuragi uzun egri holatda, pastga va oldinga yo'nalgan		
	Sut belgilari	100	0,20
	Tanasi burchaksimon, bo'shliq va dag'allik belgilari yo'q		
	Boshi quruq, ko'zlari chaqnagan va quloqlari harakatchan		
	Bo'yni yetarlicha uzunlikda, o'rtacha yollarga ega va ovqatni oshqozonga o'tish yo'li aniq ko'rinadi		
	Yag'rini yaxshi ifodalangan, keng emas		
	Orqa qismi tekis		
	Qovurg'alari keng va keng joylashgan		
	Kuragi ko'krak qafasiga zich birikkan		
	Och biqini chuqur, aniq ifodalangan		
	Terisi yupqa, mayin, serharakat		
Jun qoplami mayin va silliq			
4.	Tanasining orqa qismi	100	0,15
	Beli tekis, tor va keng		



20-jadvalni davomi			
	Sag'ri uzun, keng, biroz orqaga egilgan		
	Tos-son birikmalari, orqa do'ng suyak eni balandligi darajasidan biroz pastda, lekin o'tirg'ich tepaligidan yuqorida joylashgan		
	Dumi uzun va ingichka, uning ildizi orqa do'ng suyak eni darajasida joylashgan		
	Urug'donlari yaxshi rivojlangan		
5.	Oyoqlarining sifati	100	0,20
	Oyoqlari mustahkam, ingichka va dag'al emas		
	Sakrash bo'g'inlari yaxshi ifodalangan, quruq		
	Tuyoqlarning oldingi devorlari 45° burchakda egilgan, old devorlari baland, tovoni tekis		
	Jami:	100	1,00

Izoh: Nasli mahsulot (material) bonitirovkasini o'tkazish tartibi va shartlari to'g'risidagi nizomiga muvofiq

## 21-jadval

### Sigirlarni ekteryeri bo'yicha baholash jadvali

T/r	Baholash ko'rsatkichlari	Eng yuqori baho (ball)	Umumiy bahodagi salmog'i
1.	Tanasining hajmi	100	0,10
	Tanasining o'rta qismi sigirning balandligiga nisbatan uzunroq, uning hajmi, mustahkamligi va kuchi ko'zga tashlanadi		
	Kuragi uzun va chuqur, ko'krak qafasi va yag'ringa nisbatan tekis joylashgan		
	Ko'krak qafasi chuqur va keng, uning oldingi qovurg'alari bo'rtib chiqqan		
	Ko'krak asosi keng va oyoqlariga nisbatan yetarli masofada		
	Ko'krak hajmi katta va to'liq		
	Orqa qismi kuchli va to'g'ri		

## 21-jadvalni davomi

Beli keng va tekis		
O'rta qismi bochkasimon shaklda		
Qovurg'alari uzun, chuqur va keng		
Sag'ri uzun va keng		
Orqa do'ng suyaklari keng va yaqqol ifodalangan		
O'tirg'ich suyaklari va do'ngi keng joylashgan		
Tos-son birikmalari orqa do'ng suyak eni va o'tirg'ich do'ngi markazidan baland va keng joylashgan		
Sut tipining ifodalanganligi	100	0,15
Tanasining shakli burchaksimon, unda bo'shliq va dag'allik belgilari yo'q		
Boshi quruq, ko'zlari katta va chaqnagan, quloqlari serharakat		
Bo'yni uzun va ingichka		
Yag'rini yaxshi ifodalangan		
Umurtqalari quruq va yaqqol ifodalangan		
Qovurg'alari qayishgan, yassi, uzun, egilgan va keng joylashgan		
Och biqini chuqur va aniq ifodalangan		
Orqa do'ng suyak eni va o'tirg'ich do'ngi keng joylashgan, quruq		
Orqa sonlari birmuncha keng qo'yilgan va birikishida elin uchun yetarli bo'shliq mavjud		
Oyoq suyaklari tekis, mustahkam, dag'al emas		
Yelini hajmdor, kosasimon shaklda, tanaga mustahkam joylashgan, sog'ilgandan keyin yaxshi bo'shab qoladi		
Terisi bo'sh, mayin, serharakat		
Jun qoplami mayin, yaltiroq		
Oyoqlarining sifati	100	0,15



	Tuyoqlari qisqa, dumaloqsimon, ularning orqa devori chuqur, tovoni tekis, baqaylari kuchli, o'rtacha uzunlikda		
	Oldingi oyoqlari to'g'ri va keng joylashgan, tuyoqlari tik		
	Orqa oyoqlari perpendikulyar shaklda, yonidan qaralganda sakrash bo'g'inigacha to'g'ri qo'yilgan va orqasidan qaralganda keng joylashgan		
	Sakrash bo'g'inlari aniq ifodalangan, yaxshi shaklda, dag'al emas, quruq. Suyaklari tekis, kuchli, mustahkam, paylari yaxshi seziladi		
4.	Yelinining sifati	100	0,40
	Yelini simmetrik, uzun, keng va chuqur, yon tomonidan qismlarga ajralganligi ko'zga tashlanadi, tanasiga nisbatan gorizontol holatda joylashgan		
	Yelinining markaziy qismi tanasi bilan yaxshi bog'langan, kuchli rivojlangan, yelin sakrash bo'g'imlaridan yuqorida qulay joylashgan		
	Yelin tuzilishi yumshoq, elastik, sog'ib bo'lingandan keyin darrov bo'sh holatga keladi		
	Yelinning oldingi qismlari mustahkam, uzun, keng va tanaga tekis joylashgan		
	Yelinning orqa qismlari tanaga zich birikkan, ular chuqur va keng, sakrash bo'g'imlaridan yuqorida va oldingi qismlari bilan bir xil darajada joylashgan		
	So'rg'ichlar bir xil o'lchamda, o'rtacha uzunlikda va diametrdada, silindsimon shaklda, bir-biridan o'rtacha masofada joylashgan		
	Sut venalari uzun, shoxlangan shaklda ko'zga tashlanadi		
5.	<b>Umumiy ko'rinishi</b> (zot tipiga xosligi inobatga olinadi)	100	0,20
	Muskullari yaxshi rivojlangan, ona mollarga xos kuchli		
	Bo'yi baland, oyoqlari o'rtacha, tanasi cho'ziq		

Boshi nisbatan quruq, tanasiga mutanosib, burun oynasi keng va teshiklari yirik, jag'lari mustahkam, ko'zlari katta, peshonasi do'ng va keng, quloqlari o'rtacha va serharakat		
Bo'yni uzun va nisbatan ingichka, tomoqlari va ko'krak osti qismi yaxshi ifodalangan		
Tanasining oldingi qismi — gavda tuzilishi mustahkam va sut mahsuldorlik yo'nalishidagi zotlarga xos		
Yag'rini yaxshi ifodalangan, o'tkir ko'rinishda, umurtqa asosi kuragiga birikkan		
Kuraklari zich birikkan va ko'krak qismiga bir tekis joylashgan		
Ko'kragi chuqur va keng, umurtqalari aniq ifodalangan		
Qovurg'alari keng joylashgan, suyaklari keng, yassi, uzun. Och biqinidagi chuqurlik aniq ifodalangan		
Orqa qismi tekis, beli keng va tekis		
Sag'ri uzun, keng va tekis		
Orqa do'ng suyak eni keng, ko'zga yaxshi tashlanadi, bo'rtib chiqmagan		
O'tirg'ich do'ngi keng, quruq, yog' va go'sht to'qimalari to'planmagan		
Tos-son birikmalari orqa do'ng suyak eni markazida baland va keng joylashgan. Sonlari keng joylashgan va ular yelin uchun yetarli bo'shliqni ta'minlaydi		
Dumining negizi orqa chizig'i bilan bir xil darajada joylashgan, dag'al emas. Dumi ingichka		
Oldingi oyoqlari o'rtacha uzunlikda, tik holatda va keng qo'yilgan		
Orqa oyoqlari yon tomonidan qaralganda perpendikulyar va orqadan qaralganda tik holatda ko'rinadi		
Sakrash bo'g'inlari aniq ifodalangan, dag'al emas, quruq		



21-jadvalni davom

Tuyoqchalari mustahkam, o'rtacha uzunlikda		
Tuyoqlari qisqa va dumaloqsimon, ularning orqa devori baland va tovonni tekis		
Yelini hajmdor, mustahkam birikkan, kosasimon shaklda, so'rg'ichlar oralig'idagi masofa o'rtacha, tik joylashgan, yelin sog'ilgandan keyin yaxshi bo'shab qoladi		
Terisi erkin, yupqa va harakatchan. Jun qoplami mayin, yaltiroq		
Jami:	100	1,00

Izoh: Naslli mahsulot (material) bonitirovkasini o'tkazish tartibi va shartlari to'g'risidagi nizomiga muvofiq.

**Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar**

1. Sigilar, buqacha va naslli buqalarni eksteryeri bo'yicha baholash qanday amalga oshiriladi
2. Eksteryerni harakterlovchi muhim tana qismlari haqida ma'lumot bering
3. Hayvonlarni eksteryer bo'yicha baholaganda nimalarga e'tibor qaratish lozim?
4. Chorva mollarini konstitutsiyasi va eksteryerini o'rganish bo'yicha blitso'rov savollari:

**Blist-so'rov**

1. Chorvachilikda konstitutsiya nima?
2. Hayvonlarni konstitutsiyasi qanday aniqlanadi?
3. Eksteryer nima?
4. Hayvonlarni eksteryeri qanday aniqlanadi?
5. Hayvonlar eksteryerini baholash qanday usullar yordamida amalga oshiriladi?
6. Tana tuzilish indekslarini hisoblash qanday amalga oshiriladi?
7. Eksteryerni o'rganishdan maqsad nima?


**4-mashg'ulot. CHORVA MOLLARINING TANA QISMLARI**

**Mashg'ulotning maqsadi:** Har xil turdagi chorva hayvonlarining tana qismlarini o'rganish. Dastlab ish daftarida har xil turdagi hayvonlarning (qoramol, ot, qo'y, cho'chqa, tovuqlar) tasvirida ayrim tana qismlarining chegarasi anqlanib, raqamlar bilan belgilab chiqiladi va ularning nomlari tartib bilan yoziladi (8-rasm).

**Uslubiy qo'llanmalar.** Har xil turga mansub bo'lgan hayvonlarni asosiy tana qismlarini mahsuldorlik bilan bog'liqligini tahlil qilib o'rganish. Eksteryer va konstitutsiya tipi o'quv-tajriba xo'jaligida mavjud bo'lgan chorva mollarida bevosita o'rganiladi.

**Kerakli materiallar.** Ish daftarini, har xil turga mansub bo'lgan hayvonlar tasviri tushirilgan bosmalar, rasmlar va mulyajlar.


Sut va go'sht yo'nalishidagi qoramollarning tana qismlari tuzilishi 8 va 9-rasmlarda berilgan.



8-rasm. Sut yo'nalishidagi sigirlarning tana qismlari (statlari)


1- ensa do'ngligi; 2-manglayi; 3-burni va tumshug'i; 4-yonog'i; 5-pastki jag'; 6-bo'yni; 7- bo'yin yoli; 8-tomog'i; 9-o'mrovi; 10-to'shi; 11- yag'rini; 12- elkas; 13- elka kurak bo'g'ini; 14-tirsagi; 15-tirsak osti; 16-bilakuzuk; 17-kaft; 18-baqay; 19-tuyoq; 20-tuyoqcha; 21-qovurg'a; 22-orqa; 23-bel; 24-biqin; 25-sut quduqlari; 26-sut venalari; 27-kindik; 28-elin; elin zapasi; 29-elin zapasi; 30-yonbosh cho'qqilari; 31-dumg'aza; 32-o'tirg'ich do'ngligi; 33-son; 34-tizza kosasi 35-sakrash bo'g'ini; 36-dumi.





9-rasm. Go'sht yunalishidagi navvosning tana qismlari


1-burni; 2-ko'zi; 3-tumshug'i; 4-manglayi; 5-qulog'i; 6-bo'yni 7-elka chuquri; 8-elkasi; 9-kukragi (yonidan); 10-chakkasi; 11-ko'kragi (oldidan); 12-o'mrovi; 13-elka osti; 14-tushov; 15-oldingi oyoq; 16-ko'krak; 17-oldingi choti 18-elkaning orqa chuquri; 19-qovurg'a; 20-orqa; 21-bel; 22-yonbosh cho'qqilari; 23-biqin; 24-chovi; 25-dumg'aza; 26-dum ildizi; 27-o'tirgich do'ngligi; 28-son; 29-son ichkarisi; 30-boldir; 31-orqa tushov; 32-dum; 33-orqa oyoq.



10-rasm qo'yning tana qismlari

1-tumshuq; 2-og'iz; 3-burun teshiklari; 4-lab; 5-burun; 6-kanshari; 7-manglay; 8-ko'z; 9-quloq; 10-bo'yin; 11-bo'yin elka chuquri; 12-yag'rin; 13-elka; 14-ko'krak; 15-to'sh; 16-oldingi oyoqlar; 17-orqa; 18-bel; 19-biqin; 20-qovurg'ga; 21-oldingi choti; 22-korin; 23-orqa choti; 24-dumg'aza; 25-son; 26-kurak orqa chuquri; 27-dum ildizi; 28-shtani; 29-orqa oyoqlar.






11-rasm. Cho'chqaning tana qismlari

1-boshi; 2-tomoq o'sti; 3-ensasi; 4-5 bo'yin; 6-yag'rin; 7-kuragi 8-elkasi; 9-kafti; 10-oldingi biqini; 11-orqasi; 12-ko'kragi; 13-beli; 14-biqini; 15-qorni; 16-jinsiy organ xaltasi; 17-dumg'aza; 18-soni; 19-o'tirgich suyagi; 20-sakrash bo'g'ini; 21-orqangi oyoq baqayi.

## OTLARNING TANA QISMLARI

Otlarning tana qismlarini baholashda salt miniladigan, yo'rtoqi va ishchi otlarga bo'lgan talablar hisobga olinadi.




12-rasm. Otlarning tana qismlari

1-quloqlar orasi; 2-kokili; 3-pehonasi; 4-qulog'i; 5-chakkasi; 6-ko'zi; 7-ganashi; 8-burni; 9-burun katagi; 10-jag'lari; 11-iyak chuqurchasi; 12-

ensa; 13-yoli va bo'yin toji; 14-6o'yin yonboshi; 15-tomog'i; 16-qarchig'ayi; 17-ko'kragi to'shi bilan; 18-orqasi; 19-yonboshi; 20-choti; 21-beli; 22-dumg'azasi; 23-biqini yoki yon cho'qqilari; 24-dum ildizi; 25-dum; 26-orqa chiqarish teshigi; 27-ket oralig'i; 28-chovi; 29-kuragi; 30-elkasi; 31-tirsagi; 32-bilakuzuk; 33-bilak; 34-tushog'i; 35-baqayi; 36-pocha; 37-tuyoq; 38-soni; 39-boldiri; 40-tizza bo'g'ini va kosasi; 41-sakrash bo'g'ini; 42-tovoni; 43 -panjasi; 44-poshnasi.

### PARRANDALARNING TANA QISMLARI

Har xil mahsulot yo'nalishidagi parranda turi va zotlari o'zlarining eksteryer xususiyatlari - patining rangi, tojining shakli, katta-kichikligi, terisining rangi va boshqa belgilari bilan ajralib turadi. Quyidagi 13-rasmda tovuqlarning (xo'roz) tana qismlari to'g'risida ma'lumot berilgan.



13-rasm. Xo'rozning tana qismlari

1-toji; 2-yuzi va ko'zi; 3-quloq solinchog'i; 4-bosh tepa qismi; 5 -peshonasi; 7 va 6 - tumshug'i; 8- ziraklari; 9 va 10 -tomog'i va bo'yni; 11-yoli; 12-mayda qoplagich patlari; 13-ko'kragi; 14 va 15 - qanot patlari; 16 va 17-boldiri; 18-tupig'i; 19-tovoni; 20-tashqi barmog'i; 21-o'rta barmog'i; 22 va 23-ichki barmog'i; 24-o'rta barmog'i; 25-tashqi barmog'i; 26-ensasi; 27-bo'ynining ustki qismi; 28-bo'ynining o'rta qismi; 29-dum patlari; 30-bo'ynining pastki qismi; 31-orqasining yuqori qismi; 32-orqasining o'rta qismi; 33- beli; 34-dumining katta kokillari; 35- dumining mayda kokillari va qoplag'ich patlari; 36-dumining bel kokillari; 37-dumining mayda qoplag'ich



patlari; 38-ikkinchi tartibli qanot patlari; 39-birinchi tartibli qanot patlari; 40-soni va boldiri; 41-orqa barmog'i.

**Topshiriq.** Ish daftarida har xil turdagi hayvonlar tasviridan foydalanib yirim tana qismlari chegaralarini belgilab nomlarini yozing.

### **Mustqil ishlash uchun topshiriqlar**

1. Chorva mollarning tana qismlarini o'rganish bo'yicha blits-so'rov savollari:

#### **Blits-so'rov**

1. Hayvonlarni eksteryeriga qarab baholaganda tana qismlarini qanday ahamiyati bor?
2. Sut yo'nalishidagi qoramollarni baholaganda qanday qismlarga e'tibor qaratiladi?
3. Go'sht yo'nalishidagi qoramollarni baholaganda qanday qismlarga e'tibor qaratiladi?
4. Otlarni baholaganda qanday qismlarga e'tibor qaratiladi?
5. Qo'ylarni baholaganda qanday qismlarga e'tibor qaratiladi?
6. Parrandalarni baholaganda qanday qismlarga e'tibor qaratiladi?

## 5-mashg'ulot. EKSTERYERNING ASOSIY KAMCHILIKLARI VA NUQSONLARI

**Mashg'ulotning maqsadi.** Har xil turdagi chorva hayvonlarida uchraydigan eksteryer kamchiliklar va nuqsonlar bilan tanishish hamda ta'hl qilish.

**Uslubiy qo'llanmalar.** Mashg'ulotda har xil turdagi hayvonlar eksteryeridagi kamchiliklar va nuqsonlar yaqqol ko'rsatilgan rasmlar, plakatlar va diafilmlar bilan tanishish. Bu kamchilik va nuqsonlarni hayvonlarning sog'lomligi, mahsuldorligi, pushtdorligi, oziqlantirish va asrash sharoitlari foydalanish tartibi bilan bog'lab o'rganish. Darsning ikkinchi kismi chorvachilik fermasida o'tkazib, har xil eksteryer kamchilik va nuqsonlar bo'lgan hayvonlarni ko'rsatish zarur.

22-jadval

### Sut va sut-go'sht yo'nalishidagi qoramol zotlarining eksteryerini baholashda qayd etiladigan nuqson va kamchiliklar


Umumiy rivojlanganligi va tana qismlari	Kamchiliklar
Umumiy ko'rinishi	Yetarli rivojlanmagan, suyaklari dag'al yoki o'ta o'sgan, nozik, muskullari bo'sh yoki bo'sh rivojlangan, tana tuzilishi nomutanosib va zot tipi talablariga javob bermaydi
Boshi va bo'yni	Boshi tanasiga nomutanosib, og'ir yoki o'ta o'sgan, sigirlarda buqasimon va buqalarda sigirlarga xos ko'rinishda, bo'yni tor, dag'al, muskullari rivojlanmagan
Ko'kragi	Tor, chuqur emas, qovurg'alari bir-biriga yaqin joylashgan, qovurg'a suyaklari tor va qisqa, oxirgi qovurg'asidagi teri qalin
Yag'rini, orqa qismi va beli	Yag'rini o'tkir yoki bo'lingan, orqa qismi tor, qisqa, osilgan yoki bukri, beli tor va osilgan
Tanasining o'rta qismi, orqasi	Sigir va nasldor buqalarda tanasining o'rta qismi yaxshi rivojlanmagan, qisqa, osilgan va tor. Buqalarda qorni osilgan
Oyoqlari	Oldingi oyoqlari poycha qismiga kelganda, bir-biriga yaqinlashgan yoki yon tomonga qochgan, orqa oyoqlari filoyoqsimon, dumaloq, "X" simon yoki qilichsimon shaklni eslatadi
Tuyoqlari	Tor, yassi, tuyoq shoxlari bo'sh

Izoh: Naslli mahsulot (material) bonitirovkasini o'tkazish tartibi va shartlari to'g'risida nizomiga muvofiq.

**Kerakli materiallar:** Eksteryer kamchiliklar va nuqsonlari ko'rsatilgan rasmlar, plakatlar, mulyajlar. Kamchilik va nuqsonlari bo'lgan har xil turdagi hayvonlar.



Chorva hayvonlarining tana tuzilishi va ularda uchraydigan kamchiliklar:




14-rasm. Sigirlarning qo'pol boshi



15-rasm. Sigirlarning boshlari




noziklashgan




16-rasm. Baland va tor yag'rin



17-rasm. Baland va keng yag'rin




18-rasm. Sigirlarning to'g'ri orqasi va beli



19-rasm. Sigirlarni tor orqasi




20-rasm. Zambarsimon orqa va bel.



21-rasm. Sigirlarning ket shakli

1-to'g'ri, go'shtdor ket, 2-osilgan ket 3-dumg'azasi baland sigir





22-rasm. Ko'krak qafasi rivojlanmay qolgan qoramol







23-rasm. Oldingi oyoqlarning qo'yilishi


1-oyoqlarning keng va to'g'ri qo'yilishi; 2-tor ko'krak va oyoqlarning zich qo'yilishi; 3- tor ko'krak va qiyshiq oyoqlar



24-rasm. Orqa oyoqlarning qo'yilishi


1-keng va to'g'ri qo'yilishi; 2- ikssimmon oyoq; 3- qilichsimon oyoq; 4-to'g'ri va flaimon oyoq

	
<p>25-rasm. Tik baqay</p>	<p>26-rasm. To'g'ri baqay</p>
 <p style="text-align: right;">a</p>	 <p style="text-align: right;">b</p>
<p>27-rasm. Noto'g'ri oyoqlar: a) cho'zilgan b) keyishgan</p>	



28-rasm. Yelini yaxshi rivojlangan, oyoqlari to'g'ri qo'yilgan sigir





29-rasm. Sigirlarning yelin shakllari

a) kosasimon

b) yumaloq

v) "echki" yelin



30-rasm. So'rg'ichlari va venalari yaxshi rivojlangan to'g'ri shaklli yelin



31-rasm. Tanaga osilgan yelin



32-rasm. Ko'p so'rg'ichli yelin



33-rasm. Normal kattalikdagi cho'chqa boshi



34-rasm. Kalta boshli cho'chqa




35-rasm. Uzun tumshuqli bosh.



36-rasm. Tomoq osti keng bo'lgan cho'chqa boshi



37-rasm. Ortiqcha rivojlangan it tumshuq cho'chqa




38-rasm. Orqasi cho'zilgan, chuqur yonboshli cho'chqa







39-rasm. Boshi) qo'pol b)  
 tengil v) ortiqcha rivojlangan  
 cho'chqalar



40-rasm. Tik quloq cho'chqa



41-rasm. Orqasi a) zambarimon b) tomsimon cho'chqa



42-rasm. Ko'kraging rivojlanishi: a) chapdan keng b) o'ngdan tor



43-rasm. Sut bezlari yaxshi rivojlangan, so'rg'ichlari to'g'ri joylashgan cho'chqa



44- rasm. Orqa oyoqlarning qo'yilishi a) to'g'ri b) notug'ri, sakrash bo'g'inlari yaqin joylashgan cho'chqa.



45- rasm. Oldingi oyog'i ikksimon cho'chqa



46-rasm. Qilichsimon oyoqli cho'chqa



47-rasm. Filsimon oyoqli cho'chqa





48-rasm. orqasi egarsimon bo'lgan ot




49-rasm. Sag'risi past, orqa oyoqlari qilichsimon ot



50-rasm. Sag'risi ikkiga bo'lingan ot



51-rasm. Qorni tarang tortilgan ot



52-rasm. Otning oldingi oyoqlarini qo'yilishining yon tomondan ko'rinishi:

I-to'g'ri

II-bir oz orqaga qo'yilgan

III-bir oz oldinga qo'yilgan



53-rasm. Otning oldingi oyoqlarini old tomondan ko'rinishi

a) echki oyoq

b) buzoq oyoq

v) to'g'ri qo'yil  
oyoq




g) ikssimon oyoq



d) chalish oyoq





54-rasm. Orqa oyoqlarning qo'yilishi.

a) to'g'ri qo'yilgan

b) ichkariga qiya  
qo'yilgan


v) orqaga qiya qo'yilgan



55-rasm. g) bir-biroviga  
yaqin qo'yilgan

d) keng qo'yilgan

e) sigir oyoq



56-rasm. Baqaylarning qo'yilishi.

a) uzun baqay

b) ayiq baqay

v) kalta baqay

g) tik baqay




57-rasm. Do'ng va past peshonali ot boshi

### Mustqil ishlash uchun topshiriqlar

1. Qoramollarda uchraydigan nuqsonlarni tahlil qiling?
2. Otlarda uchraydigan nuqsonlarni tahlil qiling?
3. Parrandalar va qo'ylarda uchraydigan nuqsonlarni tahlil qiling?
4. Cho'chqalarda uchraydigan nuqsonlarni tahlil qiling?
5. Chorva mollarida uchraydigan nuqsonlarni Klaster usulida ko'rsating.

### Klaster usuli





## CHORVA HAYVONLARINING TANA QISMLARINI TA'RIFLASH

**Mashg'ulotning maqsadi.** Oldingi mashg'ulotlarda olingan bilimlarni mustahkamlash. Hayvonlarda har bir tana qismining normal rivojlanishi va undan chetlanishlarni ta'riflash.

**Uslubiy qo'llanmalar.** Mashg'ulot institut o'quv tajriba xo'jaligining fermasida yoki biron – bir fermer xo'jaligida har xil turdagi hayvonlarda o'tkaziladi. Birinchi navbatda sigirlarning tana qismlarini ta'riflashni o'rganish zarur. So'ngra qo'ylar, cho'chqalar, otlar va tovuqlarning tana qismlari ta'riflanadi.

Buning uchun ish daftari yoki maxsus kartochkalarda hayvonning tana tuzilishi, ayrim tana qismlarini rivojlanganligi va ulardagi kamchiliklar hamda nuqsonlar belgilab boriladi.

Tana qismlarini ta'riflash hayvonning bosh qismidan boshlanib oyoqlari bilan tugaydi. Mashg'ulotni o'tkazish davomida bir hayvonni ikkinchi hayvon bilan taqqoslab borish zarur.

**Kerakli materiallar va asboblari.** Har xil turdagi hayvonlar, ish daftari, maxsus kartochkalar, xalatlar.

**Topshiriq.** Har 3-4- nafar talabaga ikki-uch bosh hayvonning tana qismlarini ta'riflash topshiriladi.

Qoramollar tana tuzilishining to'g'ri ekanligini quyidagi belgilarga qarab aniqlash mumkin: umumiy tana tuzilishi o'zaro mutanosib, ko'kragi keng va chuqur, suyaklari mustahkam va yaxshi rivojlangan, oyoqlari to'g'ri qo'yilgan, mavdasi chuqur va rivojlangan, terisi jun bilan yaxshi qoplangan, shoxi silliq va qurt emas, jinsiy organlari yaxshi rivojlangan, sog'lom va harakatchan.

Sigirlar tana qismlarini baholash tartibi. Sigirlar tana qismlarini ta'riflash quyidagi tartibda o'tkaziladi:

Zoti:

Laqabi:

Rangi (tusi):

**Semizligi:** yuqori, o'rtacha, o'rtachadan past.

**Boshi:** og'ir, engil, o'rtacha, xo'kizbosh; yuz qismi: uzunchoq, qisqa, o'rtacha;

**Shoxi:** qo'pol, nozik, o'rtacha; uzun, qisqa, o'rtacha.

**Shoxning yo'nalishi:** oldinga, yuqoriga, yon tomonga.

**Buyni:** yo'g'on, ingichka, o'rtacha; to'g'ri, kesilgan; uzun, qisqa o'rtacha; burmalari ko'p, burmalari kam.

**Yag'rini:** o'tkir, keng, o'rtacha; tekis, baland, ikkiga bo'lingan,

**Ko'kragi:** keng, tor, o'rtacha; chuqur, sayoz, o'rtacha; kurak orqali kesilgan yoki kesilmagan.

**Qovurg'alari:** keng, tor, o'rtacha, dumaloq, yassi, o'rtacha;

**Qovurg'alar orasidagi masofa:** katta, kichik, o'rtacha, qovurg'alar egri o'rtacha, tik qo'yilgan

**Orqasi:** keng, tor, o'rtacha; uzun, qisqa, o'rtacha, tekis, osilgan yumshoq, ko'tarilgan, bukri,

**Beli:** keng, tor, o'rtacha, uzun, qisqa, o'rtacha, yassi, tomsimon, to'g'ri osilgan, ko'tarilgan.

**Qorni:** dumaloq, osilgan, tortilgan.

**Keti:** ko'tarilgan, pasaygan, o'rtacha, keng, tor, o'rtacha, bigizsimon uzun, qisqa, tomsimon, yassi.

**Oyoqlari:** uzun, qisqa, o'rtacha

**Oyoqlarning kuyilishi:** a) oldingi oyoklar; to'g'ri, egri, chalish; b) orqayoqlar: to'g'ri, qilichsimon, filsimon, maymoq, chalish.

**Dumi:** uzun, qisqa, o'rtacha; yo'g'on, ingichka, o'rtacha;

**Qo'yilipi:** baland, past, o'rtacha.

**Elini:** katta, kichik, o'rtacha; shakli vannasimon, kosasimon, yumaloq echki elin; bezsimon, etsimon, yog'simon;

**Yelin bo'laklari:** bir tekis rivojlangan, notekis rivojlangan, ishdan chiqqan.

**So'rg'ichlari:** uzun, kalta, o'rtacha; yo'g'on, ingichka, o'rtacha; joylashishi tig'iz, keng, o'rtacha; silindrsimon, konussimon, noksimon qalamsimon, qo'shimcha so'rg'ichlari bor yoki yuq.

**Yelin zahirasi:** katta, kichik, o'rtacha.

**Yelin terisi:** qalin, yupqa, o'rtacha.

**Yelinning jun bilan qoplanishi:** kuchli, kuchsiz, o'rtacha.

**Yelin venalari:** kuchli, kuchsiz, o'rtacha rivojlangan

**Sut quduqlari:** keng, tor, o'rtacha; chuqur, sayoz, o'rtacha.

**Tanadagi terisi:** qalin, yupqa, o'rtacha, yumshoq, qattiq, egiluvchan.

**Suyaklari:** qo'pol, nozik, mustahkam, o'ta nozik.





Gavdaning orqa qismiga dumg'aza, son, dum, orqa oyoqlari va jinsi organlar kiradi.

Cho'chqalar eksteryerini baholashga doir qo'shimcha ko'rsatmalar.

Zoti:

Laqabi:

Rangi:

Semizligi:

23-jadval

### Cho'chqalarni tana qismlarini baholash

Tana qismlari	Tana qismlarini baholash ko'rsatkichlari
Boshi	katta, o'rta, kichik, qo'pol, yengil; tor, keng; uzun, qisqa, to'g'ri, qayrilgan, itsimon; jag'lari bir xil uzunlikda, jag'i har xil uzunlikda; quloqlari tik, osilgan, gorizontali; ko'zlari: keng qo'yilgan, tor qo'yilgan; chaqnab turadi; tomoq osti; keng, tor; muskulli, kam muskulli
Bo'yni	uzun, qisqa; yo'g'on, ingichka; gavdaga birikkan joyi sezilmaydi, gavdaga birikkan joyi sezilarli
Yag'rini	keng, tor, o'tkir; kuraklari orasi qo'shilmagan, kuraklari orasi tutashgan.
Yelkasi	keng, tor, uzun, qisqa; kuraklari; egri qo'yilgan, duppayib chiqib turadi, muskul bilan to'lgan, muskul bilan to'lmagan.
Ko'kragi	keng, tor, chuqur, sayoz, kurak orti bilan tutashgan, kurak orti bilan tutashmagan
Orqasi va beli	orqasi: keng tor, to'g'ri, osilgan, tomsimon; beli, keng, tekis, osilgan, dumg'aza bilan silliq birikkan
Yonboshi	chuqur, sayoz; uzun, qisqa, qovurg'alari: dumaloq, yassi
Qorni	zich, bo'sh; tortilgan, osilgan; choti: to'lgan, to'lmagan.
Dumg'azasi	uzun, o'rta, qisqa; to'g'ri osilgan, duppaygan; keng, tor, yassi tomsimon, bigizsimon.
Soni	uzun, qisqa; keng, tor; chuqur, sayoz; to'lishgan, arriq
Oyoqlari	baquvvat, nozik; uzun, qisqa; baqaylari chiqib turadi, chiqib turmaydi; tuyoqlari: to'g'ri o'sgan, noto'g'ri o'sgan, chalish oyoq ikksimon, filsimon, qilichsimon.



## OTLARNING TANA QISMLARINI TA'RIFLASH

Otning boshi uning umumiy harakatlanishida katta rol o'ynaydi. Boshning kattaligi, shakli, undagi ko'z, quloq, burun, lablarning tuzilishi va joylashishiga qarab uning harakatchanligini, asab sistemasi qay darajada rivojlanganligini bilish mumkin.

Otlarning boshi rivojlanishiga qarab yengil, o'rtacha qo'pol; peshonasiga qarab, keng peshonali, tor peshonali; shakliga qarab to'g'ri, botiq va do'ng burunli bo'lishi mumkin.

Tez yuradigan va salt miniluvchi otlarning boshi kichik, quruq va yengil bo'ladi. Aravaga qo'shiladigan otlarning boshi o'rtacha kattalikda, og'ir yuk tortuvchi otlarning boshi katta, og'ir, go'shtdor va kam harakatchan bo'ladi.

Salt miniluvchi otlardan botiq shaklli boshlar, og'ir yuk tortuvchi otlarda to'g'ri shaklli boshlar va qisman do'ng burunli boshlar uchraydi.

Salt miniluvchi va yo'rg'a otlarning boshi keng peshonali va og'ir yuk tortuvchi otlarning boshi tor peshonali bo'ladi.

Yengil otlarning quloqlari yupqa, to'g'ri va harakatchan bo'ladi. Aravaga qo'shiladigan va yuk tortuvchi otlarning quloqlari kichik va qalin bo'ladi.

Otlarning ensasi uzun va keng bo'lishi lozim. Yengil, tez yuguradigan otlarning ko'zlari chaqnaq turadi.

Otning og'zi to'g'ri bo'lishi, jag'lar bir-birining ustiga to'g'ri joylashgan bo'lishi kerak. Otlarning bo'yni uzun, qisqa, yo'g'on, ingichka bo'lishi, shakliga ko'ra: to'g'ri, oqqush va kiyik bo'yinlarga bo'linadi. To'g'ri bo'yin salt miniluvchi, rus yurtoqi otlarida, oqqush bo'yin orlov yo'rg'a otlarida, kiyik bo'yin qirg'iz otlarida uchraydi. Yengil otlarning bo'yni uzun va ingichka, og'ir otlarning bo'yni qisqa va yo'g'on bo'ladi.

Otlarning qarchig'ayi baland, o'rta, past, uzun, qisqa, keng, tor bo'lishi mumkin.

Salt miniluvchi otlarning qarchig'ayi: baland va uzun, og'ir yuk tortuvchi otlarning qarchig'ayi keng, qisqa va past bo'ladi.

Orqasi qarchig'ay bilan bel o'rtasida joylashib uzun, kalta, to'g'ri zambarsimon, do'ng, keng va tor bo'lishi mumkin. Salt miniluvchi otlarning orqasi to'g'ri va kalta bo'ladi. Zambarsimon va do'ng yoki tor orqa kamchilik ko'rsatib birlanadi.

Bel gavdaning orqa qismi bilan sag'risini qo'shuvchi qismi bo'lib, qisqa va keng bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Biqin oxirgi qobirg'a bilan yonbosh suyagining orasiga joylashgan. Biqinning uzunligi salt miniluvchi otlarda 8-9 sm, kengligi 12-16 sm bo'ladi.

**Sag'ri:** uzun, qisqa; keng, tor; qiya, past, ikkiga bo'lingan va tomsimon bo'lishi mumkin. Salt miniluvchi va yurg'a otlarda sag'ri uzun va tortuvchi otlarda esa qisqa bo'ladi. Sag'rining keng bo'lishi hamma otlar uchun yaxshi ko'rsatkich hisoblanadi. Og'ir yuk tortuvchi otlarning sag'risi past bo'lishi mumkin.

Dum otning himoya organi bo'lib, og'ir yuk tortuvchi otlarda uzun va serqil, salt miniluvchan otlarda esa nisbatan kalta bo'ladi.

Otning qorni yaxshi rivojlangan va dumaloq shaklda bo'lishi kerak.

**Oldingi va orqa oyoqlari:** uzun, qisqa, mustahkam, nozik, to'g'ri va noto'g'ri qo'yilgan bo'lishi mumkin.

**Qiyshiq, chalish, sirkulsimon, ikssimon, qilichsimon, shamshirsimon oyoqlar kamchilik va nuqson bo'lib hisoblanadi.**

#### **Tovuqlar tana qismlarini baholash:**

**Boshi:** har xil uzunlikda va kenglikda, yengil va og'ir bo'lishi mumkin. Bu tovuqning umumiy tana tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Bir kunlik jo'jalarning boshi dumaloq shaklda bo'ladi.

Yoshi ortgan sari jo'jalarning boshi uzunchoq bo'la boshlaydi va jini yetilish davrida eniga qarab rivojlanadi. Jo'jalar yomon oziqlantirish sharoitida parvarishlansa ularning boshi kichik bo'lib qoladi.

**Toji:** xo'rozlarning toji tovuqlarnikiga qaraganda kuchli rivojlangan bo'ladi. Tojlarning shakli ko'pincha tovuqlarning zotiga bog'liq bo'lib har xil shaklda: bargsimon, gulsimon, no'xatsimon, yong'oqsimon, shoxsimon boshqa shakllarda bo'ladi.

**Tumshug'i:** qisqa, mustahkam va past tomoni biroz egri bo'ladi. Tumshuq rangi sariq, malla, qora va och oq bo'lishi mumkin. Uzun tumshuq nozik tovuqlarda uchraydi.

**Ko'zi:** sog'lom tovuqning ko'zi yarqiragan bo'lib, kasal tovuqlarning ko'zi ichiga kirib ketgan, uyqusiragan va nursiz bo'ladi.

**Quloq solinchog'i:** tuxum yo'nalishidagi tovuq zotlarining quloq solinchog'i oq rangda, go'sht va jangari tovuq zotlarining quloq solinchog'i qizil rangda bo'ladi.

**Ziraklari:** tuxum tug'ayotgan tovuqlarning ziraklari qip-qizil va karam bo'ladi.




Tuxum tug'ishning pasayishi bilan ziraklar kichrayib, ularning rangi qisqara boshlaydi.

Buyin har xil tovuq zotlarida har xil uzunlikda bo'ladi. Tuxum beruvchi zotlarning bo'yini o'rtacha uzunlikda, go'sht-tuxum yo'nalishidagi tovuqlarning bo'yini qisqa va yo'g'on bo'ladi. Bo'yini uzun tovuqlarning konstitutsiyasi keng tipda bo'ladi.

Tovuqlar tanasining shakli zotiga va konstitutsiya tipiga bog'liq buladi.

**Ko'kragi:** buyin ostidan to'sh suyagigacha bo'ladi. Keng ko'krak tovuqning mustahkam konstitutsiyaga mansubligini ko'rsatadi.

**Orqa tomoni:** har xil tovuq zotlarida har xil uzunlikda va kenglikda bo'ladi. Keng to'g'ri orqali tovuqlar yaxshi mahsuldor va sog'lom bo'ladilar.




58-rasm. Tojlarning shakllari

1-bargsimon tojli xo'roz, 2 va 3 -bargsimon tojli makiyonlar, 4- shoxtoj, 5 – ko'yinbog' toj, 6-7-shoxsimon, 8-no'xatsimon toj 9-gulsimon, 10-yong'oqsimon.

**Oyoqlar:** har xil zotlarda har xil uzunlikda bo'ladi. Tuxum yo'nalishidagi zotlarda oyoqlar o'rtacha uzunlikda, gusht-tuxum yo'nalishidagi tovuqlarda esa qisqa bo'ladi. Oyoklar keng qo'yilgan bo'lishi maqsadga muvofiq. Tovon

bo'g'inlari yaqin joylashgan, baland va ingichka oyoqlar, tovuqni no'z konstitutsiya tipiga mansubligini ko'rsatadi.

Oyoq panjalarining rangi sarg'ish, qora, malla ok, ko'kimsir bo'lishi mumkin.



59-rasm. Har xil mahsulot yo'nalishidagi tovuqlarning tana shakli.

a) tuxum tipi	b) go'sht - tuxum tipi	v) go'sht tipi
---------------	------------------------	----------------

Parrandalarning eksteryeriga qarab jinsi aniqlanadi. Xo'rozlari makiyonlardan gavdasining va tojining kattaligi, dumining shakli va patlarining rangiga qarab farqlanadi.

### Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

1. Ish daftarlarida har xil turdagi hayvonlar tana qismlarining tuzilishini belgilab yozib chiqish.

2. Mulyajlar yordamida hayvonlarning tana qismlari qanday joylashganini o'rganish.

3. Sigirning tana qismlarini ta'riflash.

4. Cho'chqaning tana qismlarini ta'riflash.

5. Qo'ylarning tana qismlarini ta'riflash.

6. Tovuqlar tana qismlarini ta'riflash.

7. Barcha turdagi hayvonlar tana tuzilishining asosiy kamchiliklari va nuqsonlarini o'rganish.

8. Rezyume texnologiyasidan foydalanib, 5 bosh tovuqning eksteryerini ta'riflang.



## REZYUME TEXNOLOGIYASI

Ko'rsatkichlar	Ta'rif
Tana tuzilishi tipi	
Tumshug'i	
Boshi	
Toji	
Ko'zi	
Quloq solinchog'i	
Bo'yni	
Ko'kragi	
Tush suyagi	
Orqasi	
Qorni	
Oyoqlari	
Patlanishi	

### 6-mashg'ulot. CHORVA HAYVONLARI EKSTERYERINI PUNKTIR YOKI BALL YORDAMIDA BAHOLASH

**Mashg'ulotning maqsadi.** Har xil tur, jins va yoshdagi chorva hayvonlarining eksteryeri va konstitutsiyasini ko'z bilan chamalab mustaqil ravishda baholashni o'rganish.

**Uslubiy ko'rsatmalar.** Eksteryerni punktir yoki ball bilan baholash dastlabki mashg'ulotlarning davomi bo'lib, hayvonlar ekstererini batafsil baholash uchun ularning tana qismlarini ifodalanganligi va umumiy rivojlanishi tegishli shkalalarda ko'rsatilgan talablar asosida taqqoslab ko'riladi.

Bunday shkalalar har xil tur va jinsdagi hayvonlarning mahsuldorlik baholashiga mos ravishda ishlab chiqilgan. Bunda ma'lum mahsuldorlik baholashidagi hayvon uchun gavdasining u yoki bu qismi qanchalik rivojlanishiga ega ekanligiga qarab, uning rivojlanish shkalalari amaldagi baholashda qo'llanmalarida keltiriladi.

Masalan, qoramolchilikda sut va sut-go'sht yo'nalishidagi sigirlar hamda qoramol buqalar eksteryerini baholashda alohida shkalalar qo'llaniladi.

Hayvonlarni maxsus shkalalar yordamida baholash usuli ancha qul hisoblanadi. Lekin, bunda hayvonlarning biologik xususiyatlari hisobga olinishi kerak, chunki ayrim hollarda olingan tana qismlari organizm to'g'risida yaxshi ma'lumot bera olmaydi.

Baholashda dastlab hayvonning umumiy ko'rinishi va tana shakli mutanosibligiga etibor berib, keyin ayrim tana qismlari alohida baholanadi.

Sigirlar va nasldor buqalarning eksteryeri 10 ballik shkala yordamida baholanadi.

Ballar bo'yicha baho berilganda qo'shimcha tariqasida eksteryerini xususiyatlari, nuqsonlari, kamchiliklari va afzalliklari ham ko'rsatiladi.

Yosh mollar eksteryeri 5 balli shkala bo'yicha baholanadi: a'lo darajada eksteryerga -5, yaxshiga-4, qoniqarliga -3, qoniqarsizga - 2, yomoniga - 1 balli bo'lib qo'yiladi. Yarim ballardan foydalanish yo'li bilan besh balli bahoni (4,5; 3,5) yanada oydinlashtirish mumkin.

25-jadval

**Buqacha va naslli buqalarni ekstereri bo'yicha baholash jadvali**

T/r	Baholash ko'rsatkichlari	Eng yuqori ball	Umumiy baholashda ulushi
1.	Umumiy ko'rinishi (rivojlanishi)	100	0,25
	Tana tuzilishi garmonik, mutanosib		
	Zot tipiga xos yaxshi ko'rinishga va jinsiy dimorfizmga ega		
	Turishi tetik, tanasining barcha qismlari nuqsonsiz		
	Suyaklari mustahkam, dag'al emas, boshi va oyoqlari yengil		
	Son va yag'rinida ortiqcha go'sht qoplami yo'q		
2.	Tanasining hajmi	100	0,20
	Balandligi yetarlicha		
	Tanasining o'rta qismi chuqur va uzun, ammo keng emas, qovurg'alari uzun, ular egri holatda pastga va orqaga yo'nalgan, kuragi uzun egri holatda, pastga va		



	dumg'aza, dumi to'g'ri joylashgan			
	Sakrash bo'g'inigacha davom etgan, muskulaturasi yaxshi rivojlanganligi	5	2	10
	Yetarli darajada rivojlangan, to'g'ri shaklli	5	2	10
	To'g'ri qo'yilgan, tuyoqlari mustahkamligi	5	1	5
	Jami ballar			100

31-jadval

go'sht yo'nalishidagi qoramol zotlariniig nasldor buqalarini eksterer va konstitutsiyasiga qarab baholash shkalasi

Umumiy tavsiflash va qismlari	Yuqori ball bilan baholash talablari	Asosiy ball	Koef fitsient	Umumiy ball
Umumiy tavsiflash va qismlari	a) Tana tuzilishining mutanosibligi, zotning go'shtdorlik tipi yaxshi ifodalangan, keng va dumaloq gavdaligi	5	3	15
	b) Muskulaturaning yaxshi rivojlanganligi, mustahkam ammo, suyagi qo'pollashmagan	5	2	19
qismlari: va bo'yni	Zot uchun xos bo'yni go'shtdor	5	1	5
g'i	Keng, chuqur, va dumaloq, kurak orqasida past joylari yuq, to'shi keng yaxshi rivojlangan va oldinga qarab chiqib turadi	5	3	15
ini, orqasi,	Keng, go'shtdor yag'rin, tekis keng, uzun go'shtdor orqa va bel	5	3	15
g'aza	Go'shtdor tekis, keng va uzun dumg'aza, dumi to'g'ri joylashgan	5	3	15
	Muskulaturasi yaxshi rivojlangan, sakrash bo'g'inigacha davom etgan, sonining ichqi qismi go'shtdor,	5	3	15

	biqini to'lgan			
Oyoqlar	To'g'ri qo'yilgan, tuyoqlari mustahkam	5	2	10
Jami ballar				100

32-jadval

**Cho'chqalarning eksteryeriga baho berish uchun qabul qilingan shkala**

Eksteryerning umumiy ko'rinishi va ayrim qismlari	Yuqori ball	
	Erkak cho'chqalar	Urg'ochi cho'chqalar
Umumiy ko'rinishi, tana tuzilishining mutanosibligi, konstitutsiyasi, zot belgilarini ifodalanganligi, terisi va qillari.	25	25
Boshi va bo'yni	5	5
Yelkasi, yag'rini va ko'kragi	10	10
Orqasi, biqini va beli	15	15
Dumg'aza va yonboshlari	15	15
Oyoqlari	15	15
Urg'ochi cho'chqalarning yelini, so'rg'ichlari	5	15
Erkak cho'chqaning jinsiy organlari	10	-
Jami	100	100

Otlarning eksteryeri va konstitutsiyasini baholashda tana qismlari u guruhga bo'linadi: I-boshi, bo'yni, tanasi; II-oyoqlari; III-konstitutsiya tuzilishi, muskulaturasi, paylari temperamenti.

Har bir tana kismi "yaxshi", "qoniqarli", "yomon" deb baholana "Yaxshi" deb baholangan tana qismiga 2 ball, "qoniqarli" deb baholangan tana qismiga 1 ball va "yomon" baholangan tana qismiga 0 ball qo'yiladi. So'ng har bir guruhga kiruvchi belgilarning umumiy ballari aniqlanadi. Eksteryer uchun umumiy ball qilib eng kam baholangan guruhning ballari qabul qilinadi.

**Kerakli materiallar va asboblari.** Ish daftari, har xil turdagi hayvonlarni bonitirovka qilish qo'llanmalari, har xil turdagi hayvonlar.

**Topshiriq.** O'quv tajriba xo'jaligida har bir guruh talabalari har xil turdagi bir necha hayvonlarning eksteryerini mustaqil ravishda baholasin.

**Nazorat savollari**

1. Hayvonlarni eksteryeri va konstitutsiyasi tipiga qarab baholashni o'z xos tomonlari?

2. Qoramollarni eksteryeri va konstitutsiyasi tipiga qarab baholash nimalarga e'tibor qaratiladi?



3. Ot, cho'chqa va parrandalarni eksteryeri va konstitutsiyasi tipiga qarab baholaganda e'tiborga olinadigan ko'rsatkichlar?

4. Hayvonlarni eksteryeri va konstitutsiyasi tipiga qarab baholaganda qaysi salbiy ta'sir qiladigan ko'rsatkichlar qaysilar?

5. Rezyume texnologiyasidan foydalanib, 10 ballik shkala yordamida sut va sut-go'sht yo'nalishidagi qoramol zotlari sigirlarining eksteryeri va konstitutsiyasiga qarab baholang

### Rezyume texnologiyasi

Umumiy rivojlanishi va tana qismlari	Baholashda hisobga olinadigan ko'rsatkichlar	Ball
Umumiy ko'rinishi va rivojlanishi		3
Yalini		5
Shidagi va orqa qo'ng'irlari		2
	Jami ballari	10

## 7-mashg'ulot. O'LCHOV ASBOBLARI VA CHORVA HAYVONLARINING ASOSIY TANA O'LCHAMLARI

**Mashg'ulotning maqsadi.** O'lchov asboblardan foydalanishni o'rganish, shida yoki bir gruppada hayvonlarda tana o'lchovlari olinadigan joylarni aniqlash va o'lchovlar olishni o'rganish.

**Uslubiy qo'llanmalar.** Hayvonlarni o'lchash usuli ob'ektiv yordamchi usul bo'lib, ekstererni ko'z bilan chamalab baholash usulini to'ldiradi. Bu usulda ayrim tana qismlarining rivojlanganligi miqdoriy ko'rsatkichlarda baholalanadi.

Hayvonlardan o'lchamlar olish yordamida quyidagilarni aniqlash mumkin.

1. Hayvonning yoshi ortib borishi bilan o'sish va tana qismlarining o'zgarib borishini.

2. Har xil sharoitda o'stirilgan har xil turga mansub bo'lgan hayvonlar o'z zotlarining tana tuzilishini o'zaro taqqoslashni.

3. Naslchilik ishini yuritishda ajdodlar bilan ulardan olingan avlodlarning eksteryer xususiyatlarini solishtirishni.

4. Har xil mahsuldorlik yo'nalishidagi hayvonlarning tana tuzilish xususiyatlari to'g'risida xulosa qilish.

Mashg'ulot vaqtida o'lchov asboblarning tuzilishini tahlil qilish va yordamida har xil turdagi hayvonlardan o'lchovlar olish texnikasini o'rganish zarur.

O'lchovlar olish uchun maxsus asboblari: o'lchov tayog'i, o'lchov serkuli, o'lchov lentasi, shtangen serkul va uglomer qo'llaniladi.


Uglomer o'lchovni gradus va minutlarda, qolgan asboblari santimetrlarda 0,5 sm gacha aniqlikda ko'rsatadi.

O'lchov yoki lidteng tayog'i yog'ochdan yoki metaldan yasalgan bo'lib, 217 yoki 220 sm uzunlikda bo'ladi. Uning ichi g'ovak bo'lib, uning qo'zg'aluvchan metal o'q joylashgan. Tayoqda ikkita qo'zg'aluvchan reyka mavjud.


O'lchov tayog'i yordamida qoramollar, otlar, cho'chqalar va boshqalar turdagi hayvonlarning tanasidan uzunlik, kenglik va balandlik o'lchovlari olinadi.

O'lchov yoki vilkens serkuli ikkita qo'zg'aluvchan yarim doira shaklida birlashgan metall oyoqlardan tashkil topgan bo'lib, ko'pincha gavdani o'lchash notekis joylaridagi o'lchovlarni olishga mo'ljallangan.

O'lchov lentasi 3-5 m uzunlikda hayvonlar tanasining yo'g'onlik uzunligini kabi qismlarini o'lchash uchun qo'llaniladi. Foydalanishdan oldin barcha o'lchov asboblarning o'lchashga yaroqliligi va aniqligi tekshirib ko'riladi.



60-rasm. O'lchov yoki lidten tayog'i



61-rasm. O'lchov yoki vilkens serkuli



oldinga yo'nalgan		
luti belgilari	100	0,20
Tanası burchaksimon, bo'shlik va dag'allik belgilari yo'q		
Bo'shi quruq, ko'zlari chaqnagan va quloqlari harakatchan		
<b>davomi</b>		
Bo'yni yetarlicha uzunlikda, o'rtacha yollarga ega va ovqatni oshqozonga o'tish yo'li aniq ko'rinadi		
Yag'rini yaxshi ifodalangan, keng emas		
Orqa qismi tekis		
Qovurg'alari keng va keng joylashgan		
Kuragi ko'krak qafasiga zich birikkan		
Och biqini chuqur, aniq ifodalangan		
Terisi yupqa, mayin, serharakat		
Jun qoplami mayin va silliq		
Tanasining orqa qismi	100	0,15
Heli tekis, tor va keng		
liag'ri uzun, keng, biroz orqaga egilgan		
Tos-son birikmalari, orqa do'ng suyak eni balandligi darajasidan biroz pastda, lekin o'tirg'ich tepaligidan yuqorida joylashgan		
Dumi uzun va ingichka, uning ildizi orqa do'ng suyak eni darajasida joylashgan		
Urug'donlari yaxshi rivojlangan		
Oyoqlarining sifati	100	0,20
Oyoqlari mustahkam, ingichka va dag'al emas		

	Sakrash bo'g'inlari yaxshi ifodalangan, quruq		
	Tuyoqlarning oldingi devorlari 45° burchakda egilgan, old devorlari baland, tovonni tekis		
Jami:		100	1,00

Izoh: Naslli mahsulot (material) bonitirovkasini o'tkazish tartibi va shartlari to'g'risidagi nizomiga muvofiq

26-jadval

**Podani to'ldiruvchi buzoq va g'unajinlarni ekstereri bo'yicha baholash jadvali**

Umumiy rivojlanganligi va tana qismlari	Belgilari
Umumiy ko'rinishi	Umumiy ko'rinishi va rivojlanganligi zot tipini yaxshi ifodalagan. Tanasining barcha qismlarida nuqson va kamchiliklar kuzatilmaydi, suyaklari mustahkam, dag'al emas. Boshi va oyoqlari engil. Sonlari va yag'rinida ortiqcha go'sht qoplami yo'q
Boshi va bo'yni, ko'kragi, yag'rini, orqasi, beli, tanasining o'rta qismi, orqa qismi	Boshi quruq, bo'yni etarli uzunlikda, ko'kragi chuqur, keng emas. Yag'rini keng emas va ko'zga yaxshi tashlanadi. Orqasi tekis. Qovurg'alari keng va keng joylashgan. Kuragi ko'krak qafasiga zich birikkan. Beli tekis, qisqa va keng. Sag'risi uzun va keng. Tos-son birikmalari orqa do'ng suyak oralig'idan bir oz pastda joylashgan. Dumi uzun va ingichka. Terisi yupqa, elastik, serharakat. Jun qoplami ingichka va tekis
Oyoqlari va to'yoqlari	Oyoqlari mustahkam, ingichka va dag'al emas, Poychasi tik. Orqa oyoqlari sakrash bo'g'inida o'rtacha burchakda bukilgan. Sakrash bo'g'inlari quruq va ko'zga yaxshi tashlanadi. To'yoqlarning oldingi devori er sathiga 45° burchakda egilgan, orqa devori baland, tovonni tekis
Jami:	10 ball

Izoh: Naslli mahsulot (material) bonitirovkasini o'tkazish tartibi va shartlari to'g'risidagi nizomiga muvofiq



## 27-jadval

## Sut va sut-gusht yoʻnalishidagi qoramol zotlari sigirlarining ekstereri va konstitutsiyasiga qarab baholash shkalasi

Umumiy rivojlanishi va tana qismlari	Baholashda hisobga olinadigan koʻrsatkichlar	Ball
Umumiy koʻrinishi va rivojlanishi	Tana tuzilishining mutanosibligi, konstitutsiyasining mustahkamligi, zot tipining ifodalanganligi	3
Yelini	Hajmi, bezliligi, shakli, sut venalari, oldingi va orqa soʻrgʻichlari, elinni tanaga birikishi, boʻlinmalarning bir tekis rivojlanganligi	5
Oldingi va orqa oyoqlari	Oyoqlarning baquvvatligi va qoʻyilishi, tuyoqlarning mutahkamligi va shakli	2
	Jami ballari	10

## 28-jadval

## Sut va sut-goʻsht yoʻnalishidagi qoramol zotlarning nasldor buqalarining ekstereri va konstitutsiyasini baholash shkalasi

Umumiy rivojlanishi va tana qismlari	Baholashda hisobga olinadigan koʻrsatkichlar	Ball
Umumiy koʻrinishi va rivojlanishi	Tana tuzilishining mutanosibligi, konstitutsiyasining mustahkamligi, zot tipining ifodalanganligi, erkaklik tipining ifodalanganligi, muskulaturasi, suyaklari	4
Tana qismlari	a) boshi va boʻyni, koʻkragi, yagʻrini, orqasi, beli, tanasining oʻrta qismi, orqa qismi	4
	b) oldingi va orqa oyoqlarining baquvvatligi va qoʻyilishi, tuyoqlarning mustahkamligi va shakli	2
Jami		10

## 29-jadval

## Qoramollar tana tuzilish bahosini tushiradigan kamchiliklar

Umumiy rivojlanishi	Umumiy yetilmaganligi, suyaklarning dagʻalligi yoki oʻta nozikligi, muskullarining boʻshligi yoki sust rivojlanganligi. Tana tuzilishi nomutanosib va mahsuldorlik yoʻnalishiga mos kelmasligi. Zot xususiyatlarini etarli ifodalanganligi.
---------------------	---


Boshi va buyni	Boshi og'ir yoki o'ta rivojlangan, sigirlarning xo'kizbosh va buqalarning sigirbosh bo'lishi. Bo'yni kalta, qo'pol, teri burmalari qalin yoki bo'ynida o'yiqlari bo'lib, muskullari sust rivojlanganligi.
Ko'kragi	Ko'kragi tor, sayoz, kuraklarining orqasida past tushib turgan joylarining mavjudligi.
Yag'rini va orqasi	Yag'rini ikkiga bo'lingan yoki o'tkir. Orqasi tor, kalta, osilib tushgan yoki bukriga o'xshab ko'tarilib chiqqan. Beli tor, osilib qolgan yoki tomsimonligi
Tanasining o'rta qismi	Sigirlarda sust rivojlanganligi, buqalarda qorinning osilib turishi
Tanasining orqa qismi	Kalta osilgan, tomsimon, bigizdek chiqib turishi
Yelini va so'rg'ichlari	Yelini kichik, osilib qolgan, bo'linmalari bir tekis rivojlanmagan
Oldingi va orqa oyoqlari	Oldingi oyoqlarining kayrilib, bukilganligi, orqa oyoqlarning qiyshiq qilichsimon, tumshuqsimon, filsimon bo'lib turishi, tuyoqlarining qambar, yassi, shox moddasining yumshoq bo'lishi.

### 30-jad



#### Go'sht yo'nalishidagi qoramol zotlariniig sigirlarini, eksterer va konstitutsiyasiga qarab baholash shkalasi

Umumiy rivojlanishi va tana qismlari	Yuqori ball bilan baholash talablari	Asosiy ball	Koeffi sient	Umumi ball
Umumiy ko'rinishi, rivojlanganligi va zot tipining ifodalanganligi	a) Tana tuzilishining mutanosibligi, zotning go'shtdorlik tipini yaxshi ifodalanganligi, keng va dumaloq gavdaligi	5	3	15
	b) Muskulaturaning yaxshi rivojlanganligi, mustahkam ammo qo'pol suyagi	5	2	10
Tana qismlari: boshi va bo'yni	Zot uchun xos bo'lgan engil bosh, yaxshi go'shtdor, kalta bo'yin	5	1	5
Yag'rini, orqasi, bosh	Keng go'shtdor yag'rin, tekis keng, uzun go'shtdor orqa va bel	5	3	15
Dumg'aza	Go'shtdor tekis, keng va uzun	5	3	15





Hayvonni erta bilan oziqlantirish oldidan yoki oziqlantirishdan 3 soat o'lchanadi. O'lchash vaqtida hayvon tekis maydonchada tinch holatda bo'lib, oyoqlari to'g'ri qo'yilgan, boshini to'g'ri tutgan bulishi lozim.



62-rasm. Qoramollarda o'lchovlar olish nuqtalari:

Qo'yilgan madsadga ko'ra, o'lchovlar soni har xil bo'lishi mumkin. Qoramol va otlarning ekstererini o'rganishda ko'proq o'lchovlar, qo'ylar o'chqalarda esa kamroq o'lchovlar olinadi. Hayvonlar ekstererini baholashda quyidagi asosiy o'lchovlar olinadi: nollarda:

1. Bosh uzunligi - ensa do'ngligi orasidan burun oynasigacha (serkul bilan).
2. Peshona uzunligi - ensa do'ngligi o'rtasidan ko'z ichki burchaklari biriktiradigan chiziqqacha (serkul bilan).
3. Peshona kengligi - ko'z qovog'ining chetki qismidan olinadi (serkul bilan).
4. Yag'rin balandligi - yerdan yag'rin balandligigacha bo'lgan masofa (o'lchov tayog'i bilan).
5. Orqa balandligi - oxirgi orqa umurtqasidan yergacha bo'lgan masofa (o'lchov tayog'i bilan).
6. Bel balandligi - beldan yergacha bo'lgan masofa (o'lchov tayog'i bilan).
7. Dumg'aza balandligi - dumg'aza cho'qqisidan yergacha bo'lgan masofa (tayoq bilan).
8. O'tirg'ich do'ngliklari balandligi - o'tirg'ich do'ngligidan yergacha bo'lgan masofa (o'lchov tayog'i bilan).
9. Ko'krak chuqurligi - yag'rin balandligidan to'sh suyagigacha (tayoq bilan).
10. Gavda qiya uzunligi - yelka suyagining oldingi cho'qqisidan o'tirg'ich do'ngligining orqa cho'qqisigacha (tayoq va lenta bilan).
11. Ketining yonbosh uzunligi - o'tirg'ich do'ngligi orqa cho'qqisidan qo'yimich suyagigacha (serkul bilan).
12. Ko'krak kengligi - ko'krak orqasidan olinadi (o'lchov tayog'i bilan).
13. Bel balandligi - to'rtinchi bel umurtqasining chet qismlaridan olinadi (serkul bilan).
14. Yonbosh cho'qqilari orasidagi kenglik - yonbosh cho'qqilarining chet qismlaridan olinadi (serkul bilan).
15. Tos son bo'g'imlari oralg'i kengligi - tos son bo'g'imlari chet bo'rtig'idan olinadi (serkul bilan).
16. Qo'yimich (o'tirg'ich) do'ngliklari orasidagi kenglik - qo'yimich do'ngliklarining ortki bo'rtig'idan olinadi (serkul bilan).
17. Ko'krak aylanasi - kurak orqasidan olinadi (lenta bilan).
18. Pochasining yo'g'onligi - pochastki qismining yuqorigi qismidan olinadi (lenta bilan).
19. Orqasining yarim yo'g'onligi (Gregeri o'lchovi): chap tizma bo'g'inidan o'ng tizma bo'g'inigacha dum ostidan olinadi.
20. Terining qalinligi - tirsak ustidan yettinchi qovurg'a o'rtasidan olinadi (shtangen sirkul bilan).

### Otlarda:



1. Qarchig'ay balandligi - qarchig'ay do'ngligidan yergacha bo'lgan asofa.

2. Orqa balandligi.

3. Dumg'aza balandligi.

4. Ko'krakning yerdan balandligi - yerdan to'sh suyagigacha bo'lgan asofa.

5. Ko'krak chuqurligi.

6. Ko'krak kengligi.

7. Ko'krak aylanasi.

8. Gavda qiya uzunligi.

9. Bosh uzunligi.

10. Peshona uzunligi

11. Peshona kengligi.

12. Bosh kengligi.

13. Sag'ri kengligi (yonbosh cho'qqisidan).

14. Sag'ri uzunligi.

15. Oldingi oyoqlar balandligi - tirsak bo'rtig'idan yergacha bo'lgan asofa.

16. Bilak uzunligi - tirsak bo'g'imi o'rtasidan bilak uzuk bo'g'imigacha

17. Kaft uzunligi - bilakuzuk bo'g'imi o'rtasidan baqay bo'g'imi atasigacha.

18. Kaft aylanasi.

19. Baqay uzunligi.

#### bo'chqalarda

1. Yag'rin balandligi.

2. Ko'krak aylanasi.

3. Ko'krak kengligi.

4. Ko'krak chuqurligi.

5. Gavda uzunligi - ensa do'ngligidan dum ildizigacha lenta bilan olinadi.

6. Pocha yo'g'onligi.

#### to'yalarda

1. Yag'rin balandligi.

2. Orqa balandligi.

3. Dumg'aza balandligi.

4. Ko'krak kengligi.

5. Yonbosh cho'qqilari orasidagi kenglik.

6. Pocha yo'g'onligi.

7. Gavda qiya uzunligi.

### **Parrandalarda:**

1. Gavda uzunligi - yelka-kurak bo'g'imidan o'tirg'ich suy cho'qqisigacha (lenta bilan).

2. Ko'krak chuqurligi - oxirgi bo'yin umirtqasidan to'sh suyagini oldingi qismigacha (sirkul bilan).

3. Ko'krak kengligi - elka bug'inining chetidan olinadi (sirkul bilan).

4. Ko'krak aylanasi - to'sh suyagining oldingi qismidan qanotlari bilan oxirgi bo'yin umurtqasigacha (sirkul bilan).

5. To'sh uzunligi - to'sh suyagining oldidan orqa qismigacha (lenta bilan).

6. Tos kengligi - tos-son bo'g'imining chetki qismlari orasidagi mas (sirkul bilan).

7. Son, boldir, panja uzunligi (sirkul bilan).

8. Ko'krak burchagi - uglomer bilan olinadi.

**Kerakli materiallar va asboblari:** ish daftari, o'lchov asboblari, sigir, qo'y, cho'chka skeleti, har xil turdagi hayvonlar va parrandalarning mulyajli jadvallar.

**1-topshiriq.** O'lchov asboblarining tuzilishi va ulardan foydalanish o'rganish.

**2-topshiriq.** Ish daftarida o'lchovlarni olish no'qtalarini yozib, belgi chiqish.

### **Chorva hayvonlarining tana o'lchamlarini olish**

**Mashg'ulotning maqsadi:** oldingi mashg'ulotda olingan bilimni mustahkamlash, chorva hayvonlarini o'lchashni o'rganish, ayrim tana qismlarining rivojlanishini ko'rsatuvchi o'lchovlar to'g'risida ma'lumot olish.

**Uslubiy qo'llanmalar.** Mashg'ulot o'quv fermasida o'tkaziladigan Qoramollar, otlar, qo'ylar, cho'chqalar va tovuqlardan o'lchovlar olinadi.

Dashtlab qoramollarda o'lchovlar olinadigan nuqtalarni topib, o'lchovlar olinadi. O'lchovlar olishni yuvvosh yoki qari sigirlardan boshlash kerak. Keyinchalik, o'rta yoshdagi va yosh hayvonlardan o'lchovlar olinadi.

Talabalar, 2-3 nafardan kichik guruhga bo'linib har xil turdagi hayvonlardan o'lchovlar olishlari zarur. O'lchovlarning ko'rsatkichlari daftariga yoki maxsus kartochkaga yoziladi. Keyinchalik bu o'lchov yordamida eksteryer profili tuziladi, gavda tuzilish indeksleri hisoblanadi. Hayvonning o'sish va rivojlanishi hamda tana tuzilishini o'rganish to'g'risida xulosalar qilinadi.

**Kerakli materiallar va asboblari.** Ish daftari, kartochkalar, o'lchov asboblari, xalatlar, kerak miqdorda har xil turdagi hayvonlar va parrandalar.




**Topshiriq.** Talabalar mashg'ulot davrida har xil va jinsga mansub olingan 3-6 bosh hayvondan tana o'lchovlarini olib ish daftari yoki kartochkaga kiritishlari zarur.

### Maustaqil bajarish uchun vazifalar

1. Hayvonlardan o'lchamlar qachon olinadi?
2. Tana o'lchamlari qanday asboblarda yordamida olinadi?
3. Har xil turga mansub bo'lgan hayvonlardan qanday tana o'lchamlari olinadi.
4. Tana o'lchov materiallaridan nima maqsadda qo'llaniladi?
5. O'lchovlar olish uchun maxsus asboblarni Klaster usulida ko'rsating.

### Klaster usuli



### Mashg'ulot. TANA TUZILISH INDEKSLARINI HISOBLASH VA EKSTERYER PROFILINI TUZISH

**Mashg'ulotning maqsadi:** Hayvonlarni o'lchashdan olingan o'lchovlarni o'rganish va tahlil qilish, ular asosida tana tuzilish indekslarini hisoblashni va eksteryer profilini tuzishni o'rganish.

**Uslubiy qo'llanmalar.** Ayrim o'lchovlar yordamida faqatgina alohida qismlarining rivojlanganligini bilish mumkin. Bu esa hayvon tanasining umumiy sharoitini aniqlash imkonini bermaydi. Shuning uchun ham tana tuzilish indekslari hisoblanadi.

Anotomo-morfologik jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lgan bir o'lchov boshqa bir o'lchovga bo'lgan nisbatini foizdagi ifodasiga tana tuzilish indeksi deyiladi. Tana tuzilish indekslarini o'zaro solishtirish yordamida har xil jins yoshli va mahsulot yo'nalishidagi hayvonlar eksteryeri tuzilishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash mumkin.

Tana tuzilish indeksleri hayvonning rivojlanish jarayonini muvofiq ravjlanish harakterlab beradi, hayvon tanasining qaysi qismi yaxshiroq rivojlanayotganligini yoki rivojlanish sust borayotganligini bilib olishga imkon beradi.

33-jadval

**Qoramollarning tana tuzilishi bo'yicha klassifikatsiyasini (tasnif) aniqlash jadvali**

Tana tuzilishi	Ballar	Belgilanishi	
		rus tilida	ingliz tilida
O'ta a'lo	90 - 100 ball	P	EX
A'lo	85 - 89 ball	5	VG
Ijobiy yaxshi	80 - 84 ball	4+	GP
Yaxshi	75 - 79 ball	4	G
Qoniqarli	65 - 74 ball	3	F
Yomon	50 - 64 ball	2	P

**Izoh:** Nasli mahsulot (material) bonitirovkasini o'tkazish tartibi va shartlari to'g'risidagi nizom muvofiq

34-jadval

**Turli mahsuldorlik yo'nalishidagi qoramollarning tana tuzilish indekslari**

Indekslar	O'lchamlar nisbati,%	Zot xili		
		Sut yo'nali shi dagi	Go'sh t yo'nalishidagi	Qo'y Mahsuldor
1	2	3	4	5
Uzunoyoq lilik	$\frac{\text{Yag'rin balandligi} - \text{ko'krak chuqurligi}}{\text{Yag'rin balandligi}} \times 100$	45,7	42,2	48,2
Cho'zinchoqlik	$\frac{\text{Gavda qiya uzunligi}}{\text{Yag'rin balandligi}} \times 100$	120,8	122,5	118,4



Ko'krak	$\frac{\text{Ko'krak kengligi}}{\text{Ko'krak chuqurligi}} \times 100$	61,8	73,6	68,8
Ko'krak	$\frac{\text{Ko'krak kengligi}}{\text{Yonbosh cho'qqilari orasidagi kengligi}} \times 100$	80,2	83,5	85,5
Yonboshlik	$\frac{\text{Ko'krak aylanasi}}{\text{Gavda qiya uzunligi}} \times 100$	118,2	132,5	121,3
Yonboshlik	$\frac{\text{Dumg'aza balandligi}}{\text{Yag'rin balandligi}} \times 100$	100,9	102,5	103,2
Yonboshlik	$\frac{\text{Yonbosh cho'qqilari orasidagi kengligi}}{\text{O'tirg'ich do'ngligining kengligi}}$	67,8	69,0	67,8
Ko'kraklik	$\frac{\text{Pocha aylanasi}}{\text{Yag'rin balandligi}} \times 100$	14,6	13,9	15,4
Yonboshlik	$\frac{\text{Peshona uzunligi}}{\text{Bosh uzunligi}}$	44,6	45,2	46,1
Yonboshlik	$\frac{\text{Bosh uzunligi}}{\text{Yag'rin balandligi}}$	40,0	34,6	36,8

### 35-jadval

#### Otlarni eksteryeri va gavda tuzilishi bo'yicha baholash jadvali

Tana qismlari	Baholash			Umumiy ballar
	Yomon (0 ball)	Qoniqarli (1 ball)	Yaxshi (2 ball)	
<b>I – bosh, bo'yin, gavda</b>				
Boshi				
Bo'yini				
Qarchig'ayi				
Ko'krak aylanasi				
Ko'krak chuqurligi				
Orqasi va beli				
Yag'risi				
Tami				
<b>II – oyoqlar</b>				
Oldingi oyog'ining qo'yilishi				
Oldingi oyog'ining kaft va				

bo'g'inlar tuzilishi, baqayi				
Orqa oyog'ining sakrash bo'g'ini tuzilishi va qo'yilishi				
Orqa oyog'ining kaft va bo'g'inlar tuzilishi, baqayi				
Tuyoqlari				
Jami:				
<b>III – tuzilishi, muskullar, paylar, mijoz</b>				
Tuzilishi				
Muskullari				
Pay va biriktiruvchi to'qimalari				
Mijozi va moslashuvchanlik sifati				
Jami:				
Jami:				

**Izoh:** Naslli mahsulot (material) bonitirovkasini o'tkazish tartibi va shartlari to'g'risidagi nizomga muvofiq

36-jad

**Qorabayir zotli otlarning tana o'lchamlarini baholashda hisobga olinadigan minimal ko'rsatkichlar, sm**

Ayg'ir			Biya			Ba
Qarchig'ay balandligi	Ko'krak aylanasi	Poycha aylanasi	Qarchig'ay balandligi	Ko'krak aylanasi	Poycha aylanasi	
158	179	20,5	156	180	20,0	9
156	177	20,0	154	178	19,5	8
154	176	19,5	152	177	19,0	7
152	174	19,5	150	176	19,0	6
151	173	19,0	149	175	19,0	5
150	172	19,0	148	174	18,5	4

**Izoh:** Ko'rsatilgan minimal ko'rsatkichdan ko'krak aylanasi 5 sm va undan ko'p poycha aylanasi 0,5 sm va undan ko'p ortishida har bir belgi uchun 0,5 sm ko'rsatiladi.

**Izoh:** Naslli mahsulot (material) bonitirovkasini o'tkazish tartibi va shartlari to'g'risidagi nizomga muvofiq



## 37-jadval

Qarabayir zotli otlarning yoshiga asosan tana o'lchamlarini baholashda hisobga olinadigan minimal ko'rsatkichlarga tuzatishlar, sm

Yoshi	Qarchig'ay balandligi	Ko'krak aylanasi	Poycha aylanasi
3,5	1	3	-
3,0	2	6	0,5
2,5	4	10	0,5
2,0	6	15	1,0
1,5	10	20	1,5

Ushbu ma'lumotli mahsulot (material) bonitirovkasini o'tkazish tartibi va shartlari to'g'risidagi nizamiga muvofiq

## 38-jadval

Axaltaka zotli otlarning tana o'lchamlarini baholashda hisobga olinadigan minimal ko'rsatkichlar, sm

Qarchig'ay balandligi	Ayg'ir			Biya				Ball
	Gavdaning qiya uzunligi	Ko'krak aylanasi	Poycha aylanasi	Qarchig'ay balandligi	Gavdaning qiya uzunligi	Ko'krak aylanasi	Poycha aylanasi	
160	163	176	19,5	158	160	178	19,0	9
158	160	174	19,5	156	158	176	19,0	8
156	158	172	19,0	154	156	175	18,5	7
155	156	170	19,0	153	154	172	18,5	6
154	164	168	18,5	152	152	170	18,0	5
152	152	167	18,5	151	150	168	18,0	4
150	149	167	18,0	149	148	167	18,0	3

Agar gavdaning qiya uzunligi qarchig'ay balandligidan 3 sm va undan ortiq o'lchamga kam bo'lsa, balliga pasaytiriladi. 4 va undan katta yoshdagi otlarda qarchig'ay balandligining 1 sm.ga pasayishi hisobga olinmaydi. Mashg'ulotdagi otlarga ko'krak aylanasi bo'yicha talablar qo'shimcha 5 sm.ga pasaytiriladi.

Ushbu ma'lumotli mahsulot (material) bonitirovkasini o'tkazish tartibi va shartlari to'g'risidagi nizamiga muvofiq

**Axaltaka zotli otlarning yoshiga asosan tana o'Ichamlarini baholashda hisobga olinadigan minimal ko'rsatkichlarga tuzatishlar, sm**

Yoshi	Qarchig'ay balandligi	Gavdaning qiya uzunligi	Ko'krak aylanasi	Poycha aylanasi
3,5	1	2	5	0,5
3	2	4	7	0,5
2,5	4	6	10	1,0
2	6	9	15	1,0
1,5	10	17	18	1,5

**Izoh:** Naslli mahsulot (material) bonitirovkasini o'tkazish tartibi va shartlari to'g'risidagi nizomga muvofiq

**Toza qonli arab zotli otlarning yoshiga asosan tana o'Ichamlarini baholashda hisobga olinadigan minimal ko'rsatkichlarga tuzatishlar, sm**

Yoshi	Qarchig'ay balandligi	Ko'krak aylanasi	Poycha aylanasi
3,5	1	3	-
3	3	6	0,5
2,5	4	8	0,75
2	5	12	1,0
1,5	8	20	1,5

**Izoh:** Naslli mahsulot (material) bonitirovkasini o'tkazish tartibi va shartlari to'g'risidagi nizomga muvofiq

**Izoh:** ko'krak aylanasining ko'rsatilgan minimal ko'rsatkichdan 5 sm va undan ziyod, poycha aylanasining 0,5 sm va undan ziyod oshishiga har bir belgi uchun ball qo'shiladi. 4 va undan katta yoshdagi otlarda qarchig'ay balandligining 1 sm pasayishi hisobga olinmaydi. Mashg'ulotdagi otlarga ko'krak aylanasi bo'yicha talablar qo'shimcha 5 sm.ga pasaytiriladi.



41-jadval

Tuz qonli arab zotli otlarning tana o'lchamlarini baholashda hisobga olinadigan minimal ko'rsatkichlar, sm

Ayg'ir			Biya			Ball
Qarchig'ay balandligi	Ko'krak aylanasi	Poycha aylanasi	Qarchig'ay balandligi	Ko'krak aylanasi	Poycha aylanasi	
152	177	19,5	150	174	19,0	9
151	175	19,0	149	172	18,5	8
149	173	19,0	148	169	18,5	7
147	168	19,0	146	167	18,0	6
146	166	18,5	145	166	18,0	5
145	165	18,0	144	165	17,5	3-4

Izoh: Naslli mahsulot (material) bonitirovkasini o'tkazish tartibi va shartlari to'g'risidagi nizomiga

42-jadval

Tuz qonli salt miniluvchi otlar va ularning duragaylari tana o'lchamlarini baholashda hisobga olinadigan minimal ko'rsatkichlar, sm

Ayg'ir			Biya			Ball
Qarchig'ay balandligi	Ko'krak aylanasi	Poycha aylanasi	Qarchig'ay balandligi	Ko'krak aylanasi	Poycha aylanasi	
162	182	20,5	160	182	20,0	9
160	180	20,0	158	180	19,5	8
159	178	19,5	157	178	19,0	7
158	176	19,5	156	176	18,5	6
157	175	19,0	155	175	18,5	5
156	174	19,0	154	174	18,5	3-4

Izoh: ko'rsatilgan minimal ko'rsatkichdan ko'krak aylanasining 5 sm va undan ziyod, poycha aylanasining 0,5 sm va undan ziyod oshishiga har bir belgi uchun 0,5 ball qo'shiladi.

Izoh: Naslli mahsulot (material) bonitirovkasini o'tkazish tartibi va shartlari to'g'risidagi nizomiga

**Toza qonli salt miniluvchi otlar va ularning duragaylarining yoshiga asosan tana o'lchamlarini baholashda hisobga olinadigan minimal ko'rsatkichlarga tuzatishlar, sm**

Yoshi	Qarchig'ay balandligi	Ko'krak aylanasi	Poycha aylanasi
3	1	5	-
2,5	3	8	0,5
2	3	12	1,0
1,5	5	20	1,5

Izoh: Naslli mahsulot (material) bonitirovkasini o'tkazish tartibi va shartlari to'g'risidagi nizomiga muvofiq.

**Qorako'l zotli sovliqlarning tana tuzilish indekslari  
(K.A.Axmedov, YA.Nurillaev)**

Davlat nomi	xo'jaliklari nomi	Indekslar					Ko'krak indeksi
		Uzun oyoqlilik	Cho'zin choqlik	Bo'y dorlik	Suyakdorlik	To'lish ganlik	
	Gagarin O'zbekiston	43,3	104,1	100,9	-	-	-
	"Nurota" O'zbekiston	-	104,1	-	10,9	117,1	-
	"G'uzor" O'zbekiston	47,3	105,7	101,4	11,7	124,6	-

Mustaqil ishlash uchun oldingi mashg'ulotdagi hayvonlardan olingan o'lchovlar keltirilib, ular asosida tana tuzilish indekslari hisoblanadi va ish daftar yoziladi (45-jadval).

**Hayvonlarning tana tuzilishi indekslari**

Indekslar	Hayvonlarning laqabi			
Uzunoyoqlilik				
Cho'zinchoqlik				
Ko'krak				
Tos ko'krak				
To'lishganlik				
Suyakdorlik				
Bo'y dorlik				
Ketining bigizsimonligi				

Eksteryer profili yordamida hayvonlarning o'lchovlari zot talabiga yoki ayol podalar, tiplarining o'lchovlariga grafik yordamida solishtiriladi.



Ushbu o'lchovlar 100 % deb olinib, javdalning o'rtasida gorizontol to'g'ri chiziq bilan belgilanadi va o'rganilayotgan hayvon o'lchovlari shu chiziqning osti yoki yuqori qismida joylashtiriladi.

Keyinchalik o'lchovlar, belgilangan nuqtalarga birlashtirilib, eksteryer profili, ya'ni egri chizig'i chiziladi.

**I-topshiriq.** Jaydari zotli qo'ylarni Saraja zotli qo'chqorlar bilan solishtirib olingan duragay sovliqlarning o'lchovlari yordamida ularning tana tuzilish indeksleri hisoblab chiqilsin (46-jadval).

**46-jadval**

**Chatishma sovliqlarning o'lchovlari, sm**  
(S.S.Qalandarov, X.R.Olimjonov)

O'lchovlar	I		II	
	$\bar{X}$	Lim	$\bar{X}$	lim
Yag'rin balandligi	63,1	55-74	62,6	56-72
Dumg'aza balandligi	62,8	53-72	62,4	58-65
Qayda qiya uzunligi	69,6	63-78	69,3	63-77
Ko'krak aylanasi	79,7	68-89	80,4	69-92
Ko'krak kengligi	18,0	16-23	15,8	14-20
Ko'krak chuqurligi	29,3	23-34	29,0	22-31
Puscha aylanasi	8,0	5-9	7,5	5-8,5

**2-topshiriq.** O'lchovlar yordamida to'la yoshdagi qizil cho'l zoti bilan mahalliy zebusimon mollar o'rtasida olingan chatishma sigirlarning tana tuzilish indeksleri hisoblansin (47-jadval).

**47-jadval**

**Qizil cho'l zoti bilan mahalliy zebusimon mollar o'rtasida olingan etuk yoshdagi chatishma sigirlarning tana o'lchovlari, sm** (S.Z.Jalilov, L.A.Lomashova)

O'lchovlar	Qizil cho'l zoti	Chatishma avlodlar				Mahalliy zebusimon sigirlar
		IV	III	II	I	
Yag'rin balandligi	127,8	115,0	123,0	126,0	127,9	115,0
Dumg'aza balandligi	133,5	126,0	128,0	130,5	132,4	119,0
Qayda qiya uzunligi	154,6	140,0	154,8	151,0	152,4	127,0
Ko'krak chuqurligi	68,1	61,0	65,0	66,2	68,0	56,5
Ko'krak kengligi	40,1	38,0	40,3	42,0	41,1	33,0
Ko'krak aylanasi	175,0	156,0	160,3	64,0	176,3	149,0
Yonbosh cho'qqilari	51,1	46,0	49,0	49,8	51,8	39,7

orasidagi kenglik						
O'tirg'ich do'ngliklari orasidagi kenglik	30,5	21,5	25,0	27,3	30,9	20,9
Pocha aylanasi	19,0	17,0	18,0	18,0	18,0	15,2

**3-topshiriq.** Turli xil zotli biyalarning o'lchovlari berilgan. Ular yordami tana tuzilish indeksleri hisoblansin va eksteryer profili tuzilsin (48-jadval).

48-jadval

**Har xil zotga mansub biyalarning o'lchovlari, sm**

Zotlar	Qarchig'ay balandligi	Gavda qiya uzunligi	Ko'krak aylanasi	Pocha aylanasi
Axaltaka	152	154	166	18,1
Yovmud	148	149	163	17,9
Arab	154	152	178	18,7
Rus yurg'a zoti	159	155	179	19,5
Qorabayir	155	156	175	19,0
Mo'g'ul zoti	127	134	154	17,0
Laqay zoti	145	147	170	18,5

**4-topshiriq.** Har xil tug'ish yoshidagi qizil cho'l va shvits zotli sigirlarning o'lchovlari berilgan. Ularning tana tuzilish indeksleri hisoblab topilsin (49-jadval).

49-jadval

**Qizil cho'l va shvits zotli sigirlarning o'lchovlari**

(S.D.Do'stqulov, F.Isroilov)

O'lchovlar	Qizil cho'l zoti			Shvits zoti		
	I	II	III	I	II	III
Yag'rin balandligi	121,1	123,3	124,7	120,9	122,8	125,0
Bel balandligi	125,1	126,0	127,0	125,2	126,2	127,1
Dumg'aza balandligi	128,9	131,5	131,1	129,2	130,1	131,0
O'tirg'ich do'ngliklari balandligi	118,8	121,8	122,8	120,1	121,4	122,0
Gavda qiya uzunligi	142,9	148,7	151,8	143,5	149,7	150,0
Ko'krak chuqurligi	64,1	65,4	67,7	65,5	67,5	69,0
Ko'krak kengligi	41,7	43,2	44,8	42,1	45,9	46,0
Yonbosh cho'qqilari orasidagi kenglik	45,4	47,3	48,1	45,4	47,7	48,0
O'tirg'ich do'ngliklari	22,1	23,2	24,1	24,6	25,1	25,0



orasidagi kenglik						
Ko'krak aylanasi	168,9	174,3	176,1	172,9	176,3	179,2
Pocha aylanasi	17,1	17,5	18,1	18,1	18,9	19,4

3	84,0	65	87,0	78,9		
4	84,4	65	86,5	81,0		
5	84,4	65	82,0	74,0		
6	88,4	65	84,4	80,7		
7	84,0	65	77,4	73,0		

7-topshiriq. "Konimex" davlat naslchilik zavodida jaket barra tipli naslli qo'l qo'chqorlarini har xil barra tipli sovliqlar bilan juftlash natijasida olingan qo'zilar sifatiga qarab qo'chqorlarni baholang (119-jadval).

119-jadval

**Jaket barra tipli qo'chqorlar bilan har xil barra tipli sovliqlarni juftlashda olingan qo'zilar sifati (I.N. Dchkov, U.Manatov).**

Qo'chqorning guruh raqami	DNK bo'yicha nomeri	Barra tiipi va klassi	Qo'zilarning sifati %			
0945	651	Jaket, o'rta 1	3,2	70,5	94,3	40,3
1267	49	Jaket, o'rta 1	14,1	97,6	87,0	41,4
2701	46	Jaket, o'rta 1	5,4	89,4	90,5	52,3
3655	48	Jaket, elita	18,1	94,5	91,5	38,8
4016	662	Jaket, elita	28,2	85,5	94,3	43,0
4078	525	Jaket, elita	3,7	96,3	90,2	32,0

4768	673	Jaket, elita	16,2	92,5	84,2	43,5
6998	541	Jaket, o'rtta 1	17,1	88,6	82,4	50,5
7393	686	Jaket, elita	30,1	90,3	94,5	42,0
7394	545	Jaket, elita	26,4	87,9	89,6	47,9

**8-topshiriq.** Samarqand viloyati Payariq tumaniga qarashli Oxunboboyev nomli davlat xo'jaligida urchitilgan qizil cho'l zotli buqalarni qizlarining sut berish xususiyatiga qarab baholang (120-jadval).

120-jadval

### Qizil cho'l zotli buqalar qizlarining sut berish ko'rsatkichlari

(S.D.Dustkulov, F.I.Isroilov)

Sut berish ko'rsatkichlari	O'lchov birligi	Buqalarning nomeri			
		6280 n=9	1614 n=11	2378 n=4	2504 n=6
Oldingi elin bo'laklaridagi sut miqdori	%	44,33	39,90	42,50	43,46
Qo'lda sog'ib olingan sut miqdori	ml	184	200	146	196
O'rtacha sut berish tezligi	kg/min	155	1,31	1,31	1,47
Sog'ish vaqti	Min	4,37	3,71	4,04	4,71
Bir martalik sog'im	Kg	6,30	4,96	5,20	6,15

### Mustaqil bajarish uchun vazifalar

1. Hayvonlarni genotip ko'rsatkichlariga qarab baholash deganida nimalarni tushunasiz.

2. Nasl-nasab shajarasi nima va u qanday tuziladi.

3. Nasl-nasab shajarasining qanday shakllarini bilasiz

4. Hayvonlarning kelib chiqishiga qarab baholsha qanday o'tkaziladi.

5. Zotdor erkak hayvonlar naslining sifatiga qarab baholash usullarini sanab bering.

6. Irsiyat panjarasi qanday chiziladi va to'ldiriladi.

7. Naslli erkak hayvonlarni avlodlarining ko'rsatkichlariga qarab baholaganda nimalarga e'tibor berish kerak.

8. Insert texnikasidan foydalanib, har xil turdagi naslli erkak hayvonlarni bolalari sifatiga qarab baholash bo'yicha o'z fikringizni ifodalang.

### Matnni belgilash tizimi

(V) – men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) - yangi ma'lumot



men bilgan narsaga zid

meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur

Mavzu savollari	V	+	-	?
Sut yo'nalishidagi qormol zotlariga qaysi belgilari bo'yicha baho beriladi				
Go'sht yo'nalishidagi qormol zotlariga qaysi belgilari bo'yicha baho beriladi				
Nasli erkak hayvonlarni bolalarining sifatiga qarab baholaganda nimalarga e'tibor berish zarur				
Zotdor erkak hayvonlarni baholashning necha xil usuli mavjud				

### CHORVA MOLLARINI TANLASH

Chorva mollarin sonini ko'paytirish, mahsuldorligini oshirish va sifatini oshirish naslchilik ishini to'g'ri olib borishga bog'liq bo'ladi.

Naslchilik ishi deb, chorva mollarining nasl sifatini yaxshilash, mahsuldorligini oshirish va sonini ko'paytirish maqsadida amalga oshiriladigan texnikaviy va tashkiliy, davlat va xo'jalik tadbirlari yig'indisiga aytiladi.

Naslchilik ishida eng muhim tadbirlarga tanlash va saralash kiradi. Naslchilik ishining asosiy vazifasi yildan-yilga chorva mollarining mahsuldorligini oshirib borishdir. Tanlashning asosiy maqsadi inson uchun foydali bo'lgan belgilarni to'plash va kuchaytirish, yaxshi nasli mollarni tanlashni urchitish uchun ajratish va ko'paytirishdir.

Podalarning genetik tarkibini o'zgartirish asosan, maqsadga muvofiq podalarni tanlash va ulardan naslchilik ishida samarali foydalanish uchun tanlashda amalga oshiriladi.

Tanlashda tabiiy tanlashning rolini hisobga olib sun'iy tanlash yordamida podalarni har tomonlama genotipik va fenotipik belgilari bo'yicha kompleks tanlash zarur.

Tanlash podalarning irsiyatini o'zgartirib boradi. Uning ta'siri natijasida podalarning genetik tuzilishi asta - sekinlik bilan o'zgarib borib, ba'zi podalarning miqdori ko'payadi va boshqalari esa kamayadi.

Tanlashni samarali o'tkazish uchun uning genetik ko'rsatkichlarini tanlashda olib borish kerak. Bu ko'rsatkichlarga irsiyat koeffitsienti, seleksion koeffitsienti, tanlash samarasini aniqlash kiradi

## 21-mashg'ulot. IRSIYAT KOEFFITSIENTINI ANIQLASH VA UNDAN TANLASHDA FOYDALANISH

**Mashg'ulotning maqsadi.** Talabalarni tanlashning genetik ko'rsatkichlari bilan tanishtirish. Har bir belgi va xususiyatlar ko'rsatkichni hisoblash hamda uning tanlashdagi mohiyatini tushuntirish.

**Metodik qo'llanmalar.** Chorva mollarini barcha turlari bilan naslchilik ishini tashkillashtirish uchun har yili muntazam ravishda podani genetik tahlil qilish lozim. Har bir o'rganilayotgan belgi va xususiyat uchun o'rtacha arifmetik qiymat ( $\bar{X}$ ), o'rtacha kvadratik og'ish ( $\delta$ ), variatsiya va o'zgaruvchanlik koeffitsienti ( $Cv\%$ ), korrelyatsiya va regressiya koeffitsientini ( $R, r$ ) ushbu ko'rsatkichlar xatosi ( $M$ ), belgilarning ishonchlilik darajasini ( $td$ ) va nihoyat irsiyat koeffitsientini ( $h^2$ ) aniqlash kerak. Olingan ma'lumotlar maxsus jurnallarga qayd qilinadi va undan poda bilan olib borilayotgan naslchilik ishlarida foydalaniladi.

Ma'lumki, tanlash texnologiyasi yildan-yilga murakkablashib bormoqda. U faqat baholanayotgan hayvonning ko'rsatkichlari emas, balki uning ota-onasi va naslining sifatini ham o'z ichiga oladigan kompleks ko'rsatkichdir. Shuning uchun ham ontogenez ontogenez tanlash metodik jarayonga aylanadi.

Zootexniya fani va amaliyoti hozirgi rivojlanish uchun metodik xarakterlidir. U fenotipik (yalpi), genotipik, vositali stabilashtiruvchi va texnologik bo'lishi mumkin.

Yalpi, ya'ni fenotipik tanlashda hayvonlarning individual ko'rsatkichlari mahsuldorligi, ekstereri va konstitutsiyasi, umumiy rivojlanishi e'tiborga olinadi. Podadagi hayvonlarni u yoki bu ko'rsatkich bo'yicha klasslarga bo'linishi grafik usulda quyidigicha tasvirlaandi.

Bulardan tashqari dispersion tahlil va regressiya ko'rsatkichlari asosida ham irsiyat koeffitsientini aniqlash mumkin. Bir belgining irsiyat koeffitsienti podadagi individumlarga, tanlash samarasiga, oziqlantirish va saqlash sharoitiga qarab bir xil ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Har xil turga mansub bo'lgan hayvonlarni mahsuldorligini irsiyat koeffitsienti turlicha bo'ladi (98-jadval).

Ko'p hollarda tanlash samarasi irsiyat koeffitsientiga bog'liq bo'ladi. Agarda  $h^2 = 0$  bo'lsa fenotipik bo'yicha yalpi tanlash hech qanday samara bermaydi (tanlash foydasiz).

Irsiyat koeffitsienti qanchalik yuqori bo'lsa fenotip bo'yicha yalpi tanlash shunchalik samarali bo'ladi. Chunki belgini irsiyat koeffitsientiga va seleksion



tanlashiga qarab tanlashning natijalari taxmin qilinadi.  $h^2$  niko'pincha tanlangan tanlash samarasi va samaradorligi deb qarash mumkin.

121-jadval

**Har xil turga mansub bo'lgan chorva mollarida mahsuldorlik ko'rsatkichlarini irsiyat koeffitsienti (X.F.Kushner)**

Belgilar	Irsiyat koeffitsienti, $h^2$
<b>Sut yo'nalishidagi qoramollarda</b>	
paytda davrida sog'ib olgan sut miqdori	0,30-0,42
lakidagi yog' miqdori	0,60-0,78
umumiy yog' miqdori	0,43
lakidagi oqsil miqdori	0,50-0,70
egri chizig'ining doimiyliigi	0,12
tezligi	0,35-0,60
shakli	0,28-0,35
bolot birligiga sarflangan oziqa	0,20-0,40
lantirish qobiliyati	0,55
<b>Go'sht yo'nalishidagi qoramollarda</b>	
paytdagi tirik vazni	0,34-0,41
sigirlarning tirik vazni	0,26-0,70
mahsuldorligi	0,71
vaznining mutloq ko'rsatkichi	0,40-0,50
qol qilgan oziqani qoplash xususiyati	0,39
<b>Qo'ylar</b>	
paytdagi tirik vazni	0,40-0,61
miqdori	0,38
tasning ingichkaligi	0,57
ingichkalik bo'yicha bir tekisligi	0,43
<b>Cho'chqalar</b>	
qisqartirish qobiliyati	0,13
dan ajralgan davrdagi bolalar soni	0,12
paytdagi tirik vazni	0,30
tasning sifati	0,46-0,63
tasning qalinligi	0,50-0,66
qol qilgan oziqani tirik vazn bilan qoplash xususiyati	0,31-0,58
<b>Tovuqlar</b>	
umumligi	0,12-0,30
tasning og'irligi	0,60-0,71
tasning urug'lanuvchanligi	0,11-0,13
tasning echuvchanligi	0,10-0,914

Seleksion farqlanish deganda nasl yadrosi uchun tanlab olingan hayvon avlodini ( $\bar{X}_g$ ) hisoblanayotgan belgi bo'yicha o'rtacha arifmetik ko'rsatkich populyasiyadagi hayvonlarning, shu belgi bo'yicha o'rtacha arifmetik qiymat ( $\bar{X}$ ) farqi tushuniladi va  $S_f$ ,  $S_d$ ,  $S_f$ ,  $\bar{X}_g - \bar{X}$  simvollari bilan ifodalanadi; tanlash samarasini aniqlash uchun quyidagi formula ishlatiladi.

$$T_s = S_f \times h^2$$

bu erda:  $T_s$ - tanlash samarasi

$S_f$ - seleksiya farqlanish

$h^2$ - nasl qoldiruvchanlik koeffitsienti

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, tanlash samarasi seleksiya farqlanishi ko'rsatkichi bilan irsiyat koeffitsientiga bog'liq bo'lgan.

Masalan:

a) nasl yadrosi qilib, podadagi sigirlarning sut mahsuldorligini o'rtacha 100 kg oshiradigan sigirlar tanlangan bo'lsa, ularning qizlariga shu ko'rsatkich to'g'ri o'tmaydi- hammasi bo'lib 0,35 kg yoki 35% o'tadi, (chunki, bu ko'rsatkich  $h^2=0,35$ ) unda bu ko'rsatkich 350 kg ni tashkil qiladi /1000 x 0,35=350 kg/. Demak tanlash samarasi 350 kg ga teng bo'ladi.

b) nasl yadrosidagi sigirlar sutining tarkibidagi yog' ko'rsatkichlari 3,9% ( $X_r=3,9\%$ ), populyasiyadagi boshqa hayvonlarda bu ko'rsatkich 3,8 % teng ( $X=3,8\%$ ) yog' miqdorining irsiyat koeffitsienti esa podada o'rtacha 0,6 teng ( $h^2=0,6$ ), demak farq 0,1 %.  $T_s=X_r-X=3,9-3,8=0,1\%$  tanlash samarasi 0,06% ga teng bo'ladi ( $0,1 \times 0,6=0,06$ ). Shunga ko'ra nasl yadrosidagi sigirlarning qizlarida bu ko'rsatkich 3,86 % ni tashkil etadi ( $X_r=X - \text{bo'g'in} = 3,8-0,06=3,86\%$ ).

**Kerakli o'quv qurollari.** Ish daftari, har turga mansub bo'lgan qoramol cho'chqa, qo'y parrandalar, hayvonlar mahsuldorligi va boshqa xo'jalikka foydali ko'rsatkichlar to'g'risida ma'lumotlar.

**1-topshiriq.** Xo'jalikdagi yuqori mahsulotli sog'iladigan sigirlar guruhida o'rtacha 4410 kg va ularning qizlaridan 3940 kg, mahsuldorligi bo'yicha podada ko'rsatkichga ega bo'lgan sigirlar guruhidan 3386 kg, shuningdek ularning qizlaridan 3799 kg sut sog'ib olingan, shu ma'lumotlar asosida sut mahsuldorligi bo'yicha irsiyat koeffitsienti ( $h^2$ ) aniqlansin.

**2-topshiriq.** Xo'jalikda pekin zotli o'rdaklarning o'rtacha tirik vazni 3 kg, bu ko'rsatkich ularning elita guruhlarida 4 kg va shu guruhlardan olingan avlodlarda 3,4 kg. O'rdaklarning tirik vazni bo'yicha irsiyat koeffitsienti aniqlang.



**1-topshiriq.** Podadagi sigirlarning laktatsiyaning 305 kunida bergan sut miqdori 3800 kg. Nasl yadrosiga ajratilganlariga esa bu ko'rsatkich 5100 kgga teng bo'lgan. SHu ko'rsatkichlarga qarab seleksion farqlanish aniqlansin.

**2-topshiriq.** Agarda irsiyat koeffitsienti  $h^2=0,2$  ga teng bo'lsa, taxminiy samaradorligi qancha bo'ladi.

**3-topshiriq.** Naslli guruhdagi tovuqlarning o'rtacha tirik vazni 2,0 kg bo'lgan holda, bir yilda 230 dona tuxum bergan. Tanlashda dastlabki guruhdagi tovuqlarning tirik vazni 1,75 kg, bunda sigma 0,2 kg, samaradorlik 180 dona, sigma 20 dona. Irsiyat koeffitsienti tirik vazn bo'yicha 0,43 bo'lgan holda, samaradorlik bo'yicha 0,27 ga teng. Shu ko'rsatkichlarga qarab tanlash samaradorligi aniqlansin.

**4-topshiriq.** Podadagi sigirlar sutining tarkibidagi yog' ko'rsatkichi 3,78 % bo'lgan holda,  $h^2=0,5$  ga teng. Shu podadan qanday sigirlarni nasl yadrosi uchun tanlasa, ularning ayodlar sutining yog' ko'rsatkichi 3,95% ga teng bo'ladi.

**5-topshiriq.** Otardagi qo'ylarning o'rtacha jun mahsuldorligi 4,0 kg. Naslli guruh uchun ajratilgan qo'chqorlarning o'rtacha jun mahsuldorligi 5,5 kg, qo'chqorlarning qo'ng'ir bo'yidagi mahsuldorligi 4,5 kg. Irsiyat koeffitsienti ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha 0,40; 0,25 bo'lgan holda, shu ko'rsatkichlar bo'yicha tanlash samarasini aniqlang.

**6-topshiriq.** Quyidagi 122-jadvalda qo'lda va sun'iy qochirilgan qo'ylarning ayrim ko'rsatkichlari berilgan shu ma'lumotlar asosida qo'ylarning naslchilik ishidagi roli to'g'risida fikr yuritib, taxminiy tanlash samaradorligini hisoblang.

**122-jadval**

**Qo'lda va sun'iy qochirilgan qo'ylarning mahsuldorligi**

Ko'rsatkichlar	Qo'lda urug'lantirilgan	Sun'iy urug'lantirilgan
Podadagi jami mollar bo'yicha o'rtacha mahsuldorligi, kg	5,2	5,2
Podadagi olingan sovliqlarning o'rtacha jun mahsuldorligi, kg	6,0	5,2 /sovliqlar tanlanmagan/
Podadagi olingan qo'chqorlarning o'rtacha mahsuldorligi, kg	8,0	12,0
Irsiyat koeffitsienti ( $h^2$ )	0,4	0,4

### Mustaqil bajarish uchun vazifalar

1. Naslli yadroga ajratilgan hayvonlarning mahsuldorligini yaxshilashda o'rni, ko'rsatkichi (R) qanday aniqlanadi?
2. Tanlash samarasi deganda nimani tushunasiz? U nimani ifodalaydi va qanday hisoblanadi
3. Irsiyat koeffitsienti qanday hisoblanadi?
4. Irsiyat koeffitsientini aniqlash va undan tanlashda foydalanish bo'yicha aqliy hujum savollari

#### Aqliy hujum

1. Naslchilik ishi deganda nimani tushunasiz?
2. Tanlash nima va uning qanday shakllarini bilasiz?
3. Tanlashning genetik mohiyati nimadan iborat?
4. Seleksion farqlanish qanday aniqlanadi?
5. Irsiyat nima?
6. Tanlash chegarasi yoki seleksion nuqtasi deganda nimani tushunasiz

### QISHLOQ XO'JALIK HAYVONLARINI JUFTLASH

Naslchilik ishining muhim tarmog'idan biri juftlash hisoblanadi. Juftlash bu xo'jalik foydali belgilar va nasl qiymati bo'yicha tanlangan urg'ochi va erkak hayvonlarni o'zaro urchitish yoki maqsadga muvofiq nasl olishdir.

Juftlash tanlash bilan bevosita bog'liqdir, ya'ni bu har ikkala usul bir birin quvvatlaydi va to'ldiradi. Tanlash, juftlashni amalga oshirish uchun faol xizmat qiladi, tanlashsiz urchitish yaxshi natija bermaydi. Juftlash talashning natijasini yanada mustahkamlaydi va uning maqsadini oxiriga etkazadi. Juftlashda erkak hayvon bilan urg'ochi hayvonning o'zaro jinsiy moyilligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Juftlash toza zotli urchitishda (zot ichida juftlash, tizimlararo, tizim ichidagi juftlash, chatishtirishda (zotlararo juftlash) va gibridlashda (turlararo juftlash) qo'llanishi mumkin.

Juftlashning gomogen (bir xil) va geterogen (har xil) tiplari chorvachilik amaliyotida keng qo'llaniladi. Juftlanayotgan hayvonlar o'z belgi, xususiyatlar bilan bir-biriga o'xshashligi, yaqin yoki uzoq bo'lishi mumkin. Juftlash asosan



ning konstitutsiyasi, mahsuldorligi, kelib chiqishi, yoshi, bir xil yoki har ikkala oʻstirilishi hamda oʻzaro qarindoshligi boʻyicha olib boriladi.

Maqsadga muvofiq hayvon tipini olish uchun avvalo geterogen juftlash qoʻllaniladi. Bu yoʻl bilan etarli bosh soniga ega, maqsadga muvofiq tipli hayvonlar olingandan keyin gomogen juftlash qoʻllaniladi. Gomogen juftlash natijasida hosil boʻlgan yangi belgi va xususiyatlarni mustahkamlaydi.

Juftlash rejasini tuzishda, juftlanayotgan erkak hayvon urgʻochi hayvonga qarab oʻz xususiyatlari boʻyicha doimo ustun boʻlishi kerak. Bu olinadigan avlodning yaxshilanishini taʼminlaydi.

Zootexniya amaliyotida shaxsiy va guruhli juftlash shakllari ham qoʻllaniladi. Shaxsiy juftlashda ona hayvon xususiyatlariga mos keladigan erkak hayvon maʼlum bir klassli hayvonlarga (unga mos va boshqalari boʻyicha yuqoriroq klassga ega boʻlgan bir bosh yoki ikki bosh hayvon) juftlanadi.

Koʻpincha zot ichida, zotlararo va turlararo juftlash natijasida olingan hayvonlar geterozis xususiyatiga ega boʻladi. Geterozis xususiyatiga ega boʻlgan hayvonning hayotchanligi va mahsuldorlik xususiyati yuqori boʻladi.

## **Mashgʻulot. HAYVONLARNI NASL-NASAB SHAJARASIGA QARAB JUFTLASH SHAKLLARI BILAN TANISHISH**

**Mashgʻulotning maqsadi.** Ayrim naslli erkak hayvonlarga urgʻochi hayvonlarni (yakka tartibda) yoki ayrim guruh urgʻochi hayvonlarga erkak hayvonlarni juftlashni (guruhli) oʻrganish. Juftlanayotgan hayvonlarning xususiyat belgilariga (eksterer, yoshi, tirik vazni, mahsuldorligi, bolalari sifati) qarab berib, ularning bir-biriga muvofiqligini nasl-nasab shajarasidagi xususiyatlar boʻyicha tahlil qilish.

Juftlashning gomogen va geterogen tiplarini hayvon nasl-nasab shajarasi boʻyicha ajrata bilish.

**Uslubiy qoʻllanmalar.** Juftlash uchun ajratilayotgan hayvonlar maʼlum xususiyat boʻyicha foydali belgilarga ega boʻladi. Bu belgi juftlash uchun asos boʻlib qoʻllaniladi. Nasl-nasab shajarasi hayvonning ajdodlari, ularning mahsuldorlik xususiyat boʻyicha belgisi vanasl xususiyati, boshqacha qilib aytganda kelib chiqishi haqida maʼlumot beradigan muhim hujjat hisoblanadi. Shu sababli nasl-nasab shajarasida yordamida hayvonning genotipi haqida xulosa qilish imkoniyati yaratiladi va juftlash natijasini oldindan faraz qilish mumkin boʻladi.

Nasl-nasab shajarasida yordamida hayvonning qanday juftlash tipi (gomogen, geterogen) qoʻllanishi tufayli olinganligi, juftlangan erkak va urgʻochi hayvonlarning oʻzaro bir-biriga muvofiqligini ham aniqlash mumkin.

**Kerakli materiallar-** ish daftari, tajriba xo'jaligi va boshqa naslchilik xo'jaligidagi hayvonlarni urug'lantirish rejasi va bonitirovka qaydnomasi, bu xil zotlar, davlat naslchilik kitoblari, naslchilik kartochkalari.

**1-topshiriq.** Qora-ola zotli qoramollarning Davlat naslchilik kitobidan kelib chiqishi, bonitirovka klassi bo'yicha yaxshi ko'rsatkichga ega bo'lgan ikki bosh yoki uch bosh naslli buqa tanlanib, ularning har biriga o'sha naslchilik kitobida yozilgan 50-60 bosh sigirlarning asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha juftlash rejasituzilsin. Juftlash rejasida qanday ko'rsatkichlar asos qilib olinganligi haqida qisqacha xulosa qiling.

**2-topshiriq.** Quyidagi jadvallardagi ma'lumotlarga asosan naslli qo'chqorlarga ona qo'ylarni jun qirqimi, jun tig'izligi, uzunligi, va tirik vazni ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda juftlash rejasini tuzing. Juftlash rejasida, ona hayvonlarda uchraydigan kamchiliklar aniq ko'rsatilib, ulardan olinadigan avlodda naslli qo'chqorlar yordamida tuzatilish belgilansin.

123-jadval

**Grozniy zotli naslli qo'chqorlar**  
**(“Chervlenie buruni” naslchilik zavodi DNK SH.t.) tavsifi**  
**(xarakteristikasi)**

DNK bo'yicha raqami	Mahsuldorligi			Bonitirovka ma'lumoti			
	Yoshi	Tirikvazni, kg	Jun og'irligi, kg	Jun tig'izligi, sm	Jun uzunligi, sm	Jun sifati	Umumiy bahosi
146	4	110	24,8	MM	9,0	64	0000-
152	4	110	21,0	MM	9,0	64	00000
153	2	97	20,1	MM	9,5	64	00000
158	3	88	19,7	MM	10,5	64	00000
174	3	90	18,3	MM	9,0	64	00000
245	3	84	19,8	MM	10,0	64	00000
256	3	92	19,6	MM	8,5	64	00000
276	3	98	18,7	MM	10,0	64	00000
284	3	95	20,2	MM	10,0	64	00000
333	3	94	21,0	MM	11,5	64	00000
365	4	100	21,7	MM	9,0	64	0000



115	3	89	27,8	MM	9,0	64	0000
112	3	100	17,8	MM	9,5	64	00000
117	3	106	17,2	MM	9,0	64	00000
119	2	104	17,0	MM	11,0	64	00000
162	3	94	17,0	MM	10,0	64	0000-
175	3	90	17,8	MM	9,5	64	0000-
182	4	91	17,2	MM	9,5	64	00000
167	4	103	17,8	MM	10,0	64	00000

124-jadval

Uzoqiyotli ona qo'ylar xarakteristikasi ("Cheralinie buruni" naslchilik zavodi, DNK, SH.t.) tavsifi (xarakteristikasi)

DNK yilcha nomi	Mahsuldorligi			Bonitirovka ma'lumoti			
	Yoshi	Tirik massasi, kg	Jun qirqimi, kg	Jun tig'izligi, sm	Jun uzunligi, sm	Jun sifati	Umumiy bahosi
1	2	3	4	5	6	7	8
1895	4	52	9,0	M-	10,0	64	0000
1901	3	50	7,3	M-	9,0	64	0000
1914	2	54	11,1	M	9,5	64	0000-
1918	2	55	11,1	MM	9,5	64	0000-
1941	3	57	7,6	MM	11,0	64	00000
1946	2	54	8,5	MM	8,5	64	0000
1948	2	50	10,9	MM	9,0	64	0000
1957	2	52	11,8	M-	9,5	64	0000
1962	2	50	6,9	M	10,0	64	0000-
1975	2	50	10,3	M	8,5	64	0000
1983	2	52	6,9	M-	10,0	64	0000
1993	4	54	7,0	MM	9,0	64	0000-
1941	2	50	8,1	M	8,5	64	0000-
1959	4	57	12,1	MM	8,5	64	00000
1964	4	50	11,3	MM	11,0	64	0000-
1995	4	54	8,6	MM	8,5	64	0000-
1996	4	50	7,5	M	9,0	64	0000
1101	3	57	10,1	M-	9,0	64	0000

2104	4	60	10,2	M-	8,0	64	0000
2141	4	54	7,3	MM	9,5	64	0000
2144	4	52	9,0	M-	8,0	64	0000
2151	2	58	9,9	M	8,0	64	0000
2160	4	51	9,7	M	11,0	64	0000
2167	2	51	9,3	M	10,5	64	0000
2180	2	55	8,1	M	8,0	64	0000
2185	4	66	9,3	M	11,0	64	0000
2194	2	50	8,9	MM	8,0	64	0000
2213	2	58	7,6	MM	8,5	64	0000
3780	2	54	8,8	MM	12,0	64	0000
2500	3	61	10,7	MM	11,0	64	0000
2502	4	54	7,7	MM	12,0	64	00000
2510	3	59	10,1	MM	8,5	64	0000
2521	3	68	12,5	MM	9,0	64	0000
2537	3	74	11,8	MM	10,0	64	0000
2550	2	50	10,7	MM	8,0	64	0000
2585	2	54	6,9	MM	10,0	64	0000
2593	3	54	10,1	MM	11,0	64	00000
2611	2	50	7,7	MM	10,5	64	00000
2619	2	50	6,9	MM	9,0	64	0000
2622	3	60	11,0	MM	9,0	64	00000
2627	2	50	8,2	MM	12,0	64	00000

**3-topshiriq.** 124-125-jadvallar ma'lumotiga ko'ra qanday juftlash shakli qo'llanilganligini aniqlang va natijasi haqida xulosa qiling.

125-jadval

**Qorako'l qo'ylarni barra tiplari bo'yicha juftlash  
(M.Zokirov va boshqalar ma'lumoti)**

Juftlash shakli (ota x ona)	Hisobga olingan qo'zilar soni, bosh	Olingan qo'zilarining barra tiplari			
		Jaket	Kavkaz	Qovurg'asimon	Yassi
Jaket x jaket	766	62,8	18,7	16,2	2,8
Kavkaz x kavkaz	247	42,9	45,3	11,8	x
Qovurg'asimon x qovurg'asimon	336	38,1	11,6	46,1	4,2
Yassi x yassi	210	37,2	x	9,5	53,3



Qo'ylarni barra tiplari bo'yicha juftlash natijasi  
(M.Zokirov va boshqalar ma'lumoti)

Juftlash shakli (ota x ona)	Hisobga olingan qo'zilar soni, bosh	Olingan qo'zilarning barra tiplari			
		jaket	kavkaz	qovurg'asimon	yassi
qovurg'asimon	603	45,8	17,6	32,1	4,5
kavkaz x jaket	80	53,7	30,0	16,3	-
kavkaz x qovurg'asimon	157	42,6	32,5	24,9	-
qovurg'asimon x Jaket	50	54,0	24,0	22,0	-
qovurg'asimon x jaket	360	44,7	-	12,5	42,8
qovurg'asimon x kavkaz	178	53,4	17,4	10,1	19,1
qovurg'asimon x qovurg'asimon	359	23,1	9,1	9,1	28,2

4-topshiriq. Har xil juftlashlardan olingan qorako'l qo'zilarining tirik vazni berilgan. Shularga ko'ra qaysi juftlashlar yaxshi natija berganligini aniqlang (127-jadval)

Har xil juftlash natijasida olingan qorako'l qo'zilarining tug'ilgan vazni, kg (S.E.Shaptakov, T.B. Chexirinadze, J.YA.Jo'raev)

Saralash tiplari	Bir tug'imda olingan qo'zilar soni		
	1 bosh	2 bosh	3 va 4 bosh
Jaket x jaket	3,75±0,06	3,06±0,28	2,23±0,15
Jaket x qovurg'asimon	3,68±0,24	2,96±0,25	1,62±0,13
Jaket x kavkaz	3,70±0,15	3,10±0,25	2,52±0,21
Qovurg'asimon x qovurg'asimon	3,50±0,21	2,80±0,11	2,20±0,21
Qovurg'asimon x kavkaz	3,60±0,23	3,30±0,17	2,20±0,13

5-topshiriq. T-sxemasidan foydalanib qorako'l qo'zilarining juftlash natijasini aniqlang hamda juftlashni ijobiy va salbiy tomonlari haqida xulosa chiqaring. Jadvalni to'ldiring.

Juftlash shakllari	Afzalliklari	Kamchiliklari
Jaket x jaket		
Jaket x qovurg'asimon		
Yassi x jaket		
Qovurg'asimon x kavkaz		
Yassi x kavkaz		
Kavkaz x kavkaz		

## 23-mashg'ulot. GOMOZIGOTLILIK YOKI INBRIDING KOEFFITSIENTINI ANIQLASH

**Darsning maqsadi.** Nasl-nasab shajarasini tahlil qilish natijasida ushbu qayd etilgan hayvonlarning qarindoshligini (Shaporuj bo'yicha), olingan avlodning kelib chiqishida qo'llanilgan qarindoshlik darajasini (Push bo'yicha) aniqlashni o'rganish

**Kerakli materiallar.** Ish daftari har xil turdagi hayvonlar nasl-nasab shajarasi, davlat naslchilik kitoblari.

### Qarindoshlik juftlash darajasini aniqlash (A.Shaporuj va S.Rayt bo'yicha) mavzusidagi laboratoriya ishining PASPORTI

**Mashg'ulotning maqsadi:** Nasl-nasab shajarasini tahlil qilish natijasida undagi hayvonlarning qarindoshligi, olingan avlodning kelib chiqishida qo'llaniladigan qarindoshlik darajasini aniqlashni o'rganish

**Kerakli jihozlar:** Ish daftari, har xil turdagi hayvonlar nasl-nasab shajarasi, qochirish rejasi va banitirovka varaqasi, davlat naslchilik kitoblari, naslchilik kartochkalari.

**Uslubiy ko'rsatmalar:** O'zaro qarindosh hayvonlarni juftlashda qarindoshlik juftlash (inbriding) deb aytiladi. qarindoshlik juftlash bir, ikki va ko'p umumiy ajdodli bo'lishi mumkin. Bir umumiy ajdodli qarindosh urchitishga oddiy, ikki va undan ortiq umumiy ajdodlisiga murakkab yoki kompleksli inbriding deyiladi.

Nasl-nasab shajarasi bo'yicha juftlanayotgan erkak va urg'och hayvonlarning o'zaro qarindosh yoki qarindosh emasligini aniqlash.

**Uslubiy qo'llanmalar.** Nasl-nasab shajarasi hayvonning ajdodlari haqida ma'lumot beradi. Nasl-nasab shajarasini tahlil qilishda bir xil laqabli (bitta hayvon) hayvon ham ona ham ota tomonidan takrorlanish kuzatiladi. Bu esa probanda ota va onasining umumiy ajdodi bo'lib, ularning o'zaro qarindosh hayvonlar ekanligidan dalolat beradi.



Qarindosh hayvonlarni o'zaro juftlashga qarindoshlik juftlash (inbriding) atiladi. Qarindoshlik juftlash bir, ikki va ko'p umumiy ajdodli bo'lishi bo'ladi. Bir umumiy ajdodli qarindosh urchitishiga oddiy, ikki va undan ortiq umumiy ajdodlisiga murakkab yoki kompleksli inbriding deyiladi.

Nasl-nasab shajarasi bo'yicha juftlanayotgan erkak va urg'ochi hayvonlarning o'zaro qarindosh yoki qarindosh emasligini aniqlash ancha oson bo'ladi.

Nasl-nasab shajarasida takrorlanuvchi umumiy ajdodni topishni qisqartirish uchun, uning laqabi yoniga bir xil belgilar ( $\Delta$ ,  $\square$ , va h.k.) qo'yiladi yoki bir xil rangdagi rangli qalam bilan chiziladi.

Chorva mollarini urchitishda biologik oqibati mutloq turlicha bo'lgan qarindoshlik juftlash darajasi uchraydi. Masalan, ona x o'g'il; qiz x ota; singil x boba; boba x nevara; nevara x bobo va h.k., kabi qarindoshlar bunga misol bo'ladi.

Qarindoshlik juftlashni sistemaga solish va nasl-nasab shajarasida topishni qisqartirish uchun nemis olimi A.Shaporuj 1909 yilda inbridingni hisobga olib quyidagi usullarini taklif qilgan.

a) ota-ona qatoridan boshlab, probanda barcha ajdodlari qatorini rim raqami bo'yicha tartib borish tartibida yozish, (ya'ni 1- qator ona-otasi, 2-qator momo-otasi va h.k.).

b) qarindoshlik urchitishini yozishda takrorlanuvchi ajdodlar joylashgan qatorlari tartib raqamini yozish, II-III; I-III; II-II va h.k.

Bundan birinchi raqam nasl-nasab shajarasining ona tomonida, ikkinchi raqam ota tomonidan uchragan umumiy ajdodning joylashgan qatorini ko'rsatadi.

Masalan: og'ish II-III ko'rinishda bo'lsa, probandani umumiy ajdodi nasl-nasab shajarasining ona tomonidagi 2- qatorda, ota tomonidagi 3-qatorda joylashganligini ko'rsatadi.

Agar nasl-nasab shajarasida umumiy ajdod ham ona, ham ota tomonida bir necha marta takror uchrasa, qarindoshlik darajasi quyidagicha III, III-IV, III-III qatorlari yoziladi. Bundan umumiy ajdod tomonida 2 marta uchinchi qatorda, ota tomonida 4 va 5 qatorlarda uchraydi degan ma'noni beradi.

Yuqoridagi sistemaga asosan qarindosh juftlash darajasini Push quyidagi 4 qator bo'lgan:

1. Juda yaqin qarindoshlik yoki qondoshlik. Bunda umumiy ajdod nasl-nasab shajarasida quyidagi qatorlarda uchraydi I-II; II-I; II-II. Bunga "Sibs" deb ham atiladi.

2. Yaqin qarindoshlik. Bunda umumiy ajdod nasl-nasab shajarasining III-II; III-III qatorlarida joylashgan bo'ladi. Bunga "Yarim sibs" deb ham aytiladi.

3. Chamali yoki o'rtacha qarindoshlik. Bunda umumiy ajdod shajaraning III-IV; IV; IV-IV qatorlarda joylashadi.

4. Uzoq qarindoshlikda umumiy ajdod shajaraning I-IV; V-V; V-VI va undan keyingi qatorlarida joylashgan bo'лади.

### Blednaya (kostroma zoti)

Bolshaya				Dobriy			
Bogataya		Bogatir Δ		Dochka		Bogatir Δ	
Belyana □	Fat	Bel yana □	Skitalets	Sximnitsa	Artur	Belyana □	Skitalets

Blednaya sigirning nasl-nasab shajarasida 2 ta umumiy ajdod ko'zga tashlanadi. Birinchi umumiy ajdod Bogatir laqabli erkak hayvon bo'lib, u shajaraning 2-qatorida (II-II) joylashgan va bu juda yaqin qarindoshlikni ko'rsatadi.

Ikkinchi umumiy ajdod Belyana laqabli urg'ochi hayvon bo'lib, u nasl-nasab shajarasining 3-qatorida (III-III) joylashgan va chamali qarindoshlik uchitishi darajasiga misol bo'la oladi.

**1-topshiriq.** Qarindoshlik juftlashning turli darajasiga oid bir necha nasl-nasab shajarasini tuzing.

**2-topshiriq.** 128-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, inbriding va autbriding yo'li bilan olingan urg'ochi buzoqlar yoshining ortishi bilan tirik massani o'rtasidagi farqning o'zgarishini aniqlang.

Inbriding buzoqlarning autbriding buzoqlarga nisbatan (har bir ko'rsatilgan yoshda) tirik vaznining qanchalik orqada qolishini foiz miqdorida ifodalang va xulosa qiling.

128-jadval

### Inbred va autbred buzoqlarining yoshiga qarab tirik vaznining o'zgarishi (N.P.Bichkov)

Qarindoshlik darajasi	Bosh soni	Tirik massaning o'zgarishi, kg				
		Tug'il ganda	6- oylikda	12- oylikda	18- oylikda	urug'lantirish vaqtida (davrida)
Inbriding: Qondoshlik va yaqin qarindoshlik	67	34	177	297	426	455
Chamali qarindoshlik	26	34	181	305	442	472
Autbriding	40	36	188	307	436	467

**3-topshiriq.** Quyidagi ma'lumotlarga ko'ra qarindoshlik juftlashning zararli ta'siri (inbred depressiya) o'rganilib, xulosa qilinsin (129-jadval).



129-jadval

Qora-ola zotli qoramollarni qarindoshlik juftlashda bola tashlash va o'lik buzoqlar tug'ilishi ko'rsatkichlari

Qarindoshlik darajasi	Normal tug'imlar soni	O'lik tug'ilishi, %	Bola tashlash midori, %	Shu jumladan har xil yoshdagi sigirlardan, %			
				Bola tashlash	o'lik tug'ilishi	Bola tashlash	o'lik tug'ilishi
Autbriding:							
Yaqin	184	1,08	x	x	0,54	x	0,54
O'rtacha	338	3,55	2,36	1,18	1,47	1,18	2,08
Inbriding	838	3,34	0,71	0,35	2,50	0,35	0,83

**4-topshiriq.** Davlat naslchilik kitobidan foydalanib, har xil zotli qoramollarning qarindosh urchitish yo'li bilan olingan nasl-nasab shajarasidagi qoramollarga asosan qarindoshlik darajasini aniqlang.

**5-topshiriq.** Qora-ola zotli autbriding va inbriding yo'li bilan olingan qoramollarning sut mahsuloti ko'rsatkichlari bo'yicha o'zaro taqqoslang (130-jadval). Barcha ko'rsatkichlarni autbriding sigirlarnikiga nisbatan mutloq va nisbat miqdorida chiqaring.

130-jadval

Qora-ola zotli inbred va autbrid sigirlarning sut mahsuloti (N.P.Bichkov)

Gug'um soni	Ko'rsatkichlar	Inbriding darajasi		
		Qarindoshlik va yaqin qarindoshlik	Chamali qarindoshlik	Autbriding
1-inchi	Sigirlar bosh soni	67	26	40
	305 kunlik sog'im, kg	4400	4722	4539
	Sutning yog'liligi, %	3,51	3,52	3,54
	Umumiy yog' chiqimi, kg	154	166	161
2-inchi	Sigirlar bosh soni	67	26	40
	305 kunlik sog'im, kg	5342	5545	5432
	Sutning yog'liligi	3,54	3,46	3,52
	Umumiy yog' chiqimi, kg	190	192	191
3-inchi va undan ko'p	Sigirlar bosh soni	67	26	40
	305 kunlik sog'im, kg	5785	7215	6566
	Sutning yog'liligi, %	3,57	3,51	3,60
	Umumiy yog' chiqimi, kg	207	253	233

Insert texnikasidan foydalanib, gomozigotlilik yoki inbriding koeffitsientini aniqlash bo'yicha o'z fikringizni ifodalang.

### Matnni belgilash tizmi

(V) – men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) - yangi ma'lumot

(-) – men bilgan narsaga zid

(-) – meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur

Mavzu savollari	V	+	-	?
Inbriding deb nimaga aytiladi				
Autbriding deb nimaga aytiladi				
Juda yaqin qarindoshlik yoki qondoshlik. Bunda umumiy ajdod nasl-nasab shajarasining qaysi qatorlarda uchraydi				
Yaqin qarindoshlik. Bunda umumiy ajdod nasl-nasab shajarasining qaysi qatorlarda uchraydi				
Chamali yoki o'rtacha qarindoshlik. Bunda umumiy ajdod shajaraning qaysi qatorlarda joylashadi				
Uzoq qarindoshlikda umumiy ajdod shajaraning qatorlarida qatorlarida joylashgan bo'ladi				

## 24-mashg'ulot. GOMOZIGOTLIKNING OSHISH KOEFFITSIENTINI ANIQLASH

**Darsning maqsadi.** S.Rayt taklif qilgan formula yordamida gorozigotlikning oshish koeffitsientini hisoblab chiqarish va genetik o'zgarishni tahlil qilish.

**Uslubiy qo'llanmalar.** Shaporuj va Push usuli bo'yicha qarindoshlik urchitish darajasini hisobga olish usuli oddiy, qulay va ko'rgazmali hisoblanadi. Ammo bu usul qarindoshlik darajasining miqdoriy ulushi haqida ma'lumot bera olmaydi.

Ma'lumki, qarindoshlik urchitish bir necha genlarning bir organizmida gomozigotlilikini oshiradi. Shunga asoslangan holda amerikalik olim S.Rayt 1921 yilda qarindoshlik urchitish darajasini, inbriding koeffitsientini aniqlash yo'li bilan hisoblashni taklif qilgan. U gomozigotlilikning oshishi koeffitsientini quyidagi formula yordamida aniqlashni taklif qilgan.



$$F = \sum \left[ \left(\frac{1}{2}\right)^{n+n_1-1} + (1+fa) \right]$$

Bu formula matematik va biologik qonuniyatlarga asoslangan. Matematik qonuniyatlar ehtimollar nazariyasiga va biologik qonuniyatlar esa hujayrani bo'linishida (reduksion) gametadagi xromosomalar soni ikki marta kamayishiga (gaploid), otalanishdan keyin zigota genetik materialni yarmini olishdan, yarmini otasidan olishga asoslangan.

Hunda: F - gomozigotlikning oshishi yoki inbriding koeffitsienti;

n - shajaraning ona tomonidagi umumiy ajdodning joylashgan qatori;

n<sub>1</sub> - shajaraning ota tomonidagi umumiy ajdodini joylashgan qatori;

f<sub>a</sub> - umumiy ajdodning inbriding koeffitsienti.

Bu formula bilan gomozigotlikning oshishini bir necha sxematik holda ko'rsatilgan nasl-nasab shajarasi misolida ko'rib chiqamiz.

N

		N	
		A Δ	A Δ

A-hayvonning nasl-nasabi shajarasida takrorlanuvchi umumiy ajdod soni hisoblanadi. U shajaraning ham ona, ham ota tomonida ikkinchi qatorda joylashgan.

Rayt-Kislovskiy formulasiga asosan gomozigotlikning oshishi (inbriding) koeffitsienti quyidagicha topiladi:

$$F = \left(\frac{1}{2}\right)^{2+2-1} = \left(\frac{1}{2}\right)^3 = 0,125 \text{ \% ga yoki } 12,5\% \text{ ga teng}$$

Formulaning ikkinchi  $1 + F_a$  qismi 0 ga aylanadi. Chunki umumiy ajdod  $F_a$  ajdodosh yo'li bilan olinganligi haqida ma'lumot yo'q. Demak, A hayvonning gomozigotiligidan oshish koeffitsienti  $F=12,5 \text{ \% ga teng bo'ladi}$ .

Agar hayvonning nasl-nasabi shajarasi quyidagi ko'rinishda, ya'ni umumiy ajdod 2 ta bo'lsa, inbriding koeffitsienti har bir ajdodga alohida hisoblanib, ular yig'indisi topiladi.

V

		AΔ		AΔ	
(A)				CΔ	

$$1) \left(\frac{1}{2}\right)^{2+2-1} = \left(\frac{1}{2}\right)^3 = 0,125$$

$$2) \left(\frac{1}{2}\right)^{3+3-1} = \left(\frac{1}{2}\right)^5 = 0,03125$$

$$F = 0,125 + 0,03125 = 0,15625 \text{ yoki } 15,62\%$$

Inbriding koeffitsientini aniqlashda  $1/2$  ning har xil darajasini aniqlash uchun quyidagi ma'lumotlardan foydalanish lozim.

$$\left(\frac{1}{2}\right)^1 = 0,5$$

$$\left(\frac{1}{2}\right)^2 = 0,25$$

$$\left(\frac{1}{2}\right)^3 = 0,125$$

$$\left(\frac{1}{2}\right)^4 = 0,625$$

$$\left(\frac{1}{2}\right)^5 = 0,03125$$

$$\left(\frac{1}{2}\right)^6 = 0,015625$$

$$\left(\frac{1}{2}\right)^7 = 0,078125$$

$$\left(\frac{1}{2}\right)^8 = 0,0390625$$

$$\left(\frac{1}{2}\right)^9 = 0,001953125$$

$$\left(\frac{1}{2}\right)^{10} = 0,00048828125$$

$$\left(\frac{1}{2}\right)^{11} = 0,000244140625$$

$$\left(\frac{1}{2}\right)^{12} = 0,000244140625$$

Agar nasl-nasab shajarasida bitta umumiy ajdod ona va ota tomonidan bir necha marta takror uchrasa,  $\left(\frac{1}{2}\right)^{n-n_1-1}$  darajasi har biriga necha bor takrorlansa, ushancha marta ishlanib, umumiy yig'indisi topiladi (A hayvonning nasl-nasab shajarasiga qarang).

A

S

S

S

S

Hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi:

1) II – III qator uchun  $\left(\frac{1}{2}\right)^{2+3-1} = \left(\frac{1}{2}\right)^4 = 0,0625$

2) II – IV qator uchun  $\left(\frac{1}{2}\right)^{2+4-1} = \left(\frac{1}{2}\right)^5 = 0,03125$



3) IV - III qator uchun  $(\frac{1}{2})^{4+3-1} = (\frac{1}{2})^6 = 0,015625$

4) IV-IV qator uchun  $(\frac{1}{2})^{4+4-1} = (\frac{1}{2})^7 = 0,0078125$

$F=0,0625-0,03115-0,015625-0,078-125=0,1172$  yoki 11,72 %

**Kerakli materiallar.** Ish daftari, inbriding yo'li bilan olingan hayvonlar nasab shajarasi, davlat naslchilik kitoblari.

**1-topshiriq.** Umumiy ajdodlar quyidagi qatorlarda joylashgan hayvonlarning nasl-nasab shajarasini tuzing:

a) ona tomonida I, ota tomonida III;

b) ona tomonida II va ota tomonida III qatorda;

v) ona tomonida III va IV, ota tomonida IV va IV qatorlarda;

**2-topshiriq.** Agar gomozigotlik oshish darajasini koeffitsienti 3-5, 10-15 va 20-30% bo'lishi uchun umumiy ajdodlar shajarasining qaysi qatorlarida oshishini aniqlang va sxematik holda ifodalang.

**3-topshiriq.** Arab zotiga mansub Rixsalina va Risalma laqabli hayvonlarning nasl-nasab shajarasini tahlil qilib, Rayt-Kislovskiy formulasi yordamida inbriding koeffitsientini aniqlang. Qo'llanilgan juftlash shakli haqida tushuntirib qiling.

## CHORVA MOLLARINI URCHITISH USULLARI

Urchitish usullari deb, ma'lum zootexnikaviy vazifani bajarish maqsadida hayvonlarni turiga, zotiga va tizimiga qarab juftlash sistemasiga aytiladi.

Urg'ochi va erkak hayvonlarni o'zaro juftlash ularning genotipik va fenotipik jihatidan o'xshashligiga yoki farqiga qarab olib boriladi yoki bunda hayvonlarning qaysi turga, zotga va tizimlarga mansub ekanligi hisobga olinadi.

Naslchilik ishida xilma-xil vazifalarni bajarish uchun har xil urchitish usullaridan foydalaniladi. Bular: sof zotli urchitish, chatishtirish va qora-ola juftlashdir. Ba'zi olimlar tizimli urchitish usulini alohida usul sifatida urchitishni taklif qilganlar.

Sof zotli urchitishda bir zotga mansub erkak va urg'ochi hayvonlar o'zaro juftlanib ulardan nasl olinadi. Tug'ilgan avlodlar shu zot bo'yicha sof zotli deb hisoblanadi. Masalan, qora-ola zotli sigir shu zotga mansub buqa bilan juftlansa yoki qorako'l sovlig'i shu zotni qo'chqori bilan juftlansa, sof zotli urchitish deyiladi.

Hayvonlarning sof zotliliigi naslchilik hujjatlariga qarab aniqlanadi.

Chatishtirishda bir turga kiruvchi har xil zotga mansub bo'lgan urg'ochi va erkak hayvonlar o'zaro juftlanadi. Ulardan olingan avlodlar birinchi bo'g'in ( $F_1$ ), ikkinchi bo'g'in ( $F_2$ ), chatishma hayvonlar deyiladi. Masalan, qizil cho'l zotli sigir qora-ola zotli buqa bilan, jaydari sovlig qorako'l qo'chqori bilan juftlansa, bunga chatishtirish deyiladi.

Duragaylashdaha xil turlarga mansub bo'lgan urg'ochi va erkak hayvonlar o'zaro juftlanadi va ulardan olingan avlodlarga duragay yoki gibridlar deyiladi. Masalan, qoramollarni zebu bilan, ot bilan eshak va qorako'l qo'y, yovvoyi qo'y – arxar bilan juftlansa, duragaylash bo'ladi.

Tizimli urchitishda juftlanayotgan urg'ochi va erkak hayvonlarning qayta tizimlarga mansubligi hisobga olinadi.

Yuqoridagi usullar bir-birovi bilan o'zaro bog'liq bo'lib, chorvachilikning xilma-xil tarmoqlarida doimiy ravishda qo'llaniladi.

Yangi hayvon zotlarini yaratish ko'pincha chatishtirish va duragaylash yordamida amalga oshirilsa, mavjud zotlarni genofondini mustahkamlash va yanada takomillashtirish sof zotli urchitish usuli yordamida amalga oshiriladi.

### **SOF ZOTLI URCHITISH**

Sof zotli urchitishning asosiy maqsadi mavjud zavod zotlarini saqlab qolish va yanada takomillashtirishdan iborat. Bu urchitish yordamida mashhur zotlar, yuqori naslli podalar va eng yuqori mahsuldorli rekordchi hayvonlar yaratiladi. Bu usul yuqori naslli podalar yaratishni asosiy usuli bo'lib hisoblanadi.

Sof zotli urchitish usulini o'rganishda asosiy e'tibor zotning tuzilishini va podalarning tarkibini tahlil qilishga qaratilishi lozim. Zot bir xil naslli hayvonlardan iborat bo'lmasdan, uning tarkibida kishilarning mehnati bilan yaratilgan har xil genotipdagi hayvonlar mavjud. Har xil zot orasida bir-biridan nasl sifati bilan ajralib turadigan hayvonlar guruhlari – tizimlar, oilalar, naslli podalar bo'ladi. Bunday guruhlarning bo'lishi zotning taraqqiyoti uchun muhim hisoblanadi.

Naslchilik ishida zotning asosiy tarkibiy qismlari bo'lgan tizimlar, oilalar va naslli podalarning tarkibini o'rganish va ularda olib borilgan naslchilik ishini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Zavod zotlarining eng muhim tarkibiy qismlariga zavod tizimlari va oilalari kiradi. Tizim va oilalar, zotning bir qismi bo'lishiga qaramasdan o'zlarini ayrim xususiyatlari, genetik tuzilishi, naslchilik ishining olib borilishi bilan ajralib turadilar. Ular ma'lum tabiiy va xo'jalik sharoitida maqsadga muvofiq ravishda yo'naltirilgan naslchilik ishi yordamida yaratiladi.



## 25-mashg'ulot. ZAVOD TIZIMI TARKIBINI TUZISH VA UNING TAHLILI

**Mashg'ulotning maqsadi.** Talabalarni zavod tizimlarining tuzilishi bilan tanishtirish, tizim tuzish va ularni tahlil qilish usullarini bilish.

**Uslubiy qo'llanmalar.** Zot ichidagi tizimlar tanlash va juftlash usulida yaratiladi va takomillashtirib boriladi. Zootexniyada ikki xil: zavod tizimiga va zavod tizimi mavjud.

**Geneologik tizim** – bir mashhur erkak hayvonning uch-to'rt bo'g'ida mavjud bo'lgan barcha avlodlarini ularning sifatidan qat'i nazar o'z ichiga oladi.

**Zavod tizim** - mashhur naslli erkak hayvonning xususiyatini davom ettirgan, yuqori nasl va xo'jalik sifatiga ega bo'lgan avlodlar gruppasini o'z ichiga oladi. Tizimlar erkak avlodlar, ya'ni o'g'illar tomonidan davom ettiriladi.

Chorvachilik zavod tizimlari bilan ishlash muhim ahamiyatga ega. Zavod tizimni sxemasini tuzilishini yilqichilikdan olingan misolda ko'rib chiqamiz. Zavod tizimni yo'rtoqi ot zotidagi 1984 yilda tug'ilgan mashhur Varshik laqabli otning avlodlarining tizimini (rekord 2.18.2) quyidagi ma'lumotlarga ko'ra tuzib chiqamiz:

1. Akrobat, 1943, 2,07,4, Debyutdan.
2. Barchuk, 1912, 2.12, Barin-Molodoydan.
3. Boevoy Poryadok, 1926, 2.17,3, Barin-Molodoydan.
4. Barin molodoy, 1903, 2.14,3, Varmikdan.
5. Vostok, 1942, Donetsdan.
6. Variant, 1932, 3.25 /2400 m./, Rekorddan.
7. Vandal, 1936, 2.13,1, Mestislavdan.
8. Velyult, 1930, 2.10,3, Barchukdan.
9. Voin, 1934, 2.16.4, Veterokdan.
10. Velechaviy, 1912, 2,22,6, Oreldan.
11. Veterok, 1915, 2.16, Viydan.
12. Vit, 1990, 2.16,3, Varmikdan.
13. Vagram, 1913, 2,18, Varmikdan.
14. Debyut, 1935, 2.11, Desantden.
15. Donets, 1936, 2,13,7, Metislavdan.
16. Dodir, 1926, 2.20, Barchukdan.  
1926, 2,13,2, Veterokdan.
18. Dozor, 1928, 2.43,4, Vagramdan.
19. Enoy, 1934, 2,25,1, Rigolettodan.
20. Izmennik, 1931, 2,43, Vagramdan.
21. Koster, 1936, 2, 13, Desantdan.
22. Karnaval, 1929, 2, 13, 4, Veterokdan.
23. Koldun, 1929, 2.10, 4, Veterokdan.

- 24.Klever, 1933, 2.42, Boevoy Poryadokdan.
- 25.Lednik, 1939, Moxdan.
- 26.Mirgorodsk, 1939, Talantliydan.
- 27.Mramor, 1939, Moxdan.
- 28.Madrid, 1937, Moxdan.
- 29.Mox, 1929, 2.06, 1, Barchukdan.
- 30.Metislav, 1928, 2.13, 6, Veterokdan.
- 31.Ogonsk, 1942, 2. 45, Donetsdan.
- 32.Orel, 1903, 2.20,1, Varmikdan.
- 33.Parus, 1938, Talantlivitdan.
- 34.Prostor, 1932, Boevoy Poryadokdan.
- 35.Robert, 1929, 2,45,3 Ryabinnikdan.
- 36.Rubin, 1936, 2,08,5, Koldundan.
- 37.Ryabinnik, 1921, 2.28,4, Reumdan.
- 38.Rigoletta, 1922, 2.20, Reumdan.
- 39.Rekord, 1923, 2.16,1, Reumdan.
- 40.Ratmir, 1928, 2. 10,6, Veterokdan.
- 41.Reum, 1913, 2.13,7. Barin Molodoydan.
- 42.Svet, 1930, 2.24,2, Rekorddan.
- 43.Otrelets, 1934, Boevoy Poryadokdan.
- 44.tanlantliy, 1932, 2,03,4, Dodirdan.
- 45.CHeK, 1936, 2.14, 6, Kaldundan.

Izoh: ayg'irning laqabidan keyin, tug'ilgan yili, 1600 m masofani bosib o'tgan vaqti: daqiqa, soniya va soniyani bo'laklari (8 dan bir qismi) ko'rsatiladi.

Yuqoridagi ro'yxatda bir tizimga kiruvchi hayvonlarning laqabi, tug'ilgan yili, sinovlarda aniqlangan tezligi va otasining laqabi yozilgan. Ro'yxatni o'rganish yordamida tizim boshlig'ining o'g'illari, nevaralari, chevaralari va evaralarini aniqlash mumkin. Bu misolda tizim boshlig'i 1984 yilda tug'ilgan ayg'ir Varmik bo'lib, dastlab ro'yxatda uning barcha o'g'illari aniqlanadi. Masalan, Vit, Vagram, Barin Molodoy va Oryol uning o'g'illaridir. So'ngra, Varmikning nevaralari ya'ni o'g'illarining o'g'illari aniqlanadi. Masalan, Veterok Vitning, Barchuk Barin Molodoyning o'g'li va h.k. Keyinchalik Varlikning chevaralari, ya'ni nevaralarining o'g'illari aniqlanadi. Masalan, Desant Veterokning, Mox Barchukning o'g'li bo'lib, Varmikning chevarasidir.

Xuddi shunday qilib Varmikning evaralari, ya'ni chevaralarining o'g'illari aniqlanadi. Masalan, Lramor Moxning o'g'li bo'lib Varmikning evarasidir va h.k.

So'ngra tizim sxemasini tuzish uchun varaqaning chap qismi o'rtasida tizim boshlig'i Varmik va uning ko'rsatkichlari yoziladi. Keyinchalik qavs ochilib, vertikal qatorlarda tartib bilan uning o'g'illari va ularning



rsatkichlari yoziladi. Masalan, Viy, Barin Molodoy, Orel, Vagram. So'ngra vertikal qatorlarda qavs ochilib, o'g'illarining o'g'illari, ya'ni Varmikning avalari yoziladi. Masalan, Veterok Viyning o'g'li, Barchuk, Boevoy adok, Reum Barin Molodoyning o'g'li va h.k. Xuddi shu tartibda keyingi larida chevra va evaralar yozilib, tizim sxemasi shakllantiriladi (Varmik ni sxemasi).

Tizim sxemasini o'rganish yordamida tizim boshlig'ining davomchilari, uning ko'rsatkichlarini avloddan-avlodga o'tkazayotgan asosiy o'g'illari, alari va evaralari aniqlanadi. Masalan, Varmik tizimining davomchilariga Veterok, Desant, Debyut va boshqalar kiradi.

Tizim sxemasini tuzish uchun davlat naslchilik kitobi va naslchilik avlaridagi nasl-nasab shajaralaridan foydalaniladi. Nasl-nasab shajaralarini anish yordamida tizim kelib chiqishida qarindoshlik juftlash qo'llanilgani, xil juftlashlarning natijasi, tizimni davom ettiruvchi hayvonlar, tizim onlari ko'rsatkichlarining avloddan-avlodga o'tishi bilan o'zgarib borishi boshqalarni aniqlash mumkin.

**Kerakli materiallar:** Ish daftari, davlat naslchilik kitoblari, har xil larga mansub tizim hayvonlarning kartochkalari, suratlari.

**1-topshiriq.** Quyidagi ma'lumotlarga ko'ra qizil cho'l zotidagi Pishniy II raqamli buqasining tizimi tuzilsin.

- 1.Persik 66 Pishniy 1898 dan
- 2.Parad 179 Pishniy 1898 dan
- 3.Prombir 449 Persik 66 dan
- 4.Pion 1745 Persik 66 dan
- 5.Pompey 49 Peleng 819 dan
- 6.Pingvin 1449 Persik 66 dan
- 7.Pestik 497 Peleng 819 dan
- 8.Priz 1214 Porod 179 dan
- 9.Priboy 132 Pishniy 1898 dan
- 10.Provorniy 817 Primoy 105 dan
- 11.Prolog 301 Pishniy 1898 dan
- 12.Privolniy 1005 Primat 105 dan
- 13.Prus 656 Pansir 70 dan.
- 14.Pluton 100 Psheni 1898 dan
- 15.Punsh 722 Pansir 70 dan
- 16.Parol 184 Pishniy 1898 dan
- 17.Erik 8109 Petron 189 dan
- 18.Parket 203 Peleng 819 dan
- 19.Polevoy 1623 Pishniy 1898 dan
- 20.Buyniy 5809 Patron 189 dan

21. Gingvin 1449 Persik 66 dan
22. Polyus 1609 Pishniy 1898 dan.
23. Evrik 8121 patron 189 dan
24. Pechor 180 Peleng 819 dan
25. Predlog 943 Pishniy 1898 dan
26. Prasol 1351 Prokat 429 dan
27. Peton 1934 Peleng 819 dan
28. Prokat 429 Pishniy 1898 dan
29. Aktivniy 5783 Patron 189 dan
30. Pegas 631 Pishniy 1898 dan

**2-topshiriq.** Quyidagilarga ko'ra simmental zotidagi Gans 7108 nashri buqasining tizimi tuzilsin.

1. Bens 11916 Florman 9307 dan
2. Bruno 11558 Florman 9307 dan
3. Bismark 15618 Maks 13937 dan
4. Viktor 13972 Frans 11525 dan
5. Viktor 15670 Gans 13993 dan
6. Viktor 15558 Frans 13579 dan
7. Gansli 11933 YUmus 9759 dan
8. Gans 13576 Lord 11507 dan
9. Gans 13993 Bens 11916 dan
10. Gansli 15725 Gans 13993 dan
11. Gektar 11633 Florman 9307 dan
12. Gektar 15653 Viktor 13972 dan
13. Kobi 15681 Gans 13576 dan
14. Kurt 61 Xeld 14582 dan
15. Lord 11507 Florman 9307 dan
16. Pord 15719 Relf 13595 dan
17. Maks 13587 Frans 11525 dan
18. Maks 13581 Lord 11507 dan
19. Maks 13937 Gektar 11533 dan
20. Maks 15870 Maks 13587 dan
21. Maks 15411 Maks 13581 dan
22. Milana 13653 Gektar 11533 dan
23. Milana 15327 Maks 13587 dan
24. Peter 15559 Milana 13653 dan
25. Ralf 13595 Frans 11525 dan
26. Regent 15669 Viktor 13972 dan
27. Sepp 26415 Faust 13400 dan
28. Faust 13400 Florman 9307 dan



9. Florman 9307 Gans 7108 dan
10. Frans 11525 Florman 9307 dan
11. Frand 13579 Lord 11507 dan
12. Frans 15306 Frans 13579 dan
13. YUlius 9759 Gans 7108 dan

3-topshiriq. «Zarafshon» davlat xo'jaligida urchitilayotgan qoramol zotlarining mahsuldorlik ko'rsatkichlari berilgan. Ularni o'zaro taqqoslab olingan. Qilinsin.

### 131-jadval

#### Qora-ola zotning har xil liniyalariga kiruvchi sigirlarning sut mahsulotdorligi (I.I.Golubkin).

Tizimlar	Qizlari ning soni, bosh	Qizlarining mahsuldorligi		Qizlari va onalari mahsuldorligi orasidagi farq	
		305 kunlik sut sog'imi, kg	Sutining yog'lilik darajasi, %	305 kunlik sut sog'imi, kg	Sutining yog'lilik darajasi, %
Indler	55	2469	3,89	-238	-0,12
Indberg	161	2865	3,91	-199	0
Roland	29	2809	4,25	-215	-0,15
Annas	42	3154	3,82	-219	-0,02
Adema					

4-topshiriq. Shvits zotining yangi zavod tizimlarining sut mahsuldorligi berilgan. (132-jadval). Ularni o'zaro solishtirib tahlil qilinsin.

### 132-jadval

#### Shvits zotining yangi zavod tizimlarining sut mahsuldorligi (A.S.Vsyakix)

Tizim boshlig'i	Tizim boshlig'ining onasining mahsuldorligi			Tizim boshlig'i qizlarining mahsuldorligi		
	Lakta siya	305 kunlik sut sog'imi, kg	Sutdagi yog' darajasi, %	Qizlarining soni	305 kunlik sut sog'imi, kg	Sutdagi yog' darajasi, %
Almaz MSH-417	2	6340	4,2	77	4237	3,79
OLK MTSH-442	8	7292	4,1	20	4272	3,82
Boyarin MTSH-359	11	6363	4,6	15	4972	3,85
Knyaz MSH-322	7	6922	3,7	12	5056	3,80

Sektor EKS-11	5	7557	4,4	17	4206	3,81
Azot-Plovets ZSH-1064	1	6650	4,2	16	4968	3,83
Barxat GSH-7	10	4376	4,3	46	3564	3,91
Veer GSH-39	6	4925	4,0	20	3461	3,70
Orliq GSH-34	7	7914	3,91	34	3439	4,01
Bor GSH-65	6	4710	4,5	27	4029	3,93

## 26-mashg'ulot. ZAVOD OILASI SXEMASINI TUZISH VA UNING TAHLILI

**Mashg'ulotning maqsadi.** Zavod oilasi sxemasini tuzish va uni tahlil qilishni o'rganish. Mashhur urg'ochi hayvonlarning podalar, tizimlar va zotlar taraqqiyotiga ta'sirini aniqlash.

**Uslubiy qo'llanmalar.** Naslchilik ishida tizimli urchitish oilali urchitish bilan bog'lab olib boriladi.

Oila deb mashhur urg'ochi hayvonning nasl xususiyatlarini davom ettirayotgan urg'ochi avlodlari guruhiga aytiladi. Oilali urchitish tez ko'payuvchan va asosiy mahsuldorligi urg'ochi jins bilan bog'liq bo'lgan chorvachilikda /qoramolchilik, cho'chqachilik, parrandachilik, quyonchilik/ muhim ahamiyatga egadir. Oilalar ayrim xo'jaliklarda yaratilib, uch-to'rt bo'g'in avlodni o'z ichiga oladi. Ko'pgina zotlarning kelib chiqishida mashhur oilalar muhim o'rin tutgan. Masalan: Xolmogor, YAroslav, Kostroma, SHvits, Simmental qoramol zotlarida, Yirik oq cho'chqa zotida, Rus va Orlov yo'rtog' ot zotlarida va boshqa turdagi hayvonlarda mashhur oilalardan yuqori mahsuldor avlodlar olingan shu jumladan mashhur tizimlarning erkak hayvonlari ham olingan.

Oila ham genealogik va zavod oilasiga bo'linishi mumkin. Genealogik oilaga mashhur urg'ochi hayvonning barcha urg'ochi avlodlari kiritilib, ularning nasl sifati va mahsuldorligi har xil bo'ladi. Zavod oilalari maqsadga muvofiq tanlash va juftlash natijasida yaratilib, ayrim belgi va xususiyatlari bo'yicha o'xshashligi bilan ajralib turadi. Zavod oilasi genealogik oilaning bir qismi hisoblanib, eng yaxshi urg'ochi avlodlarni o'z ichiga oladi.

Oila sxemasini tuzishda ham dastlab mashhur urg'ochi hayvonning ya'ni oila boshlig'ining qizlari, nevaralari, chevaralari va evaralari aniqlanadi va ular doira shaklida ifodalanib, ma'lum tartib bilan joylashtiriladi hamda o'zaro to'g'ri chiziqlar yordamida birlashtiriladi.


Bunda dastlab oila boshlig'i varaqning pastki qismida doira shaklida o'rtada joylashtiriladi. So'ngra undan yuqori birinchi qatorda qizlar, keyinchalik ikkinchi qatorda nevaralari, uchinchi qatorda chevaralari joylashtiriladi va h.k.



Oila sxemasini tuzishni sichev zotidagi «Darya 1» oilasi misolida koʻrib oling. Bu oilaga quyidagi hayvonlar kiradi.

- 1.Ivolga 2013 Darya 11 dan.
- 2.Toreador 3032 Tayna 116 dan.
- 3.Tayna 116 Marusi 285 dan.
- 4.Maruska 809 Lusha 2035 dan.
- 5.Marusya 285 Darya 11 dan.
- 6.Buketka 3328 Maruska 809 dan.
- 7.Marusya 2833 Ivolga 2023 dan.
- 8.Lusha 2035 Darya 11 dan.
- 9.Ratmir 2003 Tayna 116 dan.
- 10.Darya II Darya 1 dan.
- 11.Barometr 3110 Buketka 3328 dan.
- 12.Razmax 2002 Tayna 116 dan.

Bunda Darya 1 ning faqat bitta qizi Darya II boʻlib, uning uchta qizi, Ivolga 2013, Marusya 285 va Lusha 2035 lar tugʻilgan. Bunda oila sxemasi quyidagicha boʻladi. /95-rasm/.



65-rasm. Darya -I oilasining sxemasi

**1-topshiriq.** Quyidagi ma'lumotlarga ko'ra rus yo'rtoqi ot zotidagi Korona laqabli biyaning oilasi tuzilsin.

- 1.Poltavets 1932 yil tug'ilgan, Poltavadan.
- 2.Brigadir 1930 yil tug'ilgan, Braziliyadan.
- 3.Tayga 1920 yil tug'ilgan, Kreolkadan.
- 4.Kuznechik 1932 yil tug'ilgan, Kalabriyadan.
- 5.Talantliviy 1932 yil tug'ilgan, Taynadan.
- 6.Kreolka 1915 yil tug'ilgan, Koronadan.
- 7.Tma 1929 yil tug'ilgan, Taygadan.
- 8.Poltava 1923 yil tug'ilgan, Kreolkadan.
- 9.Britva 1922 yil tug'ilgan, Kalabriyadan.
- 10.Bryuzovaya 1932 yil tug'ilgan, Biryuzadan.
- 11.Braziliya 1924 yil tug'ilgan, Kalabriyadan.
- 12.Bastion 1924 yil tug'ilgan, Kolumbiyadan.
- 13.Kalabriya 1910 yil tug'ilgan, Koronadan.
- 14.Kamenka 1925 yil tug'ilgan, Kreolkadan.
- 15.Kolumbiya 1914 yil tug'ilgan, Koronadan.
- 16.Balagan 1931 yil tug'ilgan, Braziliyadan.
- 17.Karamel 1931 yil tug'ilgan, Kolumbiyadan.
- 18.Buxara 1934 yil tug'ilgan, Biryuzadan.
- 19.Pyatiletka 1931 yil tug'ilgan, Poltavadan.
- 20.Kultura 1931 yil tug'ilgan, Kolumbiyadan.
- 21.Biryuza 1922 yil tug'ilgan, Kalabriyadan.
- 22.Tayna 1920 yil tug'ilgan, Kolumbiyadan.
- 23.Patrul 1911 yil tug'ilgan, Koronadan.

**2-topshiriq.** Quyidagilarga ko'ra kostroma zotidagi poslushnitsa 1 sigirining oilasi tuzilsin.

- 1.Problema (2-6448-4,06) Pomoshnitsadan.
- 2.Pobeda (3-7060-3,7) Poslushnitsa 11 dan.
- 3.Pena (1-5962-3,4) Personadan.
- 4.Vestochka (4-8357-3,55) Vestalkadan.
- 5.Aechal (4-4487-3,7) Poslushnitsa 1 dan.
- 6.Viza (1-5610-3,5). Vlastnayadan.
- 7.Volnaya (2-7837-3,71) Volnadan.
- 8.Datchanka (6-5770-3,46) Dochkadan.
- 9.Sximnitsa Poslushnitsa 1 dan.



- 10.Data (2-4822-4,08) Datchankadan.
- 11.Persona (4-6318-3,32) Pechoradan.
- 12.Penka (1-3347-4,24) Parijankadan.
- 13.Plvnaya (2-5902-4,1) Pechaldan.
- 14.Valyuta (1-3942-3,67) Volnadan.
- 15.Pomna (1-5056-3,7) Pchelkadan.
16. Volnitsa Volnayadan.
- 17.Delya (2-4581-3,43) Dobrayadan.
- 18.Vestalka Poslushnitsa 1 dan.
- 19.Pokornaya (1-7590-3,69) Pochoshnitsadan.
- 20.Dochka (12-7189-3,0) Sximnitsadan.
21. Pevina (3-7452-3,82) Pchetlkadan.
- 22.Poslushnitsa 11 (6-14115-3,92) Poslushnitsa 1 dan.
- 23.Vlastnaya (7-8638-3,5) Vestalkadan.
- 24.Pechora (7-7415-3,38) Pechaldan.
25. Pchelka (7-6256-4,13) Pechaldan.
- 26.Afrodita (2-5669-3,43) Vlastnayadan.
- 27.Pravdivaya Problemadan.
- 28.Dobraya (4-8624-3,58) Dochkadan.
- 29.Vesna (6-4952-3,5) Vestalkadan.
- 30.Plamya Pevitsadan.
- 31.Pomoshnitsa (4-12788-3,53) Poslushnitsa 11 dan.
- 32.Parijanka (4-7547-4,02) Plavnayadan.
- 33.Volna (6-9676-3,53) Vesnadan.

**3-topshiriq.** Jadval ma'lumotlariga ko'ra shvits zotidagi mashhur oilarning muhsuldorligi o'rganilib, ular o'zaro taqqoslansin.

**133-jadval**

**Shvits zotidagi mashhur oilalarning muhsuldorligi (A.S.Vsyakix)**

Dilalar	Oiladagi sigirlar soni, bosh	305 kunlik sut sog'im, kg	Sutning yog'lilik darajasi, %	Tirik vazni, kg
Nianka MSHM-345	16	4066	4,19	562
Bella GSH-5	17	4215	3,99	526
Cheremuxa GSHM-348	8	4055	4,53	575
Kuvshinka GSHM-1271	8	4346	4,31	540
Vinka-GSHM-264	21	4312	3,89	516

Jmurka GSHM-397	11	4192	4,06	546
Zebra GSHM-402	14	4361	3,95	551
Nezlbudka GSHM-265	14	4119	4,11	535
Lisichka 991	6	4942	3,80	520
Otrada 20	12	4227	3,90	525
Otirka 110	12	4626	3,83	530
Fasol 736	7	4820	4,44	356
Uralka 1210	19	4173	4,04	541
Naryadnaya 10	19	4012	4,04	540

## 27-mashg'ulot. PODA GENELOGIYASINI TUZISH VA UNING TAHLILI

**Mashg'ulotning maqsadi:** naslchilik yozuvlarini o'rganish va tahlil qilish yordamida poda geneologiyasini tuzish va tahlil qilish. Podaning kelib chiqishida tizim va oilalarning o'zaro bog'liqligini o'rganib, ular bilan ishlash va umuman podalarni yaxshilashdagi naslchilik tadbirlarini ishlab chiqishini, o'rganish.

**Uslubiy qo'llanmalar.** Har bir poda ayrim tizim va oilalarga mansub bo'lgan hayvonlardan tashkil topadi. Oilalarning tizimlari bilan o'zaro muvofiqligiga qarab juftlash naslchilik ishining samarali bo'lishi garovidir. Podadagi har xil juftlashlar natijasini poda geneologiyasini tahlil qilish yordamida aniqlash mumkin. Poda geneologiyasi yordamida o'tgan yillarda naslchilik ishining samaradorligini va kelgusida uning yo'nalishini belgilash mumkin.

Poda geneologiyasi maxsus jadval sifatida tuzilib, uning chap tomonida vertikal qatorida xo'jalikda ishlatilgan naslli erkak hayvonlar foydalanilgan vaqtiga qarab, tartib bilan pastdan yuqoriga yozib boriladi (8-10 yil davomida).


Jadvalning pastki qismida gorizontal qatorlarda doira shaklida mashxur oila boshliqlari joylashtiriladi. Ularning qizlari doira shaklida, o'g'illari to'rtburchak shaklida jadvalning gorizontal qatorlarida otalarning, ya'ni naslli erkak hayvonlarning to'g'risida joylashtirilib, onalar bilan to'g'ri chiziqlar orqali biriktiriladi. Bunda bir qatorda bir bosh naslli erkak hayvonning har xil oilalardan olingan avlodlari joylashadi. Har bir doira yoki turtburchak yonida hayvonning lakabi, raqami, tirik vazin, mahsuldorligi va boshqa ko'rsatkichlari yoziladi.

Jadval yordamida har bir hayvonning otasi, onasi, momolari aniq bo'lib avdoldan-avldlarga belgilarining berilishi o'rganish mumkin.



Jadvaldan mashxur va past qimmatli oilalarni ajratish va ular bilan naslchilik olib borishning yoʻnalishini ishlab chiqish mumkin. Ayrim naslli erkak onlarning foydalanish vaqtida ularning ayrim oilalar bilan juftlaganda ular avlod olinganini qarindosh va noqarindosh juftlashlar qanday natija berishini bilish mumkin.

Geneologiya jadvali tuzish uchun bir necha yillik qochirish va tugʻish hollari podada xizmat qilgan naslli erkak hayvonlar ajratilib tartib bilan yuqoriga qarab yozib boriladi. Soʻngra barcha urgʻochi hayvonlar qatoriga ajratiladi. Buning uchun koʻp nasl-nasab shajaralari natijalari toʻplab, ularda koʻproq takrorlanayotgan hayvonlar, yaʼni oila boshliqlari ajratiladi va ular jadvalning pastki qismida gorizontal qatorlarda joylashtiriladi. Misol sifatida Moskva viloyatidagi «Xolmogorka» davlat xoʻjaligida foydalanilgan qora-ola zotiga mansub buqaning geneologiyasi tuzilishini koʻrib chiqamiz. Qolgan oilalar ham shu tartibda joylashtirilib poda geneologiyasi tuziladi.



66-rasm. Poda geneologiyasining tuzilishi.

Xoʻjalikdan keyingi yillarda dastlab foydalanilgan nasli buqalarga Vismut, Latun, Ladan va boshqalar kiradi.

Nasl-nasab shajaralarini oʻrganib chiqish natijasida Ariya oilasi borligi aniqlangan. Arka va Antichnaya Ariyaning Vismut va Artisdan tugʻilgan

qizlaridandir. Arkadan Alima, va Olge tug'ilgan. Ularning otasi Ladandir Antichnaya bilan Ammiachniy buqasidan Lyubava tug'ilgan. Alma Olge va Lyubava Ariyaning nevaralari Vera, Aliya, Arfa chevaralari bo'lib xisoblanadi. Alma, Aliya, va Arfa opa-singillardir.

**Kerakli materiallar.** Ish daftari, davlat naslchilik kitoblari, naslchilik yozuvchilari va nasl-nasab shajaralari.

**1-topshiriq.** Oldingi berilgan qora-ola zot podasi geneologiyasini tuzish, quyidagi nasl-nasab shajaralaridan foydalanib davom ettirilsin.

**2-topshiriq** O'quv-tajriba xo'jaligida urchitilayotgan poda geneologiyasi tuzilsin. Buning uchun keyingi 10-15 yil ichida qo'llanilgan nasliy buqalar oilalaridan foydalanilsin.

### Nazorat savollar

Chorva mollarini urchitish usullari deganda nimani tushunasiz? urchitish usullarini bir-biridan farki nimada?

Sizga ma'lum bo'lgan chorva mollarining urchitish usullarini tariflang.

Sof zotli urchitishning maqsadi nima?

Zavod tizimsining tarifini bering?

Hayvonlarning kaysi leniyaga mansubligini qanday qilib aniqlanadi?

Tizim sxemasi qanday kilib tuziladi?

Oilali urchitishning tarifini bering

Oila sxemasini qanday tuziladi?

Naslchilik ishida tizim va oilalarini roli qanday?

Poda geneologiyasi qanday tuziladi va tahlil qilinadi

Poda geneologiyasini o'rganishda nimalarni aniqlash mumkin.

Poda geneologiyasini tahlil qilishda qarindoshlik juftlashni aniqlash mumkinmi.

### CHATISHTIRISH VA DURAGAYLASH

Chatishtirishda bir turga kiruvchi har xil zotlarga mansub bulgan urg'ochi va erkak hayvonlar o'zaro juftlanadi. Duragaylashda har xil turlarga mansub bulgan urg'ochi va erkak hayvonlar o'zaro juftlanadi. Chatishtirish va duragaylashda olingan avlodlari chatishma va duragaylar deyiladi. Chatishma va duragaylarning bug'ini (genotipi) har xil bulishi mumkin. (birinchi  $F_1$ , ikkinchi  $F_2$ , uchunchi  $F_3$  va xakozo).

Chatishtirish usuli yordamida yangi hayvon zotlari yaratiladi mavjud zotlar yaxshilanadi, mahsuldor podalar olinadi. Chatishtirish va duragaylashda hayvonlarning o'zgaruvchanligi oshadi va geterozis xususiyatlari paydo bo'ladi. Chatishtirish natijasida har xil zotlarning belgilari chatishmalarda xilma-xil ravishda birikadi va yangi beligi va xususiyatlar kelib chiqadi. Olib boriladigan naslchilik ishi vazifalariga qarab har xil chatishtirish usullari qo'llaniladi.


1. Qon singdirish
2. Qon kuyish
3. Zavod chatishtirish
4. Sanoat chatishtirish
5. Almashlab chatishtirish.



## mashg'ulot. CHATISHTIRISH VA DURAGAYLASHNING HAR XIL TURLARI BILAN TANISHISH

**Mashg'ulotning maqsadi.** Xo'jaliklardagi har xil chatishtirish va duragaylash turlari bilan tanishish va ularning sxemasini tuzishni o'rganish.

**Uslubiy qo'llanmalar.** Qon singdirish chatishtirish bir zotni ikkinchi zot bilan yanaycha yaxshilash maqsadida qo'llaniladi. Ayniqsa, talabga javob bermaydigan mahalliy zotni asta-sekin madaniy zotga aylantirish, ya'ni rejalashtirilgan zotning avlodlarini ko'paytirish va mahsuldorligini oshirish uchun qo'llaniladi. Chatishtirishda mahalliy zot yaxshilovchi madaniy zot yaxshilovchi zot deb ataladi. Bir zotni mahalliy zot bilan yaxshilash, ikki zot o'rtasida chatishma avlodlarni olish, so'ngra duragaylarni bir necha bo'g'in davomida yaxshilovchi zot erkak hayvonlari bilan chatish asosida amalga oshiriladi (97-rasm).



67-rasm. Qon singdirish chatishtirish sxemasi.

Bu chatishtirishning birinchi bo'g'in chatishma avlodlariga yaxshilovchi zot qoni 50%, ikkinchi bo'g'inida 75% 3-bo'g'inida 87,5% va 4-bo'g'inida 93,75% ni tashkil qiladi. Mahsuldorligi yuqori bo'lgan 4-5 bo'g'in chatishma avlodlari yaxshilovchi zot sifatida mos kelsalar ularni sof zotli hayvonlari deb qabul qilish mumkin.

Qon singdirishda yaxshilovchi zot hayvonlarining nusxasini aynan olish zarur bo'ladi. Balki, yaxshilovchi zotga mahsuldorligi bo'yicha teng keluvchi hamda mahalliy avlodlarda moslashgan hayvonlar olishga harakat qilinadi.




Qon singdirish usuli odiy va murakkab bo'lishi mumkin. Oddiy qon singdirishda yaxshilovchi sifatida bir zot qatnashadi. Murakkab qon singdirishda esa ular bir necha bo'lishi mumkin.

Qon qo'yish chatishtirish biror zotni ayrim kamchiligini tuzatish yoki ayrim xususiyatlarini yanada kuchaytirish maqsadida qo'llaniladi. Bu chatishtirish usuli yaxshilanuvchi zotning qimmatli xususiyatlarini yanada kuchaytirish maqsadida qo'llaniladi. Bu chatishtirishda yaxshilanuvchi zotning qimmatli xususiyatlarini saqlab qolishga harakat kilinadi. Bu yaxshilovchi zotni to'g'ri tanlash va uning erkak hayvonlaridan bir marta foydalanish orqali bajariladi. Yaxshilovchi zot yaxshilanuvchi zotga tana tuzilish va mahsuldorligi jihatidan yaqin bo'lib, ayrim qimmatli xususiyatlar bo'yicha esa yaxshilanuvchi zotdagiga qaraganda kuchli rivojlangan bo'lishi zarur.

Yaxshilanuvchi zot, yaxshilovchi zot bilan chatishtirilib ulardan birinchi bo'g'in chatishma avlodlari olinadi va keyinchalik bu chatishmalarni yaxshilanuvchi zot erkak hayvonlar bilan juftlab ikkinchi bo'g'in avlodlar olinadi, so'ngra esa bular o'z-o'zi bilan juftlanadi. Ayrim hollarda ikkinchi bo'g'in 1-chatishma avlodlari yana yaxshilanuvchi zot erkak hayvonlari bilan chatishtiriladi. Olingan uch bo'g'in chatishma avlodlar o'z-o'zi bilan juftlanadi (98-rasm).

Qon qo'yish chatishtirish ko'pgina zotlarni yaxshilash maqsadida qo'llanilgan.

Masalan sutida yog'i ancha kam bo'lgan qora-ola zotini sigirlarini sutini tarkibida yog'lilik darajasi yuqori bo'lgan jersey zotining buqalari bilan chatishtirib, olingan avlodlarni sutdagi yog' miqdori yaxshilangan. Zavod chatishtirish yangi hayvon zotlarini yaratish maqsadida qo'llaniladi. Zavod chatishtirishda ikki zot qatnashsa oddiy, uch va undan ko'p zotlar qatnashsa, murakkab zavod chatishtirish deyiladi. Odatda bu chatishtirish usulida ikkinchi yoki uchinchi bo'g'in chatishma avlodlari orasida orasida maqsadga muvofiq tipdagi hayvonlar o'z-o'zlari bilan juftlanadi.




“O‘z-o‘zi” bilan urchitish.

68-rasm. Qon qo'yish chatishtirish sxemasi.

Ayrim hollarda ikkinchi va uchinchi bo'g'in chatishma avlodlari birinchi bo'g'in chatishma avlodlari bilan chatishtirish natijasida olingan chatishmalar ham “o'z-o'zi” bilan juftlanadi.

Zavod chatishtirish variantlari har-xil bo'lishi mumkin. M.F.Ivanov Ukrainaning mahalliy cho'chqalari bilan, yirik oq cho'chqa zotni chatishtirib Ukraina dashtining oq cho'chqa zotini, Ukrainaning mahalliy merinos qo'ylarini rambuls zoti bilan chatishtirib, askaniya merinos qo'y zotini yaratdi. Bunda sodda zavod chatishtirish qo'llanilgan.



“O‘z-o‘zi” bilan chatishtirish.

69-rasm. Oddiy zavod chatishtirish sxemasi.


Ko'pgina zotlar (qizil cho'l, bestujev, tagil' qoramol zotlari) murakkab zavod chatishtirish usulida yaratilgan.

Sanoat chatishtirish asosan ikki zotni chatishtirib, geterozis xususiyatiga ega bo'lgan birinchi bo'g'in chatishma avlodlari olish maqsadida qo'llaniladi. Geterozis hodisasi birinchi bo'g'in chatishma avlodlarda namoyon bo'lib, jadal o'sish va rivojlanishi hamda yuqori mahsuldorligi bilan ajralib turadi.

Sanoat chatishtirish ayniqsa go'sht mahsuloti ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi. Masalan sut va sut-go'sht yo'nalishidagi qoramol zotlarini, go'sht yo'nalishidagi qoramol zotlarining buqalari bilan chatishtirib, birinchi bo'g'in chatishma avlodlari yaratiladi. Bu chatishmalarning mahsuldorligi, sof zotli hayvonlarga nisbatan 10-15% ko'p bo'ladi. SHuningdek sanoat chatishtirishjun, tuxum etishtirish uchun ham keng qo'llaniladi.


Sanoat chatishtirish ikki zotli yoki uch zotli bulishi mumkin (100-rasm).





70-rasm. Oddiy ikki zotli sanoat chatishtirish sxemasi.

Uch zotli sanoat chatishtirish bu biroz murakkab bo'lib, bunda ikki zotli birinchi bo'g'in chatishma avlodlarini uchinchi zot hayvonlari bilan chatishtiriladi. So'ngra uch zotli chatishma avlodlar mahsulot etishtirish uchun qo'llaniladi. Bu chatishmalarda geterozis xususiyati yanada kuchliroq rivojlangan bo'lishi mumkin. Turt zotli murakkab sanoat chatishtirishda dastlab ikki zotli birinchi bo'g'in chatishma avlodlari olinib, so'ngra ular o'zaro chatishtirilib, to'rt zotli chatishmalar olinadi va mahsulot hayvonlar sifatida foydalaniladi (101-rasm).




71-rasm. To'rt zotli murakkab sanoat chatishtirish.

Sanoat chatishtirishda zotlarning o'zaro muvofiqligini hisobga olish zarur. Almashlab yoki ratatsion chatishtirish sanoat chatishtirishning bir turi bo'lib foydalanuvchi guruh hayvonlar olish uchun qo'llaniladi. Almashlab chatishtirishda bir echka bug'in ketma-ket chatishmalar olinib ularda geterosiz xususiyati saqlanib qolinadi.


Bu usulda bir zotning urg'ochi hayvonlar boshqa zotning erkak hayvonlari bilan filanadi. So'ngra chatishmalarining urg'ochi boshlang'ich zot erkak hayvonlari bilan chirilib, chatishmalar olinadi va keyinchalik har bo'g'inda qochirishda qatnashayotgan zotlarning erkak hayvonlari almashtirib boriladi.

Almashlab chatishtirish asosan ikki va uch zotli bo'ladi (102-103-rasm).



72-rasm. Ikki zotli almashlab chatishtirish sxemasi.

A) Qizil cho'l zoti; B) Gereford zoti.



73-rasm. Uch zotli almashlab chatishtirish sxemasi.

A) Qizil cho'l zoti; B) Gereford zoti; V) Santa gertruda zoti.

Almashlab chatishtirishda asosan har-xil chatishma avlodlardan ko'proq foydalaniladi. Faqat juftlashda foydalaniladigan erkak hayvonlar sof zotli bo'lishlari lozim.


Almashlab chatishtirish tovar xo'jaliklarida o'tkazilib, asosan cho'chqachilik, parrandachilik va go'shtdor qoramolchilikda yaxshi natija beradi.

Duragaylashda har xil turga mansub bo'lgan urg'ochi va erkak hayvonlar juftlanadi. Zoologik sistemasida bir-biroviga yaqin joylashgan turlar, o'zaro engil juftlanadi va naslli avlodlar beradi. Masalan, qoramollar bilan zebu orasida nasl olish ancha engil bo'lib, ular naslli bo'ladilar.



Bir-biridan uzoq joylashgan turlarning qoʻshilishi ancha qiyin boʻlib, ularning duragaylari qisman naslsiz boʻlishi mumkin. Masalan ot bilan eshak, qoramol bilan qutos orasida olinadigan duragaylar avlod bermaydi. Duragaylash usuli asosan ikki maqsadda qoʻllaniladi.

Foydalanuvchi yaʼni mahsuldor gruppada hayvonlar olish uchun (sanoat chatishtirishga oʻxshash). Masalan, xachir olish va boshqalar Yangi zotlar yaratish va ayrim zotlarni yaxshilash maqsadida. (Masalan, togʻ merinosi, qozoq arxarmerinosi, santa gerturuda zotlari va boshqalar).



74-rasm. Duragaylash sxemasi.  
A- merinos zoti. B- yovvoyi arxar.

**Kerakli materiallar.** ish daftari har-xil chatishtirish va duragaylash usullarining sxemalarini ifodalovchi jadvallar. Har-xil zot hayvonlari va xilma-xil chatishmalarning suratlari.

**1 -topshiriq.**Barcha chatishtirish va duragaylash usullari sxemalarini chizish va genotiplarni harflar bilan belgilab chiqish.

**2-topshiriq.** Mahalliy zebusimon qoramollarni, qora-ola zoti bilan beshinchi boʻgʻingacha qon singdirish usuli bilan chatishtirish sxemasi tuzilsin.

**3-topshiriq.**Qora ola zotiga mansub sigirlarini jersiy zotining buqalari bilan qon qoʻyish usulida chatishtirish sxemasi tuzilsin. Chatishtirish uchinchi boʻgʻinda davom ettirilib, soʻngra chatishmalar «oʻz-oʻzi» bilan juftlansin.

**4-topshiriq.** Qoramollarni ayrim zotlarini sanoat usulida chatishtirish natijasida olingan maʼlumotlarni tahlil qilib, qaysi chatishtirishda qoramollarning goʻsht mahsuloti oshgandiligini aniqlang.

134-jadval

Sanoat chatishtirish natijasida olingan chatishma avlodlarning 15 oyligidagi so'yim ko'rsatkichlari (P.S.Sobirov ma'lumoti)

Genotiplar	Tirik vazn, kg	So'yim og'irligi, kg	So'yim chiqimi, %	Terisining og'irligi, kg
Qora-ola	404,0	232,3	57,5	31,5
Shvits x qora-ola	425,5	251,9	59,2	34,0
Qizil cho'l x qora-ola	414,0	240,1	58,0	32,7
Qizil eston x qora-ola	408,0	235,8	57,8	31,8

**5-topshiriq.** Mahalliy zebusimon qoramollarni qora-ola zotining buqalari bilan chatishtirishdan olingan chatishma avlodlarining mahsuldorligini o'rganib qaysi g'indagi chatishmalar olish foydali ekanligini aniqlang va izohlab bering (135-jadval).

135-jadval

Zarafshon» xo'jaligi sharoitida maxalliy zebusimon qoramollar va ularning qora-ola zotli buqalar bilan chatishtirish natijasida olingan chatishma avlodlarning sut mahsuldorligi

Zot va zotdorligi	n	305 kunlik sut sog'imi, kg	Sutning yog'lilik darajasi, %	Sutdagi yog' chiqimi, kg	Sigirning tirik vazni, kg	Sutdorlik koeffitsienti
Mahalliy zebusimon qoramollar	54	1776	4,21	74,76	316	562
1 bo'g'in chatishma avlodlar	34	2462	4,01	98,72	376	655
2 bo'g'in chatishma avlodlar	54	2743	3,95	108,34	393	698
3 bo'g'in chatishma avlodlar	15	3167	3,86	122,24	432	733
4 bo'g'in chatishma avlodlar	6	3055	3,67	112,11	417	732

**6-topshiriq.** Quyidagi ma'lumotlarga ko'ra qora-ola zotli sigirlarni limuzin va sharole zotlarning buqalari bilan chatishtirishning samaradorligi to'g'risida xulosa kiling (136-jadval).



**Har xil genotipli 15 oylik novvoslarning gusht maxsuldorligi  
(N.N.Narzullaev ma'lumoti)**

Ko'rsatkichlar	Genotiplar		
	Qora-ola	Qora-ola x limuzin	Qora-ola x sharole
So'yim oldi tirik vazni, kg	388,3	427,7	434
Nimtalangan go'sht og'irligi, kg	212,2	242,6	249,3
Ichki yog' og'irligi, kg	12,8	11,1	11
So'yim og'irligi, kg	225,0	253,7	250,7
So'yim chiqimi, %	57,9	59,3	60,7
Sovutilgan nimtalangan go'sht og'irligi, kg	210,5	240,3	240,1
SHundan: (%)			
Laxm go'shtlilar	77,07	79,10	80,45
Suyaklar	19,41	17,90	17,00
Paylar	3,52	3,00	2,55
Go'shtdorlik indeksi	3,97	4,42	4,73

**7-topshiriq.** Quyidagi ma'lumotlarga ko'ra qozoq arxaromerinos zotini yaratishdagi duragaylash sxemasini tuzing.

a) merinos qo'ylarini o'ldirilgan yovvoyi arxar qo'chqorlarning urug'i bilan qochirilgan;

b) birinchi bo'g'in duragay qo'chqorlar bilan merinos qo'ylari qochirilgan;

v) ikkinchi bo'g'in duragay qo'chqorlari bilan merinos qo'ylari qochirilgan;

g) uchinchi bo'g'in duragay sovliqlarni ikkinchi bo'g'in duragay qo'chqorlari bilan qochirib, olingan duragaylar «o'z-o'zi» bilan urchitilgan.

## **29-mashg'ulot. HAL XIL CHATISHTIRISH VA DURAGAYLASHDA HAYVONLARDA QON DARAJASINI ANIQLASH**

**Mashg'ulotning maqsadi.** Chatishtirish va duragaylashning har xil bosqichlarida olingan duragaylardagi qon ulushi yoki darajasini aniqlashni o'rganish. Nasl-nasab darajasini o'rganib, ayrim avlodlar, tizimlar, oila boshliqlarining duragaylariga irsiy ta'sirini aniqlash.

**Uslubiy qo'llanmalar.** Chatishtirish va duragaylashda ikki yoki ko'p zot va tur hayvonlari qatnashganligi tufayli har xil duragaylarga ayrim zotlar yoki turlarning irsiyat yoki qon ulushi qancha miqdorda o'tganligini aniqlash zarur.

Naslchilik ishining yo'nalishiga qarab chatishtirish va duragaylashniqaysi bo'g'ingacha o'tkazish, qachon qanday zotlarning hayvonlaridan foydalanish belgilab olinadi.

Shu maqsadlar uchun duragaylarda irsiyat yoki qon ulushini yoki darajasini aniqlab chiqish lozim bo'ladi.

Qon ulushi yoki darajasi aniqlash texnikasi ota va ona belgilarining bolalarga teng miqdorda yoki o'rtacha naslga berilishiga asoslangan. Chunki irsiyat har bir ota va ona hujayralaridagi xromosomalarining teng miqdorda avlodlarga o'tishiga bog'liq bo'ladi.

Har qanday chatishtirish birinchi bo'g'in chatishmalar olishda boshlanib ularning yarmi ( $1/2$  qismi) otadan va yarmi ( $1/2$  qismi) onadan o'tgan bo'ladi. Ularni qonli chatishmalar ham deyiladi. Keyingi bo'g'in chatishmalarida irsiyat yoki qon bo'lagi o'zgarib boradi.

Har bir zotning irsiyati kasr sonlar bilan yoki birning bo'laklari bilan ifodalaniлади. Hamma zotlar irsiyatning yig'indisi birga teng bo'ladi.

Asosan, uch zotli chatishmalar uchta zotga mansub bo'lgan hayvonlarni (A, V va S) o'z navbatida o'z navbat bilan chatishtirish natijasida olinadi. Bu chatishtirish sistemasi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$\frac{A-B}{2} - C$$

Chatishtirishda qatnashayotgan har bir zotning qon darajasi yoki ulushini birga teng deb olsak, chatishtirishda olingan chatishmalarda zotlarning qon ulushi quyidagicha ifodalaniлади.

$$\frac{1-A-1-B}{2} = 1/2A - 1/2B, \text{ cўngra}$$

$$\frac{1/2A - 1/2B - 1C}{2} = 1/4A - 1/4B - 1/2C$$

Amal qilishda chatishtirishda qon ulushini aniqlash uchun, bir zot birga ikkinchi zot bilan birga teng deb olinadi. Birinchi bo'g'in chatishmalar B zot bo'yicha quyidagi qon ulushiga ega bo'ladi.

$$\frac{A-B}{2} - \frac{0-1}{2} = \frac{1}{2}$$

Ikkinchi bo'g'in duragaylarda quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{1}{2} - \frac{0}{2} = \frac{1}{4}$$

Uchinchi bo'g'in duragaylarda quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{1}{4} - \frac{1}{2} = \frac{5}{8} \text{ va hokazo}$$

Qon singdirish chatishtirish sxemasi quyidagicha bo'ladi:

va hokazo

Bunda B zot bo'yicha qon ulushi quyidagicha bo'ladi:

$$\text{Birinchi bo'g'in} \text{ da } = \frac{1}{2}$$

$$\text{Ikkinchi bo'g'in} \text{ da } \frac{1}{2} - \frac{1}{2} = \frac{3}{4}$$



Uchinchi bo'g'in bo'g'in duragaylarda  $\frac{3}{4} - \frac{1}{2} = \frac{7}{8}$  va hokazo

Bunda yaxshilovchi zotning qon ulushi har bir bo'g'inda oshib boradi. Qon qo'yish chatishtirish sxemasi quyidagicha bo'ladi.

$$\frac{\frac{A-B}{2} - A}{\frac{2}{2} - A} = A$$

va hokazo

Bunda yaxshilovchi zotning (B) qon ulushi har bir keyingi bo'g'inda kamayib boradi:

Birinchi bo'g'inda  $\frac{1}{2}$

Ikkinchi bo'g'inda  $\frac{1}{4}$

Uchinchi bo'g'inda  $\frac{1}{8}$

Zavod chatishtirish sxemasi har xil bo'lishi mumkin.

**Kerakli materiallar.** Ish daftari, har xil chatishtirish va duragaylash sxemalari, nasl-nasab shajaralari.

**1-topshiriq.** Qora-ola zot sigirlarini aberdin-anguss zotining buqalari bilan chatishtirib, birinchi bo'g'in chatishma avlodlar olingan. Chatishtirish sxemasi tuzilsin va chatishmalarda qon ulushi aniqlansin.

**2-topshiriq.** Yirik oq cho'chqalar bilan landras zot cho'chqalar almashlab chatishtirilib, beshinchi bo'g'in chatishmalar olingan. Chatishtirish sxemasi tuzilsin va duragaylarda qon bo'laklari hisoblab chiqilsin.

**3-topshiriq.** Uch zotli almashlab chatishtirish sxemasi 6 bo'g'in duragaylar olishgacha tuzilsin va chatishmalarda zotlarning qon ulushlari hisoblab chiqilsin.

**4-topshiriq.** Qizil cho'l zot sigirlarini bir marta angler zotining buqalari bilan qon qo'yish usulida chatishtirilgan. Chatishtirish to'rtinchi bo'g'in duragaylar olishgacha davom ettirilgan va so'ngra bu chatishmalar "o'z-o'zi" bilan juftlangan.

Chatishtirish sxemasi tuzilsin va chatishmalarda zotlarning qon ulushlari hisoblab chiqilsin.

**5-topshiriq.** Qozoq mayin junli qo'y zotini yaratishda dumbali qo'ylarni prekos zoti bilan ikkinchi bo'g'ingacha chatishtirilgan, so'ngra ikkinchi bo'g'in duragaylarni "o'z-o'zi" bilan juftlangan. Chatishtirish sxemasi tuzilsin va chatishmalarda qon ulushlari hisoblansin.

**6-topshiriq.** AQSH da go'shtdor qoramollarning bifmaster zotini yaratishda zebu bilan gereford zotlari va zebu bilan shortgorn zotlarichatishtirilgan. So'ngra har ikki xil birinchi bo'g'in duragaylarni o'zaro chatishtirib, ikkinchi bo'g'in chatishmalar olingan va ular "o'z-o'zi" bilan juftlangan. Duragaylash sxemasi tuzilsin va duragaylarda qatnashgan zotlarning qon bo'laklari hisoblab chiqilsin.

## NAZORAT SAVOLLAR

- Chatishtirish va duragaylashning asosiy maqsadlari nimadan iborat?  
Nima ma'lum bo'lgan chatishtirish usullarini ta'riflang.  
Duragaylash xil chatishtirish sxemalarini tuzing.  
Qon singdirish chatishtirishning mohiyati nimada va uning natijasi nimalarga bog'liq  
bo'ladi?  
Qon qo'yish chatishtirish qanday o'tkaziladi va uni o'tkazishda qanday qiyinchiliklar  
mavjud?  
Nima uchun sanoat chatishtirishda olingan birinchi bo'g'in avlodlar "O'z-o'zi" bilan  
qabul qilinmaydi.  
Almashlab chatishtirishning sanoat chatishtirishdan farqi va afzalliklari nimada?  
Zavod chatishtirishning maqsadi nima? va unga ta'sir etadigan omillar.  
Duragaylash qaysi maqsadlarda o'tkaziladi?  
Duragaylashni o'tkazishda qanday qiyinchiliklar mavjud va ularni engish  
imkoninmi?  
Duragaylarda chatishma avlodlar qon ulushi yoki darajasi qanday aniqlanadi?

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. P.S.Sobirov, S.D.Do'stqulov – Genetika asoslari va chorva mollarini urchitish. Toshkent. 1989.
2. S.D.Do'stqulov, A.K.Kaxorov, F.I.Isroilov – Chorva mollarini urchitish. Toshkent-1993
3. P.S.Sobirov, A.K.Kaxorov, S.D.Do'stqulov – Chorva mollarini urchitish. Toshkent. 2003.
4. Nosirov U.N va boshqalar – Chorvachilikda klassik va zamonaviy seleksiya usullari. Toshkent-2008. 472 s.
5. Xolmirzaev D., Yilqichilikdan amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma T.Mexnat. 1988 y.
6. B. Toshpulatov – Turli zotdorlikdagi buqachalarning go'sht maxsuldorligini shakillanishiga ayrim ftnotipik omillarning tasiri. Avto. Referat. 2013. 25b.
7. Kaxarov A.K. Shaptakov E.S. – Genetika. (uslubiy qo'llanma) Samarqand 2009. 137 b.
8. Е.Я.Борисенко и др.- Практикум по разведения с\х жив., М.,1972.
9. Д.Л.Ливантин –Теория и практика повышения мясной продуктивности в скотоводстве. М. 1995.
10. В.Ф.Красота, В.Т.Лобанов, Т.Г.Джапаридзе – Разведение с\х животных, М.Колос,1990.
11. А.К.Эрнст и другие – Племенное дело в животноводстве. М.,1999.
12. Эрнст Л.К., Жигачев А.И. Профилактика генетических аномалий крупного рогатого скота. Ленинград, В.О. «Агропромиздат», 1990, 238 с.
13. Животноводства в Узбекистане. Текущее состояние, проблемы и перспективы развития. Ташкент. 2010. 158 с.



## MUNDARIJA

KIRISH.....	1
1-mashg'ulot. Chorva mollarining o'sishini hisobga olish.....	3
2-mashg'ulot. Har xil turdagi hayvonlar tana tuzilishining yosh ortishi bilan o'zgarib borishi .....	14
3-mashg'ulot. Chorva mollarining konstitutsiyasi va ekstereri .....	20
4-mashg'ulot. Chorva mollarining tana qismlari .....	29
5-mashg'ulot. Eksteryerning asosiy kamchiliklari va nuqsonlari.....	34
6-mashg'ulot. Chorva hayvonlari eksteryerini punktir yoki ball yordamida baholash.....	53
7-mashg'ulot. O'lchov asboblari va chorva hayvonlarining asosiy tana o'lchamlari .....	63
8-mashg'ulot. Tana tuzilish indekslarini hisoblash va eksteryer profilini tuzish .....	69
9-mashg'ulot: Chorva hayvonlarida har xil konstitutsiya tiplarining solishtirma harakteristikasi.....	81
10-mashg'ulot. Sut mahsuloti va uni hisobga olish va baholash.....	86
11-mashg'ulot. Sutning yog' va oqsil ko'rsatkichlarinii hisobga olish va baholash .....	94
12-mashg'ulot. hayvonlarni sut mahsuloti bo'yicha baholash .....	98
13-mashg'ulot. Hayvonlarning go'sht mahsulotini hisobga olish va baholash .....	104
14-mashg'ulot. cho'chqalarning reproduktiv__ko'rsatkichini baholash .....	112
15-mashg'ulot. Parrandalarni mahsuldorligi bo'yicha baholash .....	116
16-mashg'ulot. Qo'ylarning jun mahsuldorligini baholash.....	130

17-mashg'ulot. Otlarning ish qobiliyatini baholash.....	136
18-mashg'ulot. Nasl-nasab shajarasini tuzish.....	141
19-mashg'ulot. Hayvonlarni kelib chiqishiga qarab baholash (geneologiya bo'yicha).....	149
20-mashg'ulot. Har xil turdagi naslli erkak hayvonlarni bolalari sifatiga qarab baholash.....	154
21-mashg'ulot. Irsiyat koeffitsientini aniqlash va undan tanlashda foydalanish.....	168
22-Mashg'ulot. Hayvonlarni nasl-nasab shajarasiga qarab juftlash shakllari bilan tanishish.....	173
23-mashg'ulot. Gomozigotlilik yoki inbriding koeffitsientini aniqlash.....	178
24-mashg'ulot. Gomozigotlikning oshish koeffitsientini aniqlash...	182
25-mashg'ulot. Zavod tizimi tarkibini tuzish va uning tahlili .....	187
26-mashg'ulot. Zavod oilasi sxemasini tuzish va uning tahlili.....	192
27-mashg'ulot. Poda geneologiyasini tuzish va uning tahlili .....	196
28- mashg'ulot. Chatishtirish va duragaylashning har xil turlari bilan tanishish.....	199
29-mashg'ulot. Hal xil chatishtirish va duragaylashda hayvonlarda qon darajasini aniqlash.....	206



30.000 sum

A.K.Kaxarov, M.K.Narbaeva, E.S.Shaptakov,  
A.Shermatov, A.A.Xushvaqov

QISHLOQ XO‘JALIK HAYVONLARINI  
URCHITISH

Samarqand, “Zarafshon” nashriyoti DK, 2019. – 212 b.

Muharrir: Adolat Farmonova  
Musahhih: Gulnora Xoldorova  
Sahifalovchi: Dilbar Samatova

Nashriyot litsenziyasi AI №153, 14.08.2013

Terishga berildi: 03.04.2019 y.

Bosishga ruxsat etildi: 09.04.2019 y.

Ofset bosma qog‘oz. Qog‘oz bichimi 60x84 <sup>1/16</sup>.

«Times New Roman» garnituras. Ofset bosma usuli.

Hisob-nashriyot t. 30,0. Shartli b.t. 13,75.

Adadi: 50 nusxa.

Buyurtma. 11.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Zarafshon” nashriyotida nashrga tayyorlandi.  
140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko‘chasi, 12-uy.

Tel.: (+99866) 235-28-40

e-mail: zar-nashriyot@inbox.uz

“Zarafshon” nashriyoti davlat korxonasi  
bosmaxonasida chop etildi.  
140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko‘chasi, 12-uy.



ISBN 978-9943-5410-2-3



9 789943 541023